

O'zbekiston Respublikasi
Navoiy kon – metallurgiya kombinati
Navoiy davlat konchilik instituti
Kimyo – metallurgiya fakulteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası

Sayidova M. G'



ETIKA va ESTETIKA

**seminar mashg'ulotlari uchun
uslubiy qo'llanma.**

Navoiy 2010.

Sayidova M. G'

ETIKA va ESTETIKA

**seminar mashg'ulotlari uchun
uslubiy qo'llanma.**

НАВОИЙ - 2008

Taqrizchi:

t. f. n. Ro'zieva R. H

Ilmiy muharrir:

t. f. n. Hayitova O. S

Uslubiy ko'rsatma Navoiy davlat konchilik instituti imliy – uslubiy kengashida (27 iyun 2010 yil 6 - sonli bayonnoma) muhokama qilinib chop etishga tavsiya etilgan.

Kirish.

Yuksak taraqqiy etgan buyuk kelajak komil ma`naviyatdan boshlanadi. Respublikamiz taraqqiyotida xalqning salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so`nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta`lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Etika va estetika (axloqshunoslik va nafosatshunoslik) fanlari ko`p tarmoqli, keng qamrovli, teran mazmunli, xilma - xil oqimlarga boy va uzoq tarixga ega. Bularni o`rganish va o`rgatishga juda ko`p vaqt kerak, oliy o`quv yurtlarida esa oz soat vaqt ajratilgan. Ana shu nuqtai - nazardan qaraganda ham ushbu fan bo`yicha hozirgi kunda uslubiy adabiyotlarga ehtiyoj juda katta. Ayniqsa, vatanimiz mustaqillikka erishgandan so`ng boshqa maxsus falsafiy fanlar qatori axloqshunoslik va nafosatshunoslik faniga ham e`tibor ortdi.

Uslubiy ko`rsatmada Etika va estetika fanlarining o`ziga xos xususiyatlari, uni o`zlashtirishning pedagogik jihatlari, o`qitishning samarali, zamonaviy uslublarini qo`llanilgan.

Uslubiy ko`rsatmada qo`shimcha adabiyotlar, yangi pedagogik texnologiya usullari, talabalar asosiy e`tiborlarini qaratishlari lozim bo`lgan mavzuga oid materiallar, umuman, mavzuni mustaqil ishlash uchun kerakli ma`lumotlar bayon qilinganligi talabaning seminar mashg`ulotiga mustaqil tayyorlash jarayonini osonlashtiradi.

Ushbu uslubiy ko`rsatma talabalarni mustaqil ishlashga o`rgatish bilan birga keng qamrovli fikr yuritish va seminar mashg`ulotini bajarish jarayonida kerakli axloqiy va estetik ko`nikmalarni hosil qilishda yaqindan yordam beradi. Uslubiy ko`rsatma seminar mashg`uloti, ularni bajarish, baholash jarayoniga aniqlik kiritadi va samarali natijalar beradi degan umiddamiz.

Etika va estetika fanlarining dars soatlari taqsimoti.

Auditoriya mashg'ulotlarining umumiy soati: 18 soat. Shundan ma'ruza: 8 soat; seminar mashg'ulotlar: 10 soat.

T/r.	Mavzular nomi	Ma'ruza	seminar mashg'uloti.
1	Axloqshunoslikning (etika) predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari. Axloqshunoslikning (etika)asosiy mezoniy tushunchasi.	2	
2	Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari (qadimgi dunyo, o'rta asrlar. Yangi davr)	2	
3	Turkiston ma'rifatchi jadidlarining axloqiy qarashlari.		2
4	Axloqiy tamoyillar va meyo'rlar.Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari		2
5	Axloqiy madaniyat va kasbiy odob.		2
6	"Estetika" fanining predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari. Estetikaning asosiy tushunchalari.	2	
7	Estetik taffakur taraqqiyotining asosiy bosqichlari.San'atning kelib chiqishi.San'at turlari.	2	
8	Estetika (Nafosatshunoslik)ning mushtarak mezoniy tushunchalari.		2
9	San'at asarini nafosatli idrok etish va shaxs nafosatli tarbiyalari.		2
	Ja'mi 18 soat	8	10

Birinchi seminar mashg'uloti texnologik xaritasi.

("Aqliy hujum" usulini qo'llagan holda.)

Mavzu: Turkiston ma'rifatchi jadidlarining axloqiy qarashlari.

Seminar rejasi. 1. Turkiston ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari. 2. Ahmad Donish, Furqat, Muqumiy va boshqa dastlabki ma'rifatchilarning asarlarida ko'tarilgan axloqiy muammolar. 3. Abay, Anbar otin, Abdulla Avloniy va Fitratning axloqiy qarashlari. 4. Jadid matbuotining axloqiy tarbiya borasidagi xizmatlari.		
Maqsad: Talabalarni mavzuga oid bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish.		
O'quv faoliyat natijasi. <u>Talaba bilishi kerak:</u> • Jadidlarning faoliyati haqida; • Jadidlarning g'oyalari va maqsadlarini; • Turkiston ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlarini; • Ma'rifatchilik yo'nalishlarini; • Ahmad Donish, Furqat, Muqumiy, Anbar otin, Abdulla Avloniy va Fitratlarning axloqiy qarashlarini; • Jadid matbuotining axloqiy tarbiya borasidagi ishlarini.		
Mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar. 1. O'quv materiallari bilan tanishish. 2. Ma'ruza matnini o'qish. 3. Quyidagi o'quv adabiyotlari bilan tanishish: ▪ I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: 1998 y. ▪ O'zbekistonning yangi tarixi. 1 - kitob: Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T. : "Sharq" 2000 y. ▪ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent, 1993 yil.		
Tekshirish usuli: Og'zaki savol – javob. Reyting baholash.	Maksimal ball: 2	O'qituvchi imzosi:

Mavzuning qisqacha mazmuni.

Berilayotgan materiallardan fundamental ma'lumot sifatida
foydalanish va albatta texnologik xaritada ko'rsatilgan
qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilish kerak.

1. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general - gubernatorlaridan biri A. N. Kuropatkinning o'z kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizasiyasidan chetda tutib turdik, degan so'zlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm - fani va madaniyati ham chor ma'muriyati to'siqlari orasidan sizib kirar edi. Shu ijobiy ta'sir asta - sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi "Uyg'onish davri"ni boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida o'z xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg'onish Ovro'pa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo'ldi. Shuningdek, o'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha - ma'rifatchilik tarzida namoyon bo'lish imkoniyati yaratildi. Zero o'sha g'oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Ma'rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilimli - ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga etkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi.

Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jihatdan o'zbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827 - 1897) «Navodir ul - vaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi.

Shuningdek, Ahmad Donish o'z davridagi joxillik, riyokorlik, poraxo'rlik singari illatlar jamiyatni tanazzulga olib borishini ta'kidlar ekan, din peshvolarining noto'g'ri yo'lga kirib ketganini, shayhlarning yolg'onchiligini, ulamolarning poraxo'rligini fosh qiladi.

Qoraqalpoq xalqining buyuk mumtoz shoiri Berdaq (1827 - 1900) she'rlarida ham o'sha davr axloqiy muhiti o'z aksini topadi; u ham din peshvolarining o'zi ohiratga ishonmasliklarini, tovlamachilik, ochko'zlik, tekinxo'rlik illatlariga mubta'lo bo'lganliklarini va bu bilan islom ildiziga bolta urayotganliklarini qattiq tanqid ostiga oladi.

Buyuk o'zbek mumtoz shoirlari Furqat (1858 - 1909), Muqimiy (1859 - 1903), Dilshod - Barno (1800 - 1906) asarlaridagi axloqiy muammolar taraqqiyparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Chunonchi, Furqat «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Tarjimai hol» kabi asarlarida ma'rifatli bo'lish yuksak axloq egasiga xos hislat ekanini, lekin, nodonlik ohir - oqibat turli xulqiy notavonlikka olib kelishini ta'kidlaydi. Shoir g'azallaridan birida shunday deb alam bilan yozadi:

Charhi kajraftorining bir shevasidin dog'men,
Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Muqimiyning hajviy asarlarida esa o'sha davrda avj olgan firibgarliklar, amaldorlarning noinsofligi, adolatsizligi qattiq tanqid qilinadi. Shoirning «Voqeai Viktor», «Voqeai ko'r Ashurboy hoji», «Tanobchilar», «To'y» singari asarlari Turkiston xalqlari oyog'idan tobora tubanlikka tortayotgan illatlarni ayovsiz fosh etadi. O'sha davrdagi boylarning nafsdan boshqa narsani bilmasliklarini, fahshu maishatga yuztuban ketganliklarini, chor atrofda adolatsizlik hukmronlik qilayotganining alam bilan yozadi. Endi Dilshodning bir muhammasidan olingan quyidagi parchaga diqqat qiling:

Alam o'tidin kuyodir bu jon
Dudi oh ila to'la osmon,
Betoqat o'lib chekaman fig'on,
Menga rahm etib yig'laydi makon,
Titrab boqadir zaminu zamon.

Boyonlarimiz nafsa ovora,
Tug'yoni oshib to bora - bora,
Atlas to'qig'on qizi bechora,
Yasanmay yuzga surtadi qora,
Qora kunlarga qoldi Marg'ilon.

Olma anoru mevalar koni,
Ammo mevaga zor bog'boni,
Bug'doy nonini ko'rmas dehqoni,
Paxta ekadi, yirtiq choponi,
Farg'ona zamin husni Namangon.

Bu satrlarda ko'tarilgan adolatsizlik muammosi orqali o'sha davrdagi ijtimoiy - axloqiy manzara yaqqol namoyon bo'ladi.

2. Turkiston xalqlarining axloqiy yuksaklik va ma'rifat vositasida milliy o'zligini anglash darajasiga ko'tarishda qozoq xalqining buyuk farzandi Abay (1845 - 1908) axloqiy qarashlarining ahamiyati katta.

Abay she'rlarida, shuningdek, «Iskandar», «Mas'ud» dostonlarida ezgulik, adolat, mardlik shijoat singari fazilatlar o'rini illatlar egallab borayotganidan, xalqning yaxshilik bilan yomonlikni farqlay olmaydigan darajaga tushib qolganidan faryod chekadi:

Otalarga o'xshamay qoldi turqing,
Yopiray muncha ketdi, elim, xulqing!
Birlik yo'q, baraka yo'q, buzildi fe'l,
Qani yiqqan davlating, boqqan yilqing?

«Xulqi ketgan», «fe'li buzilgan», «aldamchi», «ochko'z» singari, sirtdan qaraganda o'z xalqiga nisbatan beshafqatlarcha, hatto haqorat darajasiga ko'tarilgan bu so'z va iboralar aslini olganda, millatni jondan ortiq sevgan buyuk shoir qalbining alamli yig'isidir.

Shunisi qiziqarliki, Abayning axloqiy qarashlari ma'lum jihatlari bilan g'arblik mashhur zamondoshi, buyuk olmon faylasufi, adibi Fridrih Nitshening ba'zi qarashlariga yaqin. Ammo, ta'kidlash kerakki, Nitshedagi o'ta keskinlik, o'ta beqarorlik Abayga yot. Shunga qaramasdan, qadriyatlarni qayta baholash, lozim bo'lsa, butun millatni qayta tarbiyalash kabi g'oyalar Abayga ham xos. Hususan, u xalqni o'z fe'lini o'zgartirishga, bu yo'lda lozim bo'lsa, an'anaviy hayot tarzidan, ota - bobolardan qolgan o'git – maqollardan, hatto asrlar mobaynida o'rgangan chorvachilikdan kechishiga da'vat etadi. Chunonchi, Abay o'zining mashhur «Nasihatlar» deb atalgan axloqshunoslikka va amaliy axloqqa doir kitobida shunday deb yozadi; «Qozoqlarning bir - biriga dushman bo'lishining, birining tilagini ikkinchisi tilamasligining, rost so'zi kam, mansabparast, yalqov bo'lishliklarining sababi nimada? Bunga dunyoda o'tgan barcha donishmandlar shunday javob qiladi: har qanday yalqov kishi – qo'rqqoq va g'ayratsiz bo'ladi; har qanday maqtanchiq qo'rqqoq kishi – aqlsiz, nodon bo'ladi; har qanday aqlsiz nodon kishi – orsiz bo'ladi; har qanday orsiz kishi –yalqov, kishi oldida tilamchi, ochko'z, suq bo'ladi; bunday hunarsiz kishilar hech qachon birovga do'st bo'lmaydi. Bu illatlarning hammasi to'rt oyoqli molni ko'paytirishdan boshqa narsa xayoliga kelmaydigan kishilardan chiqadi. Agar inson ekin - tikin, ilm - hunar, savdo ishlari bilan shug'ullansa, bunday yomon fazilatlar (ya'ni illatlar) unga dorimagan bo'lur edi».

«Nasihatlar» risolasininng boshqa bir o'rnida Abay, maqollarni tahlil etish orqali, yuqorida aytganimizdek, ma'lum ma'noda an'anaviy qadriyatlarni qayta baholashga intiladi: «Bizning qozoqlarni aytib yurgan maqollari ichida, – deydi Abay, – ishga yaroqlisi ham, yaroqsizi ham bor. Ba'zilar yaroqsiz bo'lishi u yoqda tursin, hatto na musulmonchilikka va na odamgarchilikka to'g'ri keladi. Avva'lo: «Faqir bo'lsang – orsiz bo'li!» deyishadi. Ordan ayrilib tirik yurgandan ko'ra, o'lgan afzal... «Oltinni ko'rsa farishta ham yo'ldan ozadi», deyishadi. Sadqai farishta ketgurlar - ey! Bu shunchaki ularning o'z shum

niyatlarini ma'qullamoqchi bo'lib aytganlari emasmi?... «Yarim kunlik umring qolsa ham, bir kunlik mol yig'», «o'zingda yo'q bo'lsa, otang ham dushman», «mol – odamning jigar go'shti», «Moli ko'pning – yuzi yorug', moli yo'qning yuzi – choriq», «Egan og'iz uyalar», «Olag'on ko'zim berag'on»... Bundan ma'lum bo'ldiki, qozoqlar tinchlik uchun g'am emas ekan, balki aksincha mol - dunyo uchun g'am chekar ekan... Agar moli bor bo'lsa, o'z otasi bilan ham yovlashishdan uyalishmas ekan... Ishqilib, o'g'rilik, shumlik, tilanchilik, qo'ying - chi, shunga o'hshash yaramas fazilatlar (ya'ni illatlar) bilan mol topsa ham buni ayb sanamasligimiz kerak ekan». Boshqa bir o'rinda buyuk mutafakkir imon haqida so'z yuritib, yana ba'zi maqollar to'g'risida shunday deydi; «Imonga shak keltirgan bandalarni Olloh taolo afu etmaydi va payg'ambarimiz ham shafqat qilmaydi, bu mumkin ham emas. «Qilich ustida shart yo'q», «Hudoy taoloning kechmas gunohi yo'q» – degan qalbaki maqollarga suyanganning basharasi qursin!».

Abay o'z millatini nihoyatda sevgan mutafakkir. U hech kimni haqorat qilmoqchi yoki kamsitmoqchi emas; bu achchiq gaplar xalq dardida o'rtangan mutafakkirning alamli fikrlaridir. Abay odamlarning torlashib, maydalashib ketayotganidan, erdagi o'z insoniy vazifasi va ma'suliyatini bajarmayotganidan g'azablanadi: «Suqrotga og'u bergan, Ionna Arkni olovga tashlagan, Isoni dorga osib, payg'ambarimiz sa'lollohu alayhi vasallamni tuyaning o'limtigiga ko'mgan kim? Xalq! Shunday bo'lgach, xalqda aql yo'q. Yo'lini top - da, xalqqa rahnamolik qil». Ko'rinib turibdiki, buyuk qozoq mutafakkirining axloqiy ideali xalqqa rahnamolik qila biladigan odam. Albatta, u a'lo odam emas, lekin a'lo odam vazifasini ma'lum ma'noda bajara oladigan inson. Bunday insonni tarbiyalash voyaga etkazish, lozim bo'lsa, yaratish (ma'naviy jihatdan) mumkin; «Odam onadan aqlli bo'lib tug'ilmaydi, – deydi Abay - balki tug'ilganidan keyin, dunyoda nima yaxshi, nima yomon ekanligini eshitib, ko'rib, ushlab, topib, zehn qo'yib aqlli bo'ladi». Boshqa bir o'rinda esa, mutafakkir, mana bunday deydi: «Agar davlat mening qo'limda bo'lganida, inson farzandini tuzatib bo'lmaydi, degan odamning tilini kesib tashlardim...»

Shunday qilib, Abay tug'ma axloqiylikni butunlay inkor etmasa - da, insonning axloqiy darajasi tarbiya bilan bog'liqligini qat'iy ta'kidlaydi. Ayni paytda tarbiyaga va axloqiy darajaga muayyan ijtimoiy muhitning, zamonning ta'sirini asosiy sababchi deb biladi: «Inson bolasini zamona parvarish qiladi, kimda - kim yomon bo'lsa, ayb zamondoshlarida», - deydi faylasuf - shoir. Uning haqligini insonni axloqiy - ma'naviy jihatdan anchagina tubanlashtirib, uni e'tiqodsizdik, yolg'onchilik kasaliga mubta'lo qilib qo'ygan mustamlakachilik va, ayniqsa, sho'rolar zamonasining salbiy ta'sirida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Abayning hayo, uyat, insof, oqillik, adolat singari fazilatlar va maqtanchoqlik, oliftagarchilik, kerilish, yolg'onchilik, ochko'zlik kabi illatlar haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovor. Chunonchi, u uyat tushunchasini ikki xil ma'noga ega ekanligini aytadi. Birinchisi, odam o'zi uyat bo'larlik ish qilmaydi, lekin o'zganing uyatli ishidan uyaladi. Buning sababini mutafakkir uyatli ish qilgan odamga nisbatan achinish hissi ekanini ta'kidlaydi.

«Ikkinchisi shuki, – deydi Abay, – qilgan ishing ham shariatga, ham aqlga, ham obro' - e'tiborga zid bo'ladi: sen bunday ishni bilmasdan, yo g'aflat bosib, yo esa nafs ba'losida qilib qo'lasan. Mana buni chin ma'nodagi uyat desa bo'ladi». Ana shu ikkinchi ma'nodagi uyatni mutafakkir vijdon bilan bog'laydi, uni vijdon azobining tashqi ko'rinishi tarzida talqin qiladi: «... ba'zan uyatli kishilar uyqudan, ishtahadan qoladi, hatto chidayolmay o'zini - o'zi o'ldiradiganlari ham bo'ladi. Uyat kishining or - nomusi, o'z yaramas fazilatlariga (ya'ni illatlarga) qarshi ichki isyonidir».

Umuman olganda, Akbayning she'riy asarlarida va, ayniqsa, «Nasihatlar» risolasida ko'tarilgan axloqiy muammolar bugungi kunda har jihatdan ilmiy tadqiqqa loyiq. Garchand buyuk Turkiston mutafakkiri ko'pgina illatlar haqida o'z xalqiga nisbat berib, fikr yuritisa - da, ular, ba'zi bir istisnoli – faqat qozoqlarning an'anaviy turmush tarziga taalluqli jihatlarni hisobga olmaganda, umumturkiy ahamiyatga molik axloqiy nuqsonlardir. Shu bois Abayning falsafiy - nazariy hamda amaliy - didaktik fikrlari va talqinlari biz uchun doimo qimmatlidir.

Turkiston ma'rifatparvarlarining yana bir yirik namoyandasi Dilshod Barnoning shogirdi Anbar otindir (1870). Uning axloqiy qarashlari lirik - falsafiy she'rlarida va «Qarolar falsafasi» (1898) risolasida o'z aksini topgan. Anbar otin ham inson axloqiy darajasini aql, ilm - ma'rifat bilan bog'laydi va ijtimoiy taraqqiyotga aqliy hamda axloqiy yuksaklik orqali erishish mumkin, degan aqidaga amal qiladi. Uning asarlarida axloqsizlik botqog'iga botib borayotgan jamiyatga nafratni, shariat va tariqat namoyandalari aynib ketganligi, boylardan insof ko'tarilganligi haqidagi fikrlar mardona ilgari suriladi. «Muqimiyga», «Mingboshi kal Omil hajvi», «Olimjon hoji ta'rifi» kabi she'rlarida ana shu yo'nalishni ko'rish mumkin. Tanqidiy - badiiy shakldagi bu yo'nalish «Qarolar falsafasi» risolasida falsafiy - tahliliy shakl kasb etadi.

«Qarolar falsafasi» asari asosan bir - birining ziddi bo'lmish ikki muammo - ijtimoiy adolat va ijtimoiy zulm tushunchalariga bag'ishlangan. Risola ko'p o'rinlarda falsafiy - majoziy talqinlardan iborat. Chunonchi, risola davomida ayniqsa, uning birinchi faslida qora va oq ranglarning majoziy hamda botiniy mohiyati o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Qora mehnati tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar qalbining oqligi, oq tana - yu oq bilak kimsalar qilayotgan ishlarning qoraligi ta'kidlanadi va ular shu orqali axloqiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: «Ul qaro xalq oftob so'zanida mehnat qilib, o'zlari har qancha kuyganlari holda, xosillarini hamtovoqlariga tuhfa qilurlar. Misol andoqdurki, qazon bovujud qoradur, o'zi o'tda kuyib qaro bo'lg'oni holda ovqat pishurib odamlarni to'ydirur.

Qarolar bordurlarki, alar o'zlari qaro bo'lg'oni holda, ma'rifat nuri siyratlarida to'ladur va ul nurlarni fasohat va til durdonalari vositasi ila olamg'a oq shu'la socharlar, Misol uldurki, qaro charog' o'zi qaro yog', kuyundig'a giriftor bo'lg'oni holda, nuri ilan kulbani ravshan qilur».

Risolaning ikkinchi faslida Anbar otin o'sha davrdagi ayollar ahvolini, ularning bevosita va bilvosita ijtimoiy kamsitishlar natijasida o'z iqtidori, istedodi, latofatini namoyon qila olmasliklarini aytib o'tadi. Ular, hatto,

ko'cha - ko'ylarga zarurat yuzasidan, masalan, qarindosh - urug'larini ko'rgani borish uchun chiqqanlarida, eski paranjiga o'ranib, kampirlar kabi bukchayib yuradilar. Chunki agar qaddi qomatini adl tutib, yoki ochilib - sochilib yursalar, unlarga erkaklar tajovuz qilishlari mumkin. Bunday axloqsizlikning ildizi ijtimoiy adolatsizlikka borib taqaladi: kambag'alligi tufayli uylanish, oila boshlig'i bo'lish huquqidan mahrum bo'lgan bunday erkaklar shayton vasvasasiga tushib, shahvoniy nafslarini tiyolmay qoladilar. Lekin taraqqiyparvar shoira kelajakka katta ishonch bilan qaraydi: bu ijtimoiy axloqiy illatlar albatta o'tib ketadi, hurlik, tenglik zamonlari keladi. Mana bu haqda Anbar otinning o'zi nima deydi: «Bir zamoni bo'lurki, kamina mushtipar kabi olijanob orzu qilg'ondan ziyoda bo'lur... alarni mazlumalar avlodi xatarsiz tavallud o'lib, yaxshi parvarish topub, hushro'y va hushho'y, botamiz va vatando'st, serg'ayratu mehmondo'st bo'lub, kamolg'a etar. Ul zamonda barcha xalq sohibjamol bo'lur...

Ul zamonda odam axloqi ul darajag'a eturki, mijoz gala hotunlik rusumini tark etar va har er bitta hotin ila farog'atvor kun kechirgay...

Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig'a muyassar bulub, urfon tahtida qaror topib, ellar va ulug'lar safig'a doxil bo'lurlar, alar hayrat va mehnatda erlarg'a hamfo va yovar bo'lub, obro' topib, hurmat va ikromg'a sazovor bo'lurlar.»

Anbar otin adolatli podsho muammosiga a'lohida to'xtalib, o'sha davr uchun nihoyatda original, kutilmagan va hozirgi zamonda ham ahamiyatini yo'qotmagan fikrlarni bildiradi. U, dastavval «o'rus keldi!» deganda hamma ma'rifat ahli, endi xalqning, ijtimoiy - iqtisodiy va ma'naviy hayoti yaxshi tomonga o'zgaradi deb kutganini, lekin bu ishonch oqlanmagangini, aksincha, «o'rus podshoh musulmonlarga zarrachayinki ha'lovat bermaganini» aytadi. Ba'zi bir ruslar hukmronligini oqlaganlarga qarshi shunday deydi: «Agar o'rus shohi darhaqiqat odil bo'lsa, va aning hohishi qaram xalqlar ham o'rus misoli ozod bo'lsun va barcha ha'loyiq o'rus birla barobar bo'lub ro'zg'or kechirsun desa, amorat va hukmronlik qonunini din qonunlaridan mustasno keltursin.» Boshqa bir o'rinda faylasuf - shoira: «Davlat ishini dini islomdin yiroq tuting...», degan fikrni bildiradi.

Ho'sh, bu mustamlakachilik va adolatsiz tuzumdan qutilishning yo'li bormi? Anbar otin uning ikki yo'lini aytib o'tadi. Biri – aqlni inson o'ziga vazir qilib, falsafiy mushohada yordamida ish ko'rish orqali bunga erishish mumkin: «Vaqtiki ilm daraja qilib, falsafa ravnaq topsa, bu chigillarim kushoda bo'lur. Falsafa iborasi ila qarshi va zid so'zlarni muqoyyyasa qilg'onda bu chigillar ochilur.» Ikkinchi yo'l esa o'z - haq - huquqini himoya etish maqsadida amaliy harakat qilish, mustamlakachilik zulmiga va adolatsizlikka qarshi birlashmoq, qo'lda qurol bilan chiqmoq. Bu yo'lni shoira shunday ifodalaydi:

«... albatta, aqlu - idrok va jamoatg'a takya qilib, barcha shayh so'fiylardan yiroq va barcha tarsu vahmdin emin bo'lib, zolimlarga qarshi muboriza qilmoq, yakkalikdan hazar qilmoq, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmatni bartaraf qilmoq zarurdir.»

Albatta, Anbar otinning barcha axloqiy qarashlarini mutlaq to'g'ri deb qabul qilish nojoiz. Chunonchi, u so'fiylik tariqatlarining hammasini mohiyatan

reaksion, degan fikrni ilgari suradi va so'fiylarni mustamlakachi amaldorlar ray'iga qaraydigan rasmiy din peshvolari bilan chalkashtirib yuboradi. Lekin, shunga qaramasdan, Anbar otinning asarlari, ayniqsa, «Qarolar falsafasi» risolasi hozirgi kunda ham ijtimoiy - axloqiy ahamiyatini yo'qotgan emas.

Bundan tashqari, Anbar otin shoira va faylasuf olima sifatida ham, shaxs sifatida ham kishini hayratga soladigan darajada matonatli, pokiza inson, yuksak axloq egasi bo'lgan. U umrini Turkiston xalqlari ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishladi, nogiron bo'lishiga qaramay, adolatning pahlavoni bo'lib kurashdi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizga bu tom ma'nodagi qahramon ayol orzu qilgan kunlar keldi, Anbar otinning olimona va shoirona bashorati amalga oshdi.

Turkiston ma'rifatparvarlari orasidagi yana bir mutafakkir ta'limshunos, pedagog va axloqqshunos Abdulla Avloniydir (1887 - 1934). Uning XX asr boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan «Turkiy guliston yohud axloq» (1913) asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai - nazaridan yondoshishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Agar Anbar otinning «Qarolar falsafasi» risolasida dolzarb axloqiy muammolarga majoziy - falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orqali yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko'proq tarif berish, ularni sharhlash yo'li bilan yondoshiladi.

Abdulla Avloniyni «Turkiy guliston yohud axloq» asarida an'anaviy - falsafiy yondoshuv bo'lmish antropologik nuqtai - nazar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Ammo bu yondoshuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tadqiqot ob'ekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavhum inson emas, balki, muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha hayot tarziga intilishni o'z oldiga niyat qilib qo'ygan Turkiston fuqarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o'rta tashlanadi.

Faylasuf pedagog, avva'lo, millatni tarbiyalashni o'z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to'xtaladi: otalar – to'ychi, ulochi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar – o'zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo'lgan, mudarrislar esa – darslari beintixon, isloh yaqiniga yo'lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta'lim - tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo'lga olishi kerak. Avloniy Rossiya hukumati u er - bu erda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jahon jamoatchiligini chalg'itish ekanini, ochiq bo'lmasa ham, quyidagi ishora bilan aytib o'tadi: «... hukumat hammaning otasidir. O'z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumatimiz o'gay bo'lsa ham, har erda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin o'qitir.» Avloniy ana shu «o'gay tarbiyadan» ko'ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va va o'z davrini «Tarbiyaning zamoni – tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Unig bu boradagi qarashlari hanuz o'z kuchini yo'qotganmaganligini, tarbiya – hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanini Prezident Islom Karimov mashhur nutqlaridan birida (1995 yil 23 fevral) Avloniydan mana bunday deb ko'chirma keltiradi: «Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo ha'lokat, yo saodat, yo fa'lokat masalasidir».

Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an'analariga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga a'lohlida urg'u berib, uni «insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi» tarbiya deb baholaydi. Fazilatlarni faylasuf - pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an'anaviy bo'lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida a'lohlida to'xtaladi. Vatanni suymoq lozim bo'lsa, uning yo'lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. «Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskimoslar Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik erlarini boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o'z Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi». Vijdon esa Avloniy nazdida, inson niyatlari va qilmishlarini aks ettiruvchi eng musaffo axloqiy ko'zgudir, «inson aqli va fikrining haqiqiy mezonini».

Shuningdek, jadid axloqshunosligining allomasi intizom, iqtisod, idrok va zako singari o'sha davrlarda hali kup quloq o'rganmagan fazilatlarni ham a'lohlida e'tibor bilan nazariy - amaliy tahlildan o'tkazadi, o'quvchiga iloji boricha qisqa va lo'nda tarzda taqdim etishga intiladi.

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston...» da «yomon xulqlar» ga – illatlar tahliliga katta o'rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to'siq bo'ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi: «Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idir». Avloniy g'azab, shahvat, hasad, kizb, tama' singari illatlarga ham atroflicha ta'rif beradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Abdulla Avloniy axloqshunoslik tushunchalarining faqat pedagogik emas, balki ham falsafiy, ham badiiy jihatdan talqinini beradi. Chunonchi, u muayyan axloqshunoslik tushunchasi yoki axloqiy me'yorning sodda, lo'nda tarifini taqdim etar ekan, ba'zi hollarda Suqrot, Aflotun, Arastu, Ibn Sino singari hakimlarning fikrlarini isbot tarzida keltirsa, goho ularni nazmiy tizmalar bilan o'quvchiga etkazishga harakat qiladi. Umuman olganda, Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yohud axloq» risolasi HH asr Turkiston axloqiy tafakkurida eng salmoqli o'rinni egallaydigan, ham nazariy, ham amaliy axloq muammoalirini falsafiy va pedagogik yondoshuv orqali hal etishga bag'ishlangan yirik asardir.

Turkiston ma'rifatchilari axloqshunosligida tom ma'nodagi milliy qahramonimiz Abdurauf Fitratning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» (1914) kitobi a'lohlida o'rin tutadi. Avva'lo, shuni aytish kerakki, «Oila» o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda ham tanqidiy ruh, ham da'vat ruhi kuchli Fitrat ona Turkistonni ozod ko'rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila bilim, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lmog'i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila etishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: «Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol -

aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...» – deydi alam bilan Fitrat.

Vatanparvarlik, millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, muallif kitobning birinchi qismini, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy - maishiy, gigienik - sa'lomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo'lgan holatlarning axloqiy asoslari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi.

Kitobning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag'ishlangan. Fitrat ham tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida haqiqiy inson kamol topadi deb hisoblaydi muallif. Kitobning bu qismida Fitrat, ma'lum ma'noda, o'ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ihtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali o'rta tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, a'loqa mayli, boshqalarga mehr - muhabbat mayli va h. k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat a'zosi sifatida, ham ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat - nafs, ayniqsa, iroda masalasiga a'lohida to'xtalib o'tadi. «Iroda va ihtiyor» sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da'vat etadi, iroda tarbiyasining to'rt banddan iborat qoida - bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota - onaning zo'ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta'kidlaydi. «Ota - onalarning haq - huquqlari» bobida ham ba'log'atga etgan farzandning erkinlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

Umuman olganda, Fitratning «Oila» kitobida amaliy axloq bilan axloq nazariyasi muammolari uyg'unlashib ketgan. Lekin unda pedagogik - didaktik uslub emas, jangovor chorlov uslubi ustun. Fitrat uchun yuksak axloqiylik, erk va erksevarlik bilan mustahkam bog'liq; Turkiston va turkistonlikni ozod ko'rish, ya'ni milliy mustaqillik mafkurasi kitobning ruhiga singdirib yuborilgan. Uni o'qigan kishi na faqat axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki, milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima - yu, unga qanday qilib erishish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir - jadid Abdurauf Fitratning «Oila» asari Turkiston milliy uyg'onishida benihoya katta rol o'ynadi. Ayni paytda, u hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ajoyib axloqiy - ma'rifiy risola sifatida a'lohida e'tiborga molik.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmiy, har jihatdan yuksak axloq - odob egasi bo'lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo'lida ekanini hammaga ayon bo'lib qoladi. Shu bois ilg'or, ziyoli ayollar na faqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy - tarbiyaviy risolalar yozish yo'li bilan ham bo'lajak ziyoli onalarni voyaga etkazishga hissa qo'shadilar. Shu jihatdan Olimat ul - Banotning Sankt - Peterburgda 1898 va 1899 yillarda ikki marta nashr etilgan «Muosharat odobi» «(Turmush odobi)» asari o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan. «Agar hotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak -

shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Alloh Taolaning amriga muvofiq hayot kechiradi», – deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi o'rni, oilaviy vazifalari, er - hotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikoh va muhabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchilariga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning ham uy egalariga o'hshash inson ekanliklarini hisobga olib, ish ko'rish lozimligi ta'kidlanadi, turmushning oqilona uyushtirilishi uchun xizmat qiladigan ibratli maslahatlar beriladi. Boshqa bir tatar ziyoli ayoli Faxr ul - Banot Sibg'atulloh qizining sakson etti saboqdan iborat «Oila saboqlari» (1913) risolasi esa tarbiyaning turli tomonlarini birvarakay o'z ichiga oladi. Axloqshunos olimi o'z risolasi mohiyatini quyidagicha belgilaydi: «Oila saboqlari honimlarga, qizlar maktabi shogirdlariga oila vazifalari to'g'risida foydali ma'lumot bergani kabi o'quvda tamom engillik va bir tarafdin asosli bir axloq sabog'i hamdir». U o'n ikkinchi saboqda tarbiyani «ilmli axloqning tani, negizi» deb ta'riflaydi. Asar falsafiy mushohadalardan ko'ra ko'proq amaliy ko'rsatmalardan iborat. Ayni paytda, unda ham ma'naviyatga, ham moddiyatga zamonaviy munosabat masalasi o'rtaqa tashlanadi, yuksak axloqli bolani voyaga etkazishda har ikki yo'nalishdagi tarbiyaning muhimligi ta'kidlanadi.

4. XX asr boshlarida amaliy axloq muammolari jadid matbuotida keng o'rin oladi. «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Turon», «Xurshid» singari gazetalarda e'lon qilingan hajviy - jurnalistik asarlarda o'sha davr boyonlarining qoloqligi, chor mamuriyatining to'rachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga 5 so'm iona qilish o'rniga, besh yuzlab so'mni restoranlarda fohishalarga sochayotgan axloqsiz sarmoyadorlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Mahmudho'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidhonov, hamza, Ubaydullaho'ja Asadullaho'jaev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi Uyg'onish davrining buyuk namoyandalari o'z badiiy asarlarda axloq muammolarini dadil ko'tarib chiqdilar va ana shu nashrlarda o'z publicistikasi bilan ham faol ishtirok etdilar. Jadid matbuoti butun kuchini ozodlikni, Vatanni jondan sevuvchi, ilg'or, tushungan, har tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fuqarosini tarbiyalashni o'z oldiga vazzifa qilib qo'ydi. Afsuski, dastlabki fevral inqilobi bergan hurriyat uzoqqa cho'zilmadi. Bolsheviklarning 1917 yilning 25 oktyabrida amalga oshirgan davlat to'ntarishi tez orada uning yutuqlarini yo'qqa chiqardi, Lenin boshchiligida ishlab chiqilgan yangi mustamlakachilik rejasi asosida barcha taraqqiyparvar kuchlar katag'on qilindi. Falsafiy fanlar, shu jumladan, axloqshunoslik ham taraqqiyotdan to'xtadi. Ular mafkuraga bo'ysundirilib, sohtalashtirildi; erkin fikr tag - tugi bilan qo'porib tashlandi. Shu sababli jadidchilik o'z oldiga qo'ygan vazifalarini to'la ado etolmadi. Lekin, shunga qaramasdan Turkistondagi bu ma'rifatchilik harakati qisqa muddat ichida bo'lsa ham mazlum xalqlarni ma'lum ma'noda uyg'ota oldi.

Mavzuga oid o'quv – ko'rgazmali materiallar.

Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon hulqlarning boshlig'idir.

Abdulla Avloniy.

Ta'lim - tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasini va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

I. A Karimov.


Ilm va hunarsiz xalqning boyligi, eri va asbobi kundan – kun qo'ldan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini zaif bo'lur .

Mahmudxo'ja Behbudiy.


Axloq tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur.

Abdulla Avloniy.


1.1 - ko'rgazma.



1.2– ko'rgazma



1.3– ko'rgazma.



1.4 – ko'rgazma.

“Aqliy hujum” usuli qoidalar:

Seminar mashg'ulotida “aqliy hujum usulini” qo'llashda dastlab guruh oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo echimi to'g'risida ishtirokchilar o'z fikrlarini bildirishadi. Bu bosqichda hech kimning boshqalar fikrini tanqid qilishga haqqi yo'q. Demak “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatga emas songa qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyani mumkin qadar mukammallashtirish va istalgancha rivojlantirish mumkin;
- Barcha g'oyalarning asosiy mavzulari (farazlari) yozib olinadi;
- “Hujum” vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- Savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutiladi.
- “Aqliy hujum” tugagach eng yaxshi takliflar umumlashtirilib muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Turkiston ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Ahmad donish, Muqimiy, Furqat kabi ma'rifatchilarning asosiy g'oyalari nimalardan iborat?
3. Abayning axloqiy qarashlarida qanday yangiliklar ko'zga tashlanadi?
4. Anbar otinning "Qarolar falsafasi" risolasida ko'tarilgan muhim axloqiy muammolar qaysilar?
5. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasining axloqiy – tarbiyaviy mohiyati nimalarda ko'rinadi?
6. Fitratning oila asari jadidchilik axloqshunosligida qanday o'rin egallaydi?
7. Turkiston jadidlari axloqshunosligida matbuotning ahamiyati qanday bo'lgan ?
8. Vatanimiz axloqshunosligida jadidlar ta'limotlari qanday mavqe egallaydi?

Ikkinchi seminar mashg'uloti texnologik xaritasi.

("Kichik guruhlarda ishlash" usulini qo'llagan holda.)

Mavzu: Axloqiy tamoyillar va meyorlar. Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari.

(2 - soat).

Seminar rejasi. 1. Axloqiy tamoyil va me'yorlar. 2. Oila - ilk axloqiy maskan. 3. Davlatning axloqiy asoslari.		
<i>Maqsad:</i> Talabalarni mavzuga oid bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish.		
O'quv faoliyat natijasi. <u><i>Talaba bilishi kerak:</i></u> • Sharqona oila tushunchasi; • Oilaning huquqiy va ma'naviy negizlarini; • Axloqiy madaniyat tushunchasitni; • Kasbiy odob – axloq normalarini; • Axloqiy tarbiya va uning yo'llarini; • Axloqiy tarbiyaning vositalarini.		
Mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar. 1. O'quv materiallari bilan tanishish. 2. Ma'ruza matnini o'qish. 3. Quyidagi o'quv adabiyotlari bilan tanishish: ▪ Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.: 1996 y. ▪ Odob axloq ilmi. T. : "Ma'naviyat" 2001 y. ▪ Solih farzand. "Hidoyat" jurnali.2006 yi 1, 4 - son.		
Tekshirish usuli: Og'zaki savol – javob. Reyting baholash.	Maksimal ball: 2	O'qituvchi imzosi:

Mavzuning qisqacha mazmuni.

Berilayotgan materiallardan fundamental ma'lumot sifatida foydalanish va albatta texnologik xaritada ko'rsatilgan qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilish kerak.

1. Asosiy mezoniy tushunchalar – kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi.

Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarini belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson hatti - harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr - qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga engilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini, Ovro'po Uyg'onish mutafakkirlari dastlab ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi «namlulu» so'zi bundan 3 - 4 ming yillar avvalgi qadimgi Somir mih hatlarida uchraydi. Insonparvarlik – umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Uni sho'rolar davridagi sinfiylik nuqtai nazaridan sohtalashtirish proletar diktaturasi va totalitar socialistik tuzum hamda ular ijodkorlarining insonparvarligi haqidagi afsonalar juda qisqa umr ko'rdi. Sosializm mafkurachilarining bu boradagi sayi - harakatlari o'sha davrlardayoq noilmiyligi, yolg'onga sug'orilganligi bilan kishilarning g'ashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalq qabul qilmaydi. Chunki u aynan o'ta mavhum «xalq» tushunchasiga qaratilgan, vaholanki insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmog'i lozim. har bir shaxs insoniy huquqlarini ta'minlash uchun kurashish – mana, insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma'naviy qadryatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz ham mamlakat ichkarisida, ham dunyo miqyosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilmoqda. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq - huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi – erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero erksiz inson – asir, erksiz millat – qul, erksiz mamlakat – mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar tamoyilidir. Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy siyosiy ma'noda ham qo'llaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatida ko'rish mumkin.

Odatda, erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlariga aylanadilar. Zero ular o'zgalar erki uchun o'z erkini, o'z hayotini qurbon qilishdan ham cho'chimaydilar. Buning yorqin misoli buyuk ingliz mumtoz shoiri Jorj Bayron siymosidir. U ingliz bo'laturib, o'z vatani Angliyada Irlandiya ozodligi, irlandlar erki uchun kurashdi: ko'pchilikning hayrati va nafratiga uchradi, Vatanni tark etishga majbur bo'ldi. o'z yurtida erk uchun kurashish baxtidan mahrum bo'lgan shoir o'zga vatanlar erki uchun kurashga otlandi, Italiyani Avstriya istibdodidan ozod qilish harakatining rahbarlaridan biriga aylandi. Bu haqda u shunday deb yozgan edi:

Erk uchun Vatanda qilolmasang jang,
Sen qo'shni vatanlar erki deb kurash;
Yunonu Rumoning tug'an tut tarang,
Boshingni tika bil erk uchun sarkash!
Ezgulik yo'lida bo'lsang qahramon,
Sen inson erki deb kurashsang azot,
Bir, kuni, sirtmoqdan gar qolsang omon,
Jo'mard deb alqagay seni odamzot!

Italiyadagi ozodlik harakati mag'lubiyatga uchragach, u qadim Yunonistonni Turkiya zulmidan ozod qilish uchun kurashdi. U Yunonistonda, botqoqlik yonidagi Missolungi shahrida og'ir bezgakdan vafot etdi. Uning o'limi ham istibdodga qarshi shiorga aylandi: qo'zg'olonchilar: «Bayron uchun!» degan jangovar hayqiriq bilan jangga otildilar. Benazir, Yunonistonning ozod qilingan qismi general - gubernatori, erksevar qo'mondon va ulug' inson xotirasiga yunon xalqi yigirma bir kun qora qiyib, motam tutdi. Hamma cherkovlarda Bayron haqqiga ibodat qilindi. Darhaqiqat, erkparvarlik tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladilar. Eng ma'lum va mashhur tamoyil, bu – vatanparvarlik. U insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab - avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko'pincha vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy - mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa, bu tamoyilning qamrovi ancha keng – u insonparvalikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidan hatti - harakatlardir. Vatan himoyasi, bu – inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda namoyon bo'ladi. har bir sohada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyasizliklardan qayg'u hissini tuyush, vatan bilan g'ururlanish, uning har bir qarich eri, binosining har bir g'ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm - fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko'z qorachig'idek asrab - avaylash – bular hammasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab etishga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish fanizmning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu – millatparvarlik. U ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmona erkin va baxtli yashashi mumkin emas. Lekin millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi. Asl millatparvar – milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi:

Shohu toju hil'atekim, men tomosha qilg'ali
O'zbekim boshida qalpoq, egnida shardog'i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'urulanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bag'oyat hurmat - izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan. Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon singari minglab fidoiylarni ham xalqimiz hech qachon unutmaydi. Shuningdek, tinchlikparvarlik, jo'mardlik singari axloqiy tamoyillar ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadi. Ba'zi ulug'davlatchilik va buyukmillatchilik ruhi hukmron bo'lgan jamiyatlarda tinchlikparvarlar quvg'in qilinadi, turmalarga tashlanadi. Lekin ular o'z tamoyillaridan hech qachon qaytmaydilar. Ular insoniyatni barcha bahsli masalalarini tinch yo'l bilan hal qilishga chaqiradilar, Er yuzida tinchlik o'rnatish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. Jo'mardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovro'poda uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilimiy muomalaga kiritgan. U kishida o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. Bundan tashqari, bizning milliy axloqshunosligimizda o'zbekchilik, mehmondo'stlik kabi tamoyillar mavjud. Ular millatimizning eng yaxshi an'alariga sadoqat tuyg'usidan kelib chiqadi va o'zbek kishisiga xos bag'ri kenglik, do'stga, mehmonga borini bag'ishlashdek fidoyilik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ayni paytda, bu tamoyillarni suiste'mol qilishi hollari ham hozirgi paytda tez - tez uchrab turadi. Shunga qaramay, o'zbekchilik va mehmondo'stlik tamoyillari xalqimizning o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Jahonning juda ko'p xalqlari bu tamoyillar egasi bo'lmish

o'zbek millatiga doimo ehtirom, havas va hayrat bilan minnatdorchilik bildiradilar. Inson hayotida axloqiy me'yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish muruvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, hushmomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me'yorlar ayniqsa, diqqatga sazovar. Shuni ham aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida - qaysi taom harom - u, qaysinisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy ma'no kasb etgan me'yorga aylangan. halollik, rostgo'ylik vijdon tushunchasi bilan bog'liq, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi me'yorlardir. O'nlab me'yorlar orasida bu ikkisiga to'xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho'rolar hukumronlik qilgan chorakkam bir asr vaqt mobaynida yolg'on, aldov, nopoklik, haromxo'rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko'pchilik odamlar halollik va rostgo'ylik ustidan hatto kuladigan bo'lib qolganlar. So'z bilan ish birligi yo'qolgan, qog'ozdagi chiroyli gaplar hayotga to'g'ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi afsuski, odatiy holdek qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi. hozirgi kunda davlatimiz milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo'lishga chaqirishni o'z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda. Zero ko'z o'ngimizda yolg'on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab - yashnamoqda. Yaponiya, Olmoniya, Franciya, AQSh, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan. Shunday qilib, qisqacha bo'lsa - da, axloqshunoslik mezoniy tushunchalari, axloqiy tamoyillar va me'yorlar nima ekanini, ularning shaxs hamda jamiyat axloqiy hayotida naqadar muhim o'rin tutishini ko'rib chiqdik.

2. Oilani fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi deyishadi. Chunki har bir jamiyat a'zosining, bo'lajak fuquroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni; bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. Avvalo, nikoh haqida to'xtalib o'taylik. Qonunga binoan nikoh tuzish shartlarida eng muhimlari – nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga etganliklari. Bizda yigitlar uchun – 18, qizlar uchun – 17 nikoh yoshlari qilib belgilangan. Bu – masalaning huquqiy tomoni. Uning ikkinchi – axloqiy tomoni ham borki, u sevgi bilan bog'liq. Nikoh tuzishdan avval ikki yosh orasida goh ochiq sevgi – muntazam uchrashuvlar, ahdu paymonlar qilish yoki orqavorotdan bir - birini yoqtirishi hollari bo'lishi mumkin. Har ikkala holda ham rozilik o'zgarmas shart hisoblanadi. Ba'zan, qadimda Sharq xalqlarida, shu jumladan o'zbeklarda qizning yoki yigitning rozilgisiz to'y qilib yubora berishgan, ota - onalar kelishsa – bas, degan fikrlarni uchratadi kishi. Ayniqsa, bunday gaplar sho'rolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaholanki, bunday hol kam bo'lgan, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz

Muhammad alayhissalom uylariga sovchi kelganida, qizlari Fotimadan doimo rozilik so'raganlar va rad javobi olganlar. Faqat Hazrat Ali sovchi qo'yganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandninng roziligini olish bizga payg'ambarimizdan qolgan sunnat. Hozirgi kunda ham ko'pgina yoshlarimiz sovchi orqali turmush quradilar. Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir - birini ma'qul ko'rsagina, fотиha qilinib, to'y taraddudi ko'riladi. Juda ko'p hollarda bunday yoshlar o'rtasida keyinchalik haqiqiy muhabbat shakllanadi. Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush o'rtasidagi sevgini buning mumtoz namunasi desa bo'ladi. Ochig'ini aytish kerakki, muhabbatning ham o'z darajasi bor: Layli bilan Majnunning muhabbati hamma sevishganlarga ham nasib etavermaydi. Bunday romantik - sururiy sevgi real hayotda kamdan - kam uchraydi. Buning ustiga, oilaviy muhabbat ma'lum ma'noda salobatli, ko'proq yashirin tarzda namoyon bo'ladi. Keyingi paytlarda nikoh bilan muhabbatning o'zaro chiqishmasligi haqida g'arb mutafakkirlari tez - tez yozadigan bo'lib qolganlar. Chunonchi, Erix Fromm industrial jamiyatda muhabbat kamdan - kam uchraydigan hodisa ekanini, nikohning asosida boshqa – moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy sabablar yotishini ta'kidlaydi. Umuman, g'arb olamida bunday hodisa anchadan buyon mavjud. Shu jihatdan Jorj Bayronning «Don Juan» she'riy romanidagi quyidagi satrlar diqqatga sazovor:

Bu juda qayg'uli hodisa shaksiz,
Insonning kajligi, jinoyati bu;
Ildizi gar bitta bo'lsa ham, hargiz
Chiqishmas nikoh va muhabbat mangu:
Sirkaga aylangan vinodak, esiz,
Nikoh mast qilmovchi taxir, nordon suv -
Vaqt undan jannatiy bo'yni oladir,
Ro'zg'oru oshxona hidi qoladir.

Garchi bu satrlar yarim kinoya, yarim hazil qabilida bo'lsa - da, ularda ma'lum ma'noda hayotiy asos bor. Agar muhabbat har ikki tomondan e'zozlab, avaylab - asralmasa, undagi jannatiy bo'yni yo'qotib qo'yish hech gap emas. Zero dunyodagi hamma narsa - hodisalar kabi muhabbat ham parvarishga muhtoj. Nikoh o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy hodisa. Unda ehtirosalar axloqqa bo'ysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy ehtiyotni qondirish birinchi o'rinda turadi, nikohda u ikkinchi darajali mavqe egalaydi. Oilaning yana bir jihati – uning o'z mulkiga egaligi. Agar nikoh oilaning botiniy ko'rinishi bo'lsa, oilaviy mulkni uning tashqi ko'rinishi deyish mumkin. Oilaning mavjud bo'lishi uchun ishlab topiladigan mablag' ham zarur. Oila uchun topiladigan ana shu mablag', shubhasiz axloqiy tabiatga ega: oila boshlig'i oila a'zolarini halol edirib - ichirishi, kiydirishi lozim. Oilani erkak kishi boshqaradi. U

nafaqat «topib keladi», balki oilaviy mulkka xo'jayinchilik qilish, uni taqsimlash huquqiga ham ega.

Oilada bolaning ahamiyati nihoyatda katta. Ota bolada o'z jufti halolini, ona esa sevimli erini ko'radi: bolada er hotinning muhabbati predmetlashadi, jonlanadi. Bola – oilani tutib turuvchi jonli muhabbat. Bolalar oilada umumiy oilaviy mulk hisobiga eb - ichadilar, tarbiya oladilar. Oilada bolalar intizomli bo'lib o'smoqlari, ota - onaga bo'ysinishlari lozim. Lekin bu intizom qullikka o'rgatish emas, balki bolalariga xos erka - tantiqlik, o'zboshimchalik singari salbiy xususiyatlarni yo'qotishiga xizmat qilishi kerak. Ota - onaga bo'ysunishdan bosh tortishga yo'l qo'yish bolaning kelajakda qo'pol badxulq nokamtarin bo'lib etishuviga olib keladi. Shu bois oila ilk axloqiy tarbiya o'chog'i sifatida ham katta ahamiyatga ega. Oila buzilishi ham mumkin. Buning turli sabablari bor. Biri – oilani axloqiy nuqtai nazardan buzilishi. Bunda bolalar balog'atga etgach, erkin shaxs sifatida yangi oilaga asos bo'lishlari – o'g'il bolalarning uylantirilishi, qizlarning erga berilishi nazarda tutiladi. Uylantirilgan farzandlarga ham, erga berilgan qizlarga ham yangi oila qurish va uni moddiy jihatdan dastlabki paytlarda muhtojlikdan saqlab turish uchun etarli bo'lgan uy - ro'zg'or ashyolari ajratiladi. Shuningdek, oilaning tabiiy buzilishi ham mavjud. Unda ota - onaning, yoki otaning vafoti tufayli oila mulkining meros bo'lib bir yoki bir necha farzandga o'tishi munosabati bilan oila buzilishi mumkin. Bundan tashqari, nikoh bekor qilinishi munosabati bilan oila buziladi. Aslida nikoh ham diniy, ham dunyoviy nuqtai nazardan buzilmasligi kerak. Lekin o'rtada xiyonat sodir bo'lishi yoki yana boshqa bir xil sabablar tufayli nikohni faqat axloqiy obro'ga ega, qonun bilan tan olingan idoralar, masalan sud, va vakolatli ruhoniy bekor qilishi mumkin, zero u aytganimizdek, axloqiy hodisa. Har bir jamiyat mana shu so'nggi turdagi oila buzilishiga qarshi kurashadi. Bunday oila buzilishi qancha kamaysa, u o'sha jamiyat axloqiy takomillashib borayotganini anglatadi.

3. Dastlabki axloq maskani bo'lmish oilalar yig'indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati mohiyatan oila bilan davlat o'rtasidagi daraja. Garchand, uning taraqqiyoti davlat taraqqiyotidan keyinroq ro'y bersa haa, u albatta davlatni taqozo etadi, ya'ni fuqarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustaqil nimadir bo'lishi kerak. Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, hozirgi paytdagina fuqarolar huquqi haqiqatan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida har bir odam o'zi uchun maqsad. Biroq, u boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'lmasdan turib, o'z maqsadiga to'la erisha olmaydi: boshqalar uning maqsadga etishishi yo'lidagi vositadir. Natijada har bir alohida maqsad boshqalar bilan o'zaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini qanoatlantirgani holda, o'zi ham qanoatlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, huquqiy yashash uchun bo'lgan har bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning o'shanday yashashiga olib keladi. Fuqarolik jamiyati, shunday qilib, bir kishining ehtiyojini uning mehnati vositasida qondirishi barobarida, shu mehnat vositasida barcha qolganlarning ham ehtiyojini qondiradi. U o'z a'zolarining shaxsiy erkinliklari

va huquqlarini himoya qiladi, odil sud vositasida ular mulkiga dahl qilinishiga yo'l qo'ymaydi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat singari hodisalar ro'y berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs – davlat fuqarosi, muayyan inson manfaatlarini birinchi o'rinda tutadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, ham axloqiy, ham qonuniy jihatdan himoya qilinadi. Mamlakatimizda hozir erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini tuzishga kirishganmiz. Bu jamiyat, ma'lum ma'noda, g'arbliklar tasavvuridagi fuqarolik jamiyatlaridan farq qiladi. G'arbda bu borada e'tibor asosan huquqiy yo'nalishning ustuvorligiga qaratilsa, bizda axloqiy - ma'naviy yo'nalishning ustuvorligini ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz qurayotgan fuqarolik jamiyati g'arb dunyosi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bu faxrlanish hissidan kelib chiqqan balandparvoz gap emas. Masala shundaki, g'arb jamiyatlari hozirgi paytda axloqiylikni huquqiylikning yuqori bosqichi sifatida qabul qilmoqdalar. Lekin ular uchun «axloqiy o'rin bo'shatishdan» ko'ra «huquqiy o'rinni egallab turish» na faqat qonuniy, balki zavqliroq tuyuladi. Bizning mentalitetimizda esa, buning aksi – har bir «axloqiy o'rin bo'shatish» o'zbek qalbiga quvonch, o'z insonlik burchini bajarganlik hissinini to'ldiradi. Bundan tashqari, bizda fuqarolik jamiyati qurishni ma'lum ma'noda tezlashtiradigan, g'arb mentalitetiga xos bo'lmagan mahallalar bor. O'zbek mahallalari tom ma'noda axloqiy tarbiyaning maskani; oila kattalari bolaga qanchalik tarbiya bera olsa, o'sha oila yashayotgan mahallaning tarbiya borasidagi hissasi ham shuncha bo'ladi, desak hato qilmaymiz. Buning ustiga, mahallada xalqimizning qadimiy demokratik an'analari hozir ham o'z kuchini yo'qotgan emas. Mahallada yashayotgan, hukumat a'zosi ham, millioner tijoratchi ham, farrosh ham, odiy o'qituvchi ham bir hildagi mahalladoshlik huquqiga ega. Chunonchi, mahallanig oqsoqoli oddiy o'qituvchi bo'lishi mumkin va ko'p hollarda shunday ham. Hukumat a'zosi yoki millioner esa, mahallada faqat mahalladoshlik «lavozimida» bo'ladi. Ularning farqlanishi faqat axloqiy jihatlari bilangina belgilanadi. Ana shu xususiyatlari bilan mahalla o'z - o'zini boshqarish tuzilmasi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun axloqiy ko'pri bo'lib xizmat qiladi. Bunday oraliq bog'lovchi tuzilma, yuqorida aytganimizdek, g'arb olamida yo'q. Demak, shunga ko'ra ham, bizda fuqarolik jamiyatiga o'tish nisbatan osonroq kechadi, degan fikr bildirish mumkin. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning: «Shu ma'noda mahallani o'z - o'zini boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin», degan so'zlari ayni haqiqatdir. Buyuk olmon faylasufi Hegel davlatni axloqiy g'oyaning voqe bo'lishi deb ta'riflaydi va tabiiy munosabatlarni ma'naviy munosabatlar bilan muqoyasa qilib, oilani – hissiyotga, fuqarolik jamiyatini – asabning ta'sirlanish qobiliyatiga, davlatni esa o'zi uchun asab tizimiga o'xshatadi; u o'z ichida botinam tashkil topgan, biroq uning yashashi o'zida ikki holatning taraqqiy topishi bilan bog'liq, bular – oila va fuqarolik jamiyati. Davlat aqlning ro'yobga chiqishi sifatida har bir shaxs ihtiyoriga mosdir. Odatda, davlatning maqsadi o'z fuqarolarini baxtli qilish deb hisoblanadi. Agar fuqarolar qiynalsa, ularning sub'ektiv ehtiyoj - maqsadlari qondirilmasa, davlatning mustahkamligi shubha ostida qoladi.


Davlatning asosi – siyosiy tuzum. Uning taqdiri ham ana shu siyosiy tuzumga bog'liq.

Ko'pdan - ko'p turli - tuman boshqaruv va tashkiliy institutlardan iborat bo'lgan davlatning eng muhim axloqiy vazifalaridan biri - tarbiya. Davlat tomonidan maktabgacha bo'lgan tashkilotlarda, maktablarda va oliy o'quv yurtlarida ta'lim bilan qo'shib olib boriladigan tarbiya alohida ahamiyatga ega. Agar mazkur tarbiyada ommabop usullarning toshi bosib ketsa, u hol maqtarli emas; yoshlarning o'zligini anglagan shaxs bo'lib etishuvi mushkullashadi. Shu bois imkon boricha tarbiyada individual yondoshuvga intilish maqsadga muvofiq.


Demokratik tamoyillarni amalga oshirish jarayonlarida davlat, hamma fuqaro baravar teng, degan usulda ish ko'rmasligi lozim; hammaning huquqiy tengligini tan olgan holda, ijtimoiy tenglashtirish tamoyiliga yo'l qo'ymaslik kerak.

Davlatning mavjud bo'lish sharti, eng avvalo, uning suverenitetida. Bunda xalq tashqi olamga nisbatan mustaqil bo'ladi va o'z davlatini shu mustaqillik asosida tuzadi. Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin o'z davlatimizni qadimiy davlatchiligimizning eng yaxshi an'analari bilan birga zamonaviy demokratik tamoyillar asosida qurishga kirishdik. Davlatimiz ham ma'naviy - axloqiy, ham jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berib kelmoqda. 2000 - yilning «Sog'lom avlod yili» deb atalishi bejiz emas; yosh avlod tarbiyasi bizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mana, ko'rinishidan juda oddiy bir misol. O'zini eng insonparvar davlat deb e'lon qilgan Sho'rolar Ittifoqi bunyodga kelganidan boshlab, deyarli yarim asr mobaynida bola tug'ilgach, onani uch oy ishdan ozod qilardi; ona uch oylik chaqaloqni bog'chaga tashlab, ishga chiqishga majbur bo'lardi, aks holda u buyruq bilan ishdan bo'shatilardi. Keyinchalik bu tarbiya ta'tili 1 yil qilib belgilandi. Bizning davlatimiz esa tashkil bo'lgani barobaridayoq bola tarbiyasini yuksak ijtimoiy - axloqiy hodisa sifatida e'tirof etib, yangi tug'ilgan bola tarbiyasi uchun onaga 3 yillgacha muddat berdi. Uch yillgacha onaning ish joyi saqlanib turadi. Shu birgina misolning o'ziyoq totalitar tuzum davlati bilan demokratik davlat naqadar katta farq qilishini ko'rsatib turadi. Totalitar tuzum davlati yolg'on, aldov – axloqsizlik instituti. Biz tanlagan demokratik davlatning asosida esa yuksak axloqiylik yotadi.


Mavzuga oid o'quv – ko'rgazmali materiallar.




2.1– ko'rgazma.




2.2– ko'rgazma.




2.3– ko'rgazma.



2.4 – ko'rgazma.



2.5– ko'rgazma.



2.6– ko'rgazma.

“Kichik guruhlarda ishlash” usuli qoidalari

1. Mavzu uchun muammo shunday tanlanadiki natijada talabalar mustaqil fikrlashga, ijodiy faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladilar.
2. Talabalar muhokama uchun tanlangan mavzu hususida oldindan etarli bilimga ega bo'lishlari kerak.
3. Guruhlar 3–5 kishidan iborat bo'ladi (bir talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchi esa sardor rolini o'taydi).
4. Guruhlar kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, o'qituvchi tomonidan kerakli maslahatlar olib turishlari yordam so'rashlari mumkin.
5. Guruhlarning ishlari yakunlangach uning yakunlari bo'yicha axborot beriladi. Agar vaqt etarli bo'lsa guruhlar muayyan fikrni asoslashda bir –

birlariga savollar berishlari mumkin. Natijalar esa o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Muhabbatning axloqshunoslik mezoni tushunchasi sifatidagi mohiyati nimadan iborat?
2. Ezgulik va yovuzlik mezoni tushunchalarining ijtimoiylik xususiyati nimada?
3. Ezgulik va yovuzlikning yomonlik va yaxshilikdan farqi nimada?
4. Nima uchun vijdon axloqshunoslikning asosiy mezoni tushunchasi hisoblanadi?
5. Nomus tushunchasining axloqiy hayotdagi o'rni nima bilan belgilanadi?
6. Oila va uning uch asosiy jihati nimadan iborat ?
7. Nikohning axloqiy mohiyati nimadan iborat?

Uchinchi seminar mashg'uloti texnologik xaritasi.

("Munozara" usulini qo'llagan holda.)

Mavzu: Axloqiy madaniyat va kasbiy odob.

Seminar rejasi. 1. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob. 2. Axloqiy tarbiyaning yo'llari va vositalari. 3. Axloqning boshqa ijtimoiy - ma'naviy hodisalar bilan o'zaro aloqalari: axloq va din, axloq va huquq, axloq va siyosat, axloq va san'at, axloq va fan, axloq va mafkura.		
Maqsad: Talabalarni mavzuga oid bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish.		
O'quv faoliyat natijasi. <u>Talaba bilishi kerak:</u> • Axloqiy madaniyat tushunchasini; • Axloqiy tarbiyaning yo'llarini; • Axloqiy tarbiyada oila namunasini; • Muomala madaniyatining inson hayotida tutgan o'rnini; • Talaba etikasini; • Etiket qonun – qoidalarini.		
Mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar. 1. O'quv materiallari bilan tanishish. 2. Ma'ruza matnini o'qish. 3. Quyidagi o'quv adabiyotlari bilan tanishish: ▪ A. Karimov. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.: 2000 y. ▪ M. Qirg'izboev. Hokimiyat va axloq. "Tafakkur" jurnali 2006 y 2 - son. ▪ Zamonaviylik va hayo. "Hidoyat" jurnali. 2006 yil 6 - 28 - son.		
Tekshirish usuli: Og'zaki savol – javob. Reyting baholash.	Maksimal ball: 2	O'qituvchi imzosi:

Mavzuning qisqacha mazmuni.

Berilayotgan materiallardan fundamental ma'lumot sifatida foydalanish va albatta texnologik xaritada ko'rsatilgan qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilish kerak.

1. Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini ular fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z - o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. U mohiyatan o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir - biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir - biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmona yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr - qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarni bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuhanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, hushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Muomala odobining yana bir «ko'zgusi» bu – insoniy qarash, nigoh. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so'zga aylanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini ohirigacha eshitmay, qo'l siltab ketish – muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba'zan qarab qo'yishning o'zi so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Deylik, bir quruvchi usta o'z shogirdining hatti - harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo'yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o'qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va hatti - harakati bilan; «Obbo shovvoz - ey, sal shoshilibsan - da, ha, mayli, zarari yo'q, shunaqasi ham bo'ladi», degan ma'noni anglatga, ikkinchi ustaning qarashidan; «Yana ishni rasvo qilibsang - ku, padarla'nat, qachon odam bo'lasan?!», degan so'zlarni uqish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo'lsa, ikkinchisi uning aksi – shogirdining emas, o'zining odobsizligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat va odob o'rgatishsiz bir - biriga ta'siri, tarbiya va o'z - o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovordir. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bunda ota - onaning, mahalla - ko'yning ta'siri katta. Undan foydalana bilash kerak. Zero axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu – etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish qonun - qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir hil qoidalashtirib qo'yilgan hatti - harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun - qoidalarini o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h. k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez - tez televizor ekrani orqali ko'rib turamiz. Prezidentimiz Islom Karimovga horijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarini eslang. Unda faqat bir hil holat, xalqaro miqyosda o'rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo'q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturhonda tanovul payti, pichoqni o'ng qo'lda ushlash zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat'iy qoidalaridan biri sanaladi – uni buzish atrofdagilarda hayrat va istehzo uyg'otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat'iylashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiket – takallufning mayda - chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo'qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo'ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z hohish - ihtiyoriga qarshi ish ko'rayotgan bo'lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko'rinishiga aylanadi. Masalan, siz ertalab ishga shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylilik. Ro'parangizda tanishingiz yoki qo'shningiz uchraydi. Siz ko'rishib, hol - ahvol so'rashib uni: «Qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir hangomalashamiz», deb ichkariga taklif qilasiz. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaqtingiz yo'q, hatto, shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o'ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o'z istagingizga qarshi, etiket - mulozamat yuzasidan yolg'on gaplarni aytasiz, hunuk eshitilsa ham na chora – munofiqlik qilasiz. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib - qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo'lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr - toqatga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri, uning jamiyat

axloqiy hayotidagi o'zni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurjaroq to'xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatlardoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot - mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohnii olaylik. Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch ilinji bilan qaraydilar. Bordi - yu, shaxsiy manfaat yo'lida jarroh o'z bemoriga xiyonat qilsa - chi, ya'ni, uni qasddan halok etsa - chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo'lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma'naviy azobga qo'yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o'zining ba'zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha, nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo'lishi hech gap emas. Ho'sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi? Shu bois boshqalarning qo'lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o'zboshimchalik, manfaatparastlik, hudbinlik va kasbni suiste'mol qilish singari illatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta'minlash maqsadida ko'p hollarda o'zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki me'yorlar ko'rinishini olgan. Uni buzish o'ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan Qadimgi Yunon Hakimi hippokrat (milodgacha V - IV asrlar) tomonidan qisqa va lo'nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi, qonun - qodolari jamlangan mashhur «Hippokrat qasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o'z dushmanini davolagan tabiblar ham ko'p uchraydi. Chunonchi, qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II - asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo'l bor edi: biri – saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo'l davolashdan bosh tortish bilan uni o'linga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so'ng, tabiblik odobi qoidalariga bo'ysunishni – Lakshmanni davolashni afzal ko'radi. Zero kasbiy odob qonun - qodolari talabiga ko'ra, bemor to'shagi ustidagi tabib uchun do'st yoki dushman degan tushunchalar o'z ma'nosini yo'qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo'lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo'l ochadi. Lekin, kitobhon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasaratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o'qiydi. Yoki mashhur rus olimi akademik Andrey Saharovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik,

termoyadro sohasida tengi yo'q mutahassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun o'nlab orden va medallar sohibi, ikki marta Sosialistik Mehnat Qahramoni, obro'li, badavlat bu insonga nima etishmasdi? Nega u hammasidan kechishga – ommaviy qirg'in qurollarini, jumladan, o'zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi. Natijada qatag'onlarga asoslangan Sho'rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytahtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg'a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini ta'qiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saharov yuksak axloq yo'lini tanladi – olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni har qanday boylik, izzat - ikromdan baland qo'ydi. Buyuk olim o'z kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo'lmish – yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo'llanilishiga qarshi kurashdi. U sho'rolar mafkurasining o'zini Vatan mudafaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e'lon etishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta'na - dashnomlar yog'dirishiga sabot bilan chidadi, ahddan qaytmadi, yovuzlik saltanati qo'lida o'z olimlik iste'dodining qo'g'irchoq bo'lishiga, harbiy murvatga aylanishiga yo'l qo'ymadi. Ohir - oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Bulardan tashqari, muallimlik odobi, huquq - tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari birqancha kasbiy odob turlari borki, ular ham jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni ham aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun - qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba'zi nuqtalarga tuxtalaylik. Rahbar quyi lavozimdagilarga mensimay, qo'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz - dodiga, orzu - istaklariga to'ralarcha sovuqqon qarashi odobsizlikka kirsa, uning shaxsiy boylik orttirishi yo'lida korrupsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, na faqat rahbarlik kasbiga balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobni kasbiy axloq deb atalishi ham shundan.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o'ylaganidek, axloqshunoslikning mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o'rganish kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o'rin egallayajak. Zero kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o'zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy hodisa sifatida baholanishi lozim.

2. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab etadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak,

ikkinchisi – nima qilmog' - u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota - onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero qush inida ko'rganini qiladi: ota - ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat – asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab etkazishimiz mumkin bo'lur edi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka etkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bolaning qizg'anchilik, g'irromlik qilmaslikka, halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi san'at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san'atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib, romangacha bo'lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko'rsatadilar. Ular orqali kitobhon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo'ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, yuqorida ko'rganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an'anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan - qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo'lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li bu – namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota - ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda va oliy o'quv yurtida muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to «mayda - chuyda» hatti - harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz - shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlar axloqiy tarbiyasining shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniени keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko'rsatish imkoniga ega.

Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan muntazam ko'rsatuvlar ham berib boriladi. O'zbek tilidagi «Otalar so'zi - aqlning ko'zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko'rsatuvlar bunga misol bo'la oladi. Shu bois televidenie hech qachon engiltaklikni targ'ib etuvchi qo'shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan «o'ldir - o'ldir»lardan iborat videofilmlar korxonasi bo'lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiyaning aqliy - ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy - ijtimoiy shart - sharoitlar yaratilgan.

3. Axloq – ma'naviyat tizimida eng salmoqli o'rinni egallaydi va undagi boshqa sohalar bilan mustahkam aloqada ish ko'radi. Endi ana shu aloqalarning eng muhimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Avvalo, axloq bilan din masalasini olib qaraylik. Bu borada yana, yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib, shuni aytish mumkinki, mohiyatan din inson hayotining axloqiylikini taqozo qiladi. Shu bois diniy - shar'iy tamoyillar va me'yorlar, hadisi sharifdagi o'gitlar axloq - odob qoidalari bilan chambarchas bog'liq. Chunonchi, inson eng oliy qadriyat sifatida qat'iy muhofaza etiladi. Odam o'ldirish mumkin emas, odam o'ldirish eng ulkan axloqsizlik hisoblanadi. O'g'rilik, birovning haqini eyish, munofiqlik, aldash, yolg'on gapirish va shu kabi boshqa turli illatlar ham diniy - shar'iy, ham axloqiy nuqtai nazardan man etiladi. Aksincha, insonni e'zozlash, odamlarning bir - biriga ko'makdosh bo'lishi, to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik, rahmdillik, qavmdoshi qanday yuksak darajada bo'lmasin, unga hushomad qilishdan tiyinish, faqat yaratgangagina sig'inish singari fazilatlar ayni paytda ham diniy taqvo, ham axloqiy talab tomonidan ma'qullangan hatti - harakatlardir. Shu bois axloqni dindan mustaqil, muxtor ma'naviy hodisa sifatida talqin etuvchi markscha - lenincha qarashlar mantiqiy va ilmiy asosga ega emas. Din, ta'kidlaganimizdek, insonni axloqiy lashtirishning vositasi tarzida ish ko'radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir. har ikki holatda ham vijdon ko'zga ko'rinmaydigan boshqaruvchi murvat sifatida namoyon bo'ladi. Bu botiniy ko'rinish; zohiriy ko'rinish esa shar'iy hukmlar va huquqiy qonunlarda o'z aksini topadi.

Axloqiy talab huquqiy qonun - qoidalarda o'z aksini topadi, deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ega ekanini tasdiqlab turibmiz. Zero aslida ham shunday. Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun - qoidalar o'sha mintaqa xalqi tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, me'yorlar, shuningdek, nisbatan umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan urf - odatlar zahirida vujudga keladi. Lekin ba'zi bir urf - odatlar, an'analar huquqiy me'yorlar darajasiga ko'tarila olmasligi ham mumkin. Buning sababi, ularning, avvalo, nisbatan xususiy tabiatga ega bo'lganida, qolaversa, axloqiy va huquqiy taraqqiyot talablariga javob bera olmasligida. Masalan, johiliyat davrida arablarda qiz tug'ilsa, uni tiriklay ko'mib tashlash odati bo'lgan. Keyinchalik, musulmonlik yoyilganda, bu odat g'ayri musulmonlik odati sifatida rad etildi. Hozirga kelib, unday hodisa huquqiy qonunlar asosida jinoyat deb qaraladi. Yoki bizning mintaqada qadimda

mavjud bo'lgan hun olish odati ham hozirda jinoyat sifatida jazoga loyiq hisoblanadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo'lsa - da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xil: axloq asosan tushuntirish, pand - o'gitlar vositasida ish ko'rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi. Ayni paytda, shuni ham aytish kerakki, huquq axloqqa nisbatan ancha aniq va ancha muayyan ichki bo'linishlarga ega. Chunonchi, xalqaro huquq, fuqaro huquqi, jinoiy huquq, mehnat huquqi va h. k. nisbatan qat'iy chegaralangan huquqiy me'yorlar mavjud. Axloq esa huquqqa nisbatan ancha keng qamrovli. Chunonchi, huquqiy qonunlar mavjud tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbqiq etilsa, axloqiy qoidalar, hikmatlar, pand - o'gitlar barcha tuzumlar hamda turli yoshdagi kishilarga taalluqli bo'ladi. Shuningdek, huquqiy me'yorlar aniq adresni taqozo qiladi, axloqiy qoidalar esa mavhumligi va umumiyligi bilan ajralib turadi.

Axloqning siyosat bilan aloqasi ham nihoyatda qadimiy: ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjud. Masalan, miloddan avvalgi XVIII asrda Bobilon podshosi Xammurapi tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar majmui huquqiy hujjat bo'lsa - da, uning asosida axloqiy fazilat - adolatni barqaror etish yotadi. Zero Xammurapi bu qonunlarni mamlakatda haqiqat qilish, adolat o'rnatish, etim - esirlar va beva - bechoralarga himmat, rahm - shafqat ko'rsatish maqsadida joriy etganini ta'kidlaydi.

Axloqshunoslik tarixida axloq bilan siyosatning munosabatlari borasida ikki hil qarash mavjudligini ko'rish mumkin. Ularning biriga ko'ra, siyosat axloqiy bo'lmog'i lozim, ikkinchisiga binoan esa siyosat axloq bilan sig'ishmaydi.

Birinchi qarash mohiyatan axloqni siyosatdan yuqori qo'yadi: siyosat axloqqa bo'ysundirilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, maqsadlar va vositalar birligiga erishmoq lozim, ya'ni buyuk, pokiza ideallar faqat axloqiy pok vositalar orqali amalga oshirilmog'i kerak. Lekin bunda axloq siyosat vazifasini bajarmasligi lozim. Aks holda muayyan davlat institutlarining, hususan, huquq - tartibot va harbiy idoralar singari tashkilotlarning ishini ortiqcha darajada cheklab, ularni juda zaiflashtirib qo'yish mumkin.

Ikkinchi qarash esa, mohiyatan siyosatning axloq bilan hisoblashmasligini taqozo etadi. Bu qarash tarafdorlari axloqni siyosatga bo'ysundirishni, undan, kerak paytida, tamomila yuz o'girish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular nazdida, axloq buyuk ideallarga erishuv yo'lidagi bir g'ov, jamiyatni umuminsoniy qadriyatlar bilan o'ralashtirib qo'yadi, ko'ngli bo'shlikka, sustkashlikka, pirovard natijada bosh - boshdoqlikka olib keladi. Shu bois buyuk maqsadlarga tezroq erishish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin. Zero ohir - oqibat erishilgan maqsad yo'l qo'yilgan razilliklar, qattolliklar, aldovlar va firiblarni yuvib ketadi. Vaholanki, bu usul orqali faqat vaqtinchalik g'alabaga erishish mumkin. Oqibatda esa, bu g'alaba na faqat yo'qqa chiqadi, balki mag'lubiyatga aylanadi. Misol tariqasida yana sho'rolar tuzumiga murojaat qilish mumkin. Zo'rlik, aldov va qatag'onlar bilan xalqni baxtli qilishga urinish, «xalq baxti» uchun millionlab odamlarning yostig'ini quritish evaziga erishilgan g'alaba ohir - oqibatda buyuk mag'lubiyat

sifatida nihoya topdi. Yuqorida keltirganimizdek, u ulug' maqsadlarni iflos vositalar bilan amalga oshirish o'sha maqsadlarning ham toza emasligini amalda isbotlaydi. Endilikda sobiq Sho'rolar Ittifoqi tarkibiga kirgan xalqlar axloqsiz siyosat tufayli jahondan ajralib qolgani, yolg'on, poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik bu mintaqalar uchun odatga aylanib ketgani hammaga ma'lum. Bu illatlardan tozarish, qutilish uchun yana necha o'n yillar kerak ekani ko'zga ko'rinib turgan reallikdir. Demak, siyosatda axloqdan ko'z yumish, uni axloqiylashtirishda yuzaga keladigan ba'zi nuqsonlardan yuz bor, ming bor ko'p va fojeiyydir. o'z siyosatini tubdan axloqiylashtirish – har bir zamonaviy davlatning hozirgi kundagi birlamchi vazifasi.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari haqida gap ketganda, eng avvalo, uni et bilan tirnoq tarzidagi yaqinlik ekanini ta'kidlamok lozim. Chunki har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Julettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Shunisi ham borki, ba'zi san'at asarlarida axloqiy idealga duch kelmaydi kishi, hatto biror bir ijobiy qahramonni ham uchratmaydi asar boshdan - oyoq salbiy badiiy qiyofalar turish - turmushini aks ettirishga bag'ishlanadi. Bunday badiiy qiyofalarni muallif o'z zamonasi erishgan axloqiy daraja nuqtai nazaridan turib yaratadi. Misol tariqasida Bayronning «Beppo» dostonini, Gogolning «O'lik jonlar», Zavqiyning «Hajvi ahli rasta», Abdulla Qodiriyning «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» asarlarini keltirish mumkin. Bu asarlarda axloqiy muammolar, yuksak axloqiylik masalasi avvalgi misollardagidek bevosita emas, balki bilvosita – satirik usul orqali o'rta tashlanadi.

Bundan tashqari, so'z san'atida, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal pandnoma v. h. shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik umumiy zamin ahamiyatiga ega.

Bundan tashqari san'at axloqshunoslik targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Chunonchi, badiiy adabiyotning, kino san'ati, tasviriy san'at va teatr san'atining, ayniqsa, bu borada ahamiyati beqiyos. Bu san'at turlari yoshlarda axloqiy idealning shakllantirishda katta xizmat qiladi. Chunonchi, «urush - urush» o'yinlarida bolalarning mard, jasaratli, matonatli, vatanparvar va halol amerikalik hindular sardoriga, Alpomishga, Go'ro'g'liga va boshqa xalq qahramaonlariga taqlidi fikrimizning dalilidir.

Axloqning fan bilan o'zaro aloqadorligi masalasi ham muhim. Ba'zi bir qarashlarga ko'ra, axloqning fanga aloqsi yo'q. Bunday qarashlarni to'g'ri deb bo'lmaydi. Zotan axloqshunoslik tadqiqot ob'ekti sifatidagi axloqning maqomiyoq uning fanga aloqadorligini ko'rsatib turadi.

Ayniqsa, axloqning ijtimoiy fanlar bilan aloqasi miqyoslidir. Chunonchi, ko'pgina ilmiy qarashlar, nazariyalar insonni bevosita yoki bilvosita yuksak axloq egasi, donishmand va halol inson bo'lishga chaqiradi.

Lekin, ayrim nazariyalar ham borki, ularni axloqsiz deb atash o'rinli. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, mashhur «Maltus nazariyasi». Ingiliz iqtisodiyot nazariyotchisi Maltus (1766 - 1834) ilgari surgan g'oyaga ko'ra, aholi geometrik progressiyaga, iste'mol maxsulotlari arifmetik progressiyaga muvofiq rivojlanadi. Aholi o'sa borib, er yuzida qashshoqlik, oziq - ovqat etishmovchiligi vujudga keladi. Shu bois urushlar olib borish tabiiy hol sifatida o'zini oqlaydi. Maltus bu o'rinda urushni targ'ib etish bilan axloqsizlikning eng yuksak ko'rinishini namoyon etmoqda. Shuningdek, insoniyat jamiyatini qarama - qarshi sinflarga bo'lib tashlashni, hokimiyatni zo'ravonlik, qon to'kish terror orqali qo'lga kiritishni va shu yo'sinda tutib turishni targ'ib etuvchi markscha - lenincha sinfiylik hamda socialistik inqilob nazariyalari ham ilmdagi axloqsizlikning bo'rtib ko'zga tashlanadigan namunasidir.

Ma'lumki, barcha fanlar, hususan, tabiiy fanlar har biri o'z sohasida haqiqatning ayon bo'lishiga xizmat qiladi. Axloqning pirovard natijasi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil mavjudot qilib tarbiyalashdir. Ana shu nuqtada axloq va fan bilvosita munosabatga krishadi. Ayni paytda ilm - fanda erishilgan olamshumul yutuqlar insoniyat jamiyati oldiga yangi - yangi axloqiy vazifalar va muammolarni qo'yadi. Chunonchi, so'nggi paytlarda fan - texnika taraqqiyotining yuksak darajasi va ekologik buhronlarning yuzaga chiqishi sababli ekologik axloqshunoslik singari axloq olamining yangi yo'nalishlari vujudga keldi; noosferadan yoki boshqacha aytganda tehnosferadan etosferaga – axloqiy muhitga o'tish zarurati insoniyat jamiyati axloqiy madaniyati oldidagi eng dolzarb vazifa sifatida qo'yilmoqda; zero bu vazifaning faqat axloqshunoslik doirasidagi muammogina emasligini, keng qamrovli ekanini, butun Er yuzining bundan keyin mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi muammosiga aylanganini bugun yaqqol sezish mumkin.

Shu bois texnikaviy fanlar taraqqiyotining navbatdagi bosqichlari faqat axloq talablariga mos, ta'bir joiz bo'lsa, axloqiy nazorat ositida amalga oshmog'i lozim.

To'g'ri, ba'zilar bizga, fan – mutlaq ob'ektiv hodisa, u mohiyatan holis, shunga ko'ra, uni axloqqa bu qadar bo'ysundirish nojoiz, deb e'tiroz bildirishlari ham mumkin. Biroq, fanni odamlar, turli hissiyot, ehtirolarga moyil, turli axloqiy fazilatlar, hatto illatlarga ega bo'lgan kishilar yaratishini yodga olsak, bunday e'tirozlarning o'zi nojoiz ekanligiga ishonch xosil qilamiz. Zero har bir olimning ma'naviy - axloqiy holati, uning o'z kashfiyotida qay darajadadir aks etmasligi mumkin emas. Hullas, fan ham bevosita, ham bilvosita axloq bilan bog'liq va aynan shu bog'liqlik tabiiy - texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi.

Axloq bilan mafkuraning aloqasi ham jamiyat hayotida juda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir mafkura muayyan g'oyalar va qarashlar tizimidan iborat bo'ladi. Rasmona mafkurani axloqiy g'oyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin g'oya hech qachon o'z - o'zicha, shunchaki mavjud bo'lmaydi. U albatta insonda in'ikos topadi va muayyanlashadi. Bu haqda Hegel o'zining «Falsafiy bilimlar qomusi» asarida shunday deydi: « ϕ oya haqida gapirganda, uni qandaydir olis va narigi tomondagi narsa tarzida tasavvur qilish kerak emas. ϕ oya, aksincha, butunisicha shu erda ishtirok etadi hamda, shunindek, har bir ongda, kam deganda, buzilgan va zaiflashgan hoda mavjud bo'ladi». Demak, muayyan g'oyalarni, shu jumladan, axloqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va uni ommalashtiradilar.

Har bir demokratik davlat va jamiyatda bir necha mafkura mavjud bo'lishi tabiiy. Lekin ular ichidan biri etakchilik mavqeini egallaydi. Bu etakchilik zinhor boshqa mafkuralarni inkor etmaydi va jamiyat a'zolari ko'pchiligi irodasini aks ettirishi bilan ajaralib turadi. Uni shuning uchun ham milliy mafkura deb atashadi. Erkin demokratik fuqorolik jamiyatini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan bizning mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi birinchi bo'lim, birinchi bobning 12 - moddasida shunday yozib qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning hilma - hilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mufkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas».

Demak, bizning davlat demokratiya tamoyillariga asoslangan holda, barcha mafkuralarning yashash huquqini ta'minlovchi insitut sifatida ish ko'radi. Milliy mafkuramiz esa boshqa biror - bir mafkurani kamsitmasdan, ko'pchilik jamiyat a'zolarining ijtimoiy - falsafiy, axloqiy - estetik g'oyalari tajassumi sifatida mamlakat va millat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunonchi, u, eng avvalo, yuksak axloqiylikka asoslangan. Milliy mafkuramiz jamiyatimizda vatanparvalik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bilib, har bir fuqoroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi. Ayni paytda, umumbashariy ma'naviy qadryatlarni e'zozlashga, boshqa millatlar va elatlarga hurmat bilan qarashga chaqiradi, tenglar ichida teng bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Bu mafkura xalqimiz ma'anviy mezonlariga, uning ezgulik va farovonlik haqidagi ideallariga, erksevarlik, tinchliksevarlik tamoyillariga mos keladi, shu sababli unga ehtiyoj bor.

Tarixdan axloqiylikni chetlab o'tishga yoki uni axloqsizlikka niqob qilib, axloqni sohtalashtirib umr ko'rishga uringan mafkuralar ham bizga ma'lum. Ular, odatda, muayyan davlatning yagona mafkurasi deb e'lon qilinadi va u millatga yolg'on vositasida singdirishga uriniladi. Olmoniyada hitlerchilar ilgari surgan milliy sosializm mafkurasi yoki sobiq sho'rolar ittifoqidagi komunistik mafkura shular jumlasidandir. har ikkala mafkura ham o'zini tan olganlardan «mafkuraviy dushmanlar»ni jisman yo'qotishni talab etdi – eng buyuk axloqsizlikni axloqiylik sifatida targ'ib qildi. Lekin niqoblangan axloqsizlikning umri uzoq emas. Bu holatni buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin «Tiklanish» degan she'rida bag'oyat go'zal tasvirlagan:


Vahshiy rassom mudroq, beizn,
Daho suratini buzadi
Va u surat ustiga o'zin
Beburd suratini chizadi.

Lekin u yot bo'yoqlar bir - bir
Ko'chib tushar yil sayin, ayon;
Va daho ijodi bequsur
Avvalgidek bo'lur namoyon...


(Turob To'la tarjimasi)

Lenin, Stalin, Hitler singari «vahshiy rassomlar» chizgan suratlar – totalitar tuzumlar mafkuralari qismatini shu she'rda ko'rish mumkin. Zero axloqiylik har qanday mafkura muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi. Axloq bilan mafkura bir - biri bilan ana shunday uzviy bog'liq.


Mavzuga oid o'quv – ko'rgazmali materiallar.



3.1– ko'rgazma.



3.2– ko'rgazma.



3.3– ko’rgazma.

“Munozara ”usulini o’tkazish tartibi.

1. Munozara olib boruvchi – boshlovchi tayinlanadi va ishtirokchilar taklif etiladi.
2. Boshlovchi ishtirokchilarga “aqliy hujum” qoidalarini tushuntiradi:
 - “hujum”dan maqsad muammo echimiga oid variantlarni ko’proq taklif etish;
 - o’z bilimingizni umumlashtirib e’tiborni muammo echimiga qaratib , fikrlar bildiring. Bildirilgan g’oyalar umumiy fikrga zid bo’lsada, hech biri rad etilmaydi;
 - boshqa ishtirokchilar g’oyalarini ham qo’llab quvvatlang;
 - taklif etilganlarni baholash keyinroq amalga oshiriladi.
3. Boshlovchi kotib tayinlaydi va u aytilgan barcha g’oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so’zga chiquvchilar aniqlanib munozarada barcha ishtirokchilar qatnashadi, ularga o’z fikrlarini ifodalash imkoni beriladi. Agar uni o’tkazish qoidalari biror kishi tomonidan buzilsa, boshlovchi uni xolisona hal qiladi. Birinchi bosqich yangi g’oyalar paydo bo’lgunicha davom etadi.
4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “charhlanishi” uchun qisqa tanaffus e’lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. Ishtirokchilar guruhlariga bo’linib, birinchi bosqichda bildirilgan g’oyalar mustahkamlanadi. G’oyalar guruh bo’yicha birlashtirilib, ular

tahlil qilinadi. Natijada o'rtaga qo'yilgan muammoning echimiga oid g'oyalar ajratib olinadi.

5. Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar.

1. "Madaniyatli inson" tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Kasbiy odob qoidalariga misollar keltiring.
3. Fuqarolik jamiyati qanday tuzilma?
4. Davlatning axloqiy asoslari qay tarzda ko'zga tashlanadi?
5. Muomala odobining inson hayotida tutgan o'rni qanday namoyon bo'ladi?
6. Etiket nima?
7. Kasbiy odob shaxs va jimiyat hayotida qanday o'rin egallaydi?
8. Axloqiy tarbiya nima, uning asosiy vositalari va yo'llari qaysilar?

To'rtinchi seminar mashg'uloti texnologik xaritasi.

(“Debatlar” usulini qo'llagan holda.)

Mavzu: Estetika (Nafosatshunoslik) ning mushtarak mezoniyl tushunchalari

Seminar rejasi. 1. Go'zallik. 2. Ulug'vorlik. 3. Fojealilik. 4. Kulgililik.		
<i>Maqsad:</i> Talabalarni mavzuga oid bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish.		
<i>O'quv faoliyat natijasi.</i> <u><i>Talaba bilishi kerak:</i></u> • Estetik ong tushunchasini; • Estetik ong tuzilmasini; • Estetika kategoriyalarini; • Estetik did nima ekanligini; • Estetik faoliyat unsurlarini; • Estetik tarbiya yo'llarini.		
<i>Mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar.</i> 1. O'quv materiallari bilan tanishish. 2. Ma'ruza matnini o'qish. 3. Quyidagi o'quv adabiyotlari bilan tanishish: ▪ Umarov. E Estetika. T.: 2006 yil. ▪ “Yoshlar kitob o'qimaydi - mi?” “Ma'rifat” gazitasi 4 mart soni 2007 yil. ▪ “Milliylik moda va zamon”. “Muloqot” jurnali 2006 yil. 4 - son. ▪ N. Ro'ziyev “Nafosat nimadir, go'zallik nadir.” “San'at” 2006 yil. 2 - son		
<i>Tekshirish usuli:</i> Og'zaki savol – javob. Reyting baholash.	Maksimal ball: 2	O'qituvchi imzosi:

Mavzuning qisqacha mazmuni.

Berilayotgan materiallardan fundamental ma'lumot sifatida foydalanish va albatta texnologik xaritada ko'rsatilgan qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilish kerak.

1. Go'zallik - nafosatshunoslikning asosiy tushunchasi. Zero, go'zallik - nafosat olamining mag'zi, bosh xossasi, mohiyati, asosini tashkil qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, estetika, nafosatshunoslik, go'zallik falsafasi tarzida ham talqin etib kelinadi.

Go'zallik muammosiga murojaat etgan barcha mutafakkirlar go'zallik haqida fikr yuritib va uni tadqiq qilish nihoyat darajada mashaqqatli masala ekanligini doimo ta'kidlaydi. Mazkur qiyinchilik, birinchi navbatda, go'zallik tushunchasining o'zaro hech bir umumiyligi bo'lmagan turli - tuman hodisalarning keng doirasiga taalluqliligi bilan bog'liqdir.

Go'zal bo'lgan, ya'ni bizda ijobiy tuyg'u qo'zg'atgan narsani ko'rsatib berish nisbatan ancha oson. Lekin nima uchun mazkur narsa go'zal ekanligini tushuntirib berish ancha mushkul. Huddi shu tarzda go'zallik muammosiga falsafiy yondoshish tarixan shakllangan.

Go'zallik bu voqelik (tabiat, jamiyat, san'at) hodisasi bo'lib, aniq hissiy ta'sir o'tkazish orqali insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishiga, shodlik, zavqlanish, to'la ma'naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go'zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Va nihoyat, go'zallik, Shillerning o'rinli iborasi bilan aytganda, inson ozodligining ramzi sifatida ifoda topadi. Mustaqil Respublikamizda erkin ma'naviyatli shaxs tarbiyasi muhim vazifaga aylangan tarixiy bir sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Go'zallik cheksiz hilma - hilikka ega bo'ladi. Tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali amaliy faoliyatidagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi. Lekin go'zallik qanchalik o'zining rango - rangligi bilan ajralib turmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo'lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy - falsafiy istiloh - go'zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

Inson hamma erda va har qanday darajada mavjud tabiiy hamohanglik bilan to'qnashar ekan, u albatta tabiatning go'zalligidan zavq - shavq oladi, ongli yoki anglamagan holda sevinadi, ma'naviy boylik orttiradi. Ijtimoiy orzuga muvofiq kelish tabiatda insondagi go'zallikdan zaifroq ko'rinadi, ammo bu erda ham o'sha qonuniyat amal qiladi. Inson tabiatdagi u yoki bu davr, u yoki bu ijtimoiy guruh ijtimoiy orzusiga muvofiq keladigan hodisalarni go'zallik sifatida baholaydi. Hamma vaqt tabiatga nafosatli munosabat va tabiatni nafosatli o'zlashtirish uni «insoniylashtirish», tabiat hodisalariga inson talab - ehtiyojlarini, maqsad - orzularini tadbiq etish bilan bog'lanib ketgan. Shu munosabat bilan bu erda atoqli yozuvchilarni tabiat manzaralari tasvirini rango - rang bo'yoqlarda inson qiyofasi, orzu - umidlari, intilishlari bilan uzviy - badiiy bog'lab ifodalashlarini eslatib o'tish o'rinlidir. (Oybekning «Navoiy» romani boshlanishi, Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidagi Otabekning Marg'ilonga borib kelishi badiiy tasviri shular jumlasidandir).

Insonda tabiatga qanday munosabatda bo'lish tuyg'usi birdaniga paydo bo'lmagan, albatta, u sekin - asta, inson zoti va tabiati rivojlanib borgan sari shakllanib borgan, ibtidoiy san'at manzarali tasvirlarni bilmagan, tabiat hodisalarining go'zal yoki hunuk ekanligini baholamagan, qadimgi ovchi - musavvir o'z diqqat e'tiborini asosan tirikchilik manbai bo'lgan narsalar, voqea hodisalarga qaratgan edi. (Omon - Qo'ton, Panjikent va boshqa qoya rasmlarni eslang). O'sha paytlarda inson faoliyatining asosiy turi bo'lgan ovchilik o'rniga u yoki u bilan yonma - yon dehqonchilikning paydo bo'lishi bilan, ya'ni inson atrofidagi tabiatni o'zlashtira boshlashi bilan tabiat boshqacha ijtimoiy orzu mezonlari bilan baholanadi, o'lchanadi, inson uchun tabiatning go'zallik va hunuk tomonlari ayon bo'la boshlaydi. Inson kuch - qudratiga nisbatan tabiat kuchlarining qudratliligi tabiatni estetik o'zlashtirishning dastlabki bosqichini belgilab berdi. Birinchi paytlarda u o'zida go'zallik va foydalilik tomonlarinig teng - barobar bo'lishini o'zida ifodaladi. Odamlar qurg'oqchilikka qarshi mashaqqatli kurash olib borgan davrlarda er yuzida suv bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa go'zallik kasb etadi. Yil davomida ko'pchilik kunlar yog'ingarchilik bilan o'tgan erlarda quyosh eng go'zal hodisa sifatida qabul qilindi. Tabiatdagi go'zallikka manfaat nuqtai nazaridan yondoshish, odamlarning hozirgi kunda ham asalari va oddiy arilarga berayotgan baxosidan qarama - qarshi his - tuyg'ularga ko'rinadi. Bir vaqtning o'zida ular ikkalasi ham jon og'ritib chiqishlariga qaramay, odamlar uchun asalarida go'zallik, oddiy arilar hunuklik tasavvurlari bilan bog'langandir.

Go'zallikni yuksak darajadagi foydalilik tarzida idrok etish tushunarli, albatta. Lekin bunday qarash go'zallikning ko'rinishlaridan faqat bittasini o'z ichiga oladi. Biz yashab turgan asrda insoniyat ulkan vayron qilish qudratiga ega bo'lgan ishlab chiqarish kuchlariga ham ega bo'lib qoldi. Shu narsa aniq - ravshan bo'lib bormoqdaki, tabiatga faqat moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lish butunlay istiqbolsizdir. Insoniyat hozir tabiatni, atrof - muhitni himoya qilib, undan oqil tarzda foydalanib, ayni vaqtda, tabiiy hamohanglik sirlari ichiga yanada chuqur kirib borib, o'ziga uning yangidan - yangi mo'jizalarini ochmoqda, undan ta'lim - saboqlari olmoqda. Insoniyat tabiat ustidan qozongan g'alabalarini mutlaqlashtirib maqtanish tobora tabiat bilan birga o'zaro aloqadorlikda, ittifoqda bo'lish tomon intilmoqda. Bu holatni Chingiz Aytmatov o'zining mashhur «Kunda» «Plaha» romanida juda ishonchli tarzda badiiy bo'yoqlarda ifodalay olganlar.

San'atdagi go'zallik - esa hayotdagi go'zallik in'ikosi bo'lib, uning bitmas - tunganmas manbai - voqelikdir. Go'zallik yaratuvchi ijodkorlardan biri aytganidek, ijodkorning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlay olmagan go'zallikni hamma erda ko'ra bilish qobiliyatiga egadir.

Tabiatga, insonga, insoniy munosabatlarga ko'pincha biz san'atning buyuk ijodkorlari ko'zi bilan qarashga o'rganib qolganmiz. Bizni hayratga soladigan, ajoyib tabiat hodisalari bilan to'qnashganimizda beihtiyor: «Qanday go'zal, Huddi Van Gogdagidek - a | Levitandagidek, Rembranddagidek, Goyyadagidek va h.|» deb hitob qilamiz. Bunday hayratli holatga kelish tasodifiy emas, chunki Van Gog, Levitan, Rembrant, Goyya va b. O'zlari yashab in'ikos etgan tabiatni, uning bag'ridagi odamlar va hayvonalnri umumlashtirilgan, ramziy shakllardagi

ob'ektiv go'zalliklarini ochib namoyish qilganlar va ularni idrok etish bilan bog'liq ko'pchilikka xos kechinmalarni ifoda etganlar.

San'at hayotning beqiyos boyligini va hilma - hilligini, go'zallik va hunuklikni, yuksaklik va pastkashlikni aks ettirishi hamda bu vazifasini aniq estetik orzu mavqeida turgan holda amalga oshirishi lozimdir.

San'atdagi go'zallik ko'p qirrali, ko'p o'lchovli tomonlarga ega bo'lib, ular orasida estetik orzu belgilovchi ahamiyat kasb etadi. San'at go'zal va hunuk hodisalarni aks ettirishi mumkin. Lekin uning o'zi hamma vaqt ham go'zaldir, chunki u o'z tarkibiga ajralmas qism sifatida estetik orzu, ya'ni go'zallikning zaruriy xossasini singdirgan tasavvurni anglatadi.

San'at o'zining barcha taraqqiyot bosqichlarida estetik orzu o'zgaruvchanligini, uning ijtimoiy va milliy jihatlaridan bog'liqligini nozik va sezgir ifodalab bergan. San'atda qaror topgan estetik orzuning asosiy mazmunini inson go'zalligi haqidagi turli davr odamlari, millatlar, ijtimoiy guruhlar tushunchalari bo'yicha uni qanday qiyofada ko'rish istaklari mavjudligi to'g'risidagi tasavvurlar tashkil etadi.

Ko'p asrlar davomida san'at estetik orzuni ro'yobga chiqarishning ikki asosiy yo'nalishini ishlab chiqqan. Uning birinchisi —estetik orzuni ijobiy qahramon timsolini yaratish orqali ro'yobga chiqarish yo'li yo'li tashkil etadi. Ijobiy qahramon - ijodkor estetik orzusining, u orqali jamiyatning namoyandasidir.

Ilg'or orzularni ularga qarama - qarshi hayot hodisalarini tasvirlash orqali qaror toptirishning ikkinchi yo'li birinchisidan kam bo'lmagansamarali va estetik ahamiyatlidir. Buyuk so'z ustalaridan biri san'at orzu |ideal|dagi odamlarni emas, balki ijodkorning o'zida orzu bo'lishini taqozo etadi, deb haq gapni aytgan edi. Shunday orzu bo'lgan taqdirda eng mudhish, hunuk, pastkash hayot hodisalarni tasvirlash ham san'at asarlarining ijobiy estetik qiymatini tushurib yubormaydi.

San'atda ilg'or estetik orzuning bo'lishi san'at go'zalligi bilan bog'liq zaruriy, lekin yagona bo'lmagan omildir. San'at go'zalligi uning haqqoniyligidan ajralmagan holda qaror topadi. Badiiy haqiqat siz san'atda go'zallik bo'lishi mumkin emas. Haqiqat va go'zallik birligi san'at taraqqiyotining qonuniyatlaridan biridir. Mazkur qoidani nozik fahmlash, ifoda qilar ekan, Shekspir o'zining sonetlarida biri: «Go'zallik qimmatli haqiqat bilan yakunlanib, yuz chandon go'zallik kashf etadi», — deb yozgan edi. Go'zallikni hayot haqiqatidan ajratib tashlashga har qanday urinish san'atga halokatli ta'sir qilib, uning faol, o'zgaruvchan ahamiyatini pasaytiradi.

San'atdagi go'zallikni haqli ravishda shaklli va mazmuniy birligi bilan bog'lab mushohada etadilar. Kamolotga, go'zallikka intilish ko'p jihatlardan eng muvofiq shaklini izlab topish bilan bog'liq bo'lib, bu shakl yaratilmish narsaning mazmuniga mos kelishini taqozo etadi. Go'zallik qonunlari bo'yicha yaratish mutanosib shakl izlab topishni o'z ichiga oladi.

Shaklning mazmunga mos kelishi san'atdagi go'zallikning mezoni ekanligi haqidagi qoidaga ba'zi bir aniqliklar kiritishimiz bu erda o'rinlidir. Masala qanday mazmun haqida gap borayotganligidadir. Yolg'on, zararli, g'oyaviy buzuq mazmun o'ziga yarasha ifoda topadi, lekin buning natijasida san'at asari go'zalligining mezonlaridan biri biri sifatida qarash mumkin bo'ladiki, agar gap

ijtimoiy ahamiyatli, g'oyaviy, ilg'or, hayot haqiqatiga ega mazmun haqida borsa hamda unga muvofiq, barkamol shaklda bu mazmun ifodalansa.

Yuqorida bayon qilingan fikr - mulohazalardan hulosa yasab shuni aytish mumkinki, san'atdagi go'zallik, uning kamolot darajasi ko'p tomonli, murakkab tizim birligini anglatib, uning tarkibiy qismlari sifatida tasvir ob'ektining go'zalligi, estetik orzuning haqqoniyligi va ilg'orligi, voqelikni bilishning haqiqiy va chuqur mazmundor ekanligi, badiiy mahoratning yuksakligi namoyon bo'ladilar. Mazkur omillar orasida estetik orzu o'zining haqqoniyligi, demokratikligi, insoniyligi bilan belgilovchi, sistema tashkil etuvchi ahamiyatga molikdir.

2. Ulug'vorlik - nafosatli va axloqiy mezonlar bilan bog'lanib, nihoya darajada yaqqol va bevosita amal qidadigan nafosatli mezoniy tushunchani tashkil etadi.

Ulug'vorlik ko'llami go'zallik ko'lamidek cheksiz va benihoyat. Ulug'vorlik tabiatda, jamiyatda, inson ishlarida, uning faoliyat maxsulotlarida jamlangandir. Ulug'vorlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsalarning, hodisalarning hammasiga xos bo'lgan umumiylik - ularning me'yoriy barkamolligi, shu qadarki, undan tashqarida me'yor qonuni buzilishi mumkin.

Ulug'vorlik kategoriyasi odamlar uchun alohida ahamiyatli hodisalar sirasiga kiradi. Bunday hodisalar mohiyatan shu qadar keng ko'lamliki, ular ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida to'la o'zlashtirilishi mumkin bo'lmaydi, shuning uchun odamlarni faol harakatga, o'zlaridagi ijodiy imkoniyatlarni ishga solishga doimo rag'batlantiradi.

Tabiatda ulug'vorlik baland tog'lar, qudratli sharsharalar, cheksiz okeanlar, moviy mavj urayotgan dengizlar, tubiz osmon va h. k. timsolida namoyon bo'ladi. Bu erdagi umumiylik - ulardagi kengko'lam, ulkanlik, buyuklik, tuganmaslikdir. Tabiatdagi ulug'vorlik insonda o'zidagi zaiflik emas, balki tabiat bilan qo'shilib ketishga intilish hissini uyg'otadi.

Ulug'vorlik hissi o'z - o'zidan nafosatli mazmunga ega bo'lmagan quvonch, hayratlanish, ehtirom, tan berish tuyg'ulvrini o'z ichiga qamrab oladi. Bularga ba'zida qo'rquv ham qo'shiladi, lekin u insonni kamsitmaydi. Balki to'siqlarni engib o'tishga turtki beradi.

Ulug'vorlik hissi umuminsoniy, umumiy belgilari bilan birga ijtimoiy shartlangan, aniq - tarixiy tabiatga ham molik bo'ladi. Ulug'vorlikka, ijtimoiy hayotga tarixiy taraqqiyotga alohida ta'sir o'tkazuvchi hodisalar va jarayonlar ham kiritilishi mumkin. Ijtimoiy hayotda ulug'vorlik bilan qahramonlik, mardlik shu qadar qorishib ketadiki, ularni alohida - alohida mushohada etish ulug'vorlikning asosiy mazmunidan mahrum qilib qo'yish bilan barobar bo'lar edi. Qahramonlikda ulug'vorlikka xos estetik va axloqiy birlik ayniqsa to'la va bevosita namoyon bo'ladi. Xalq fidoiylari, elu - yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning o'zida ham ulug'vor, ham mardona namoyon bo'ladi.

Mustaqilligimizning asoschisi, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning hali sho'ro tuzumi hukm surib turgan sharoitda O'zbekistonning mustaqilligini e'lon qilganilarning bu mustaqillikni mustahkamlash yo'lida ko'rsatib kelayotgan qahromonona faoliyati ustivorlikning ajoyib namunasiidir. Aqlu qahramonlik ko'pchilik omma tushunchasida odatdan tashqari noyob, nodir,

kam uchraydigan hodisalar, lekin u kundalik hayotda, oddiy sharoitda eng sodda, hamma amal qiladigan axloqiy qoidalar doirasida ham sodir bo'lishi mumkinligining o'zi ulug'vor ahamiyat kasb etadi. Bu haqda jahon san'ati tarixida birinchi bo'lib, A.P. Chehov aytgan va yozgan edi. Chehov orzusidagi qahramonlik, mardlik - ulug'vorlikni kundalik halol mehnatda, axloqiy aqidalarga doimiy tarzda amal qilishda o'z qadrini topadi.

Ijtimoiy va nafosatli orzular bilan birga, ba'zi ulug'vorlik va pastkashlik, qiymatlari ham tubdan o'zgarib bosh xususiyatiga egadir. Bundan 30 - 40 yil oldin ulkan zavod, fabrikalar korxonalarining ko'piga bo'y cho'zgan trubalari tutunlari hayotdagi ulug'vorlik tarzida in'ikos etiladi. Insonga bo'ysundirilgan tabiat qiyofasi ijtimoiy ong tarkibiga singdirilar edi. Inson - tabiat ustidan, shaxs - to'da ustidan musobaqada ilg'or uchuvchi, konchi, sut sog'uvchi, olim, ishchi - xalq ustidan mana shularning hamma - hammasi yaqin kunlardagi bizning ulug'vorlik orzuimizni tashkil qiladi. Bularning hammasi boshliqla o'zboshimchaligi, yoppasiga fidoiylik, yalpi va yakka hokimiyatchilik davlatning shaxs usidan buyruq hukmi zaminida vujudga kelgan ijtimoiy tuzum - sistemasining achchiq orzu - mevalaridir. Tabiat ustidan hukmronlik o'rniga u bilan hamohang bo'lish, ayrim o'zmachilik, ommaviy qaror, yalpi rozilik o'rniga ijtimoiy faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantirish burch - vazifalarini ado etish bugungi kundagi ulug'vorlik orzusining asosiy mazmunini tashkil etadi. Ulug'vorlik o'zining har tomonlama ijodiy ifodasini san'atda topadi, uning barcha tur, hil va ko'rinishlar uchun ulug'vorlik mavzui asosiy tasvir ob'ektlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shubhasizki, san'atning turli ko'rinishlari, ulug'vorlik tasvirlashning hilma - hil imkoniyatlaridan foydalaniladi, aytish mumkinki, uning ayrim turlari - qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, qahramonlik fojiasi, qahramonlik musiqa asarlari (simfoniya, oratoriya), me'morchilik va yodgorlik san'ati ko'rinishlari ulug'vorlik mavzusini badiiy o'zlahtirish e'arayonida vujudga kelgandir.

Ulug'vorlik me'morchilikda alohida ahamiyat kasb etadi. Misr piramidalari, Samarqand, Buhoro, Hiva shaharlaridagi me'morchilik obidalar, yunonlarning Parfenoni, rimliklarning Kolizey o'rta asr gotik bosh cherkovlari, rus cherkov me'morchiligining eng yaxshi namunalari, Rossi, Rastrelli kabi me'morlar yaratgan go'zal binolar mustaqil O'zbekistondagi geografik majmualari, o'zlarining salobati, ulug'vorligi bilan kishini hayratda qoldiradi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, ulug'vorlik tuyg'usiga faqat miqyos o'lchovi bilan erishilmaydi. Agar ayrim obidalar (Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr piramidalari va sh. k.) o'zlarining miqyoslari ko'lami bilan hayron qoldirsalar, bshqa o'zining alohida nafisligi, nozik ifodasi, hamohangligi, yuksak ruhlanganligi, atrof - muhit bilan uzviy qo'shilib ketganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. (Go'ri amir, Shohizinda, Ichan qal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bola hovuz machiti va b.) me'morchilik asarlari idrok etilganda insonda o'zgacha ulug'vorlik tuyg'usi vujudga keladi.

3. San'atda ulug'vorlik fojealilik bilan ko'pincha yonma - yon turadi va namoyon bo'ladi, sirasini aytganda, bu iiki estetik kategoriya o'rtasida o'ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, unda umumiylik va farqli tomonlari ham

bordir. Navoiy va Shekspir asarlari, shoshmaqom go'zal me'morchilik obidalari bir vaqtning ham ulug'vorlik, ham fojealilik ruhi bilan sug'orilgandir. Bundan, albatta fojealilik - ulug'vorlik, ulug'vorlik - fojealilikdir degan hulosa chiqarib bo'lmaydi. Masalan, Samarqandning Registon maydonidagi madrasalar, shubhasiz, ulug'vor bo'lishlari bilan birga hech qanday fojeali his qo'zg'atmaydilar. Shekspirning Makbet honim qiyofasi fojeali, lekin u hech ham tomoshabinda ulug'vorlik tuyg'usi tug'dirmaydi. San'atdagi ulug'vorlik badiiy mazmun va shakl barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g'oya o'ynaydi. Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhlangan, muukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san'at asarining buyuklik darajasini belgilab beradi. Bu holat hayotiy haqiqatni qochishga emas, unga xizmat qilishga da'vat etadi.

Fojealilik muammosi har doim falsafiy va nafosatli tafakkur e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Fojealilik tabiati to'g'risida fikr - mulohaza bildirmagan biror bir mutafakkirni topish amri mahol bo'lsa kerak, chunki fojealilikda voqeiy hayotning eng muhim, chuqur ziddiyatlari va to'qnashuvlari hayot va o'lim, ozodlik va zarurat, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy tomonlar namoyon bo'ladilar.

San'atdagi fojealilik haqida fikr yuritganimizda san'atdagi fojeali ohanglar, fojealilik san'ati va nihoyat fojealilik - san'at turi kabi muammolar alohida mushohada qilinishi lozimdir.

Deyarli barcha ulkan ijodkorlar yaratgan asarlarda fojeali ohanglar mavjudligini juda ko'p misollarda ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, M. Shayhzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug'bek» asarlarida fojeali ohanglar boshdan ohiriga qadar sezilib (eshitilib) turadi. Mazkur dramalar maxsus fojea asari sifatida yaratilmagan bo'lsa ham, aslida, fojeali ohanglar ularda ustivor darajada ifodalangandir. Shayhzoda kabi ijodkor fojealilik ruhida voqelikni idrok etishga moyildir. San'atning turi namoyon bo'ladigan fojealilik to'qnashuvlar, qiyofalar, vaziyatlarni eng to'la va chuqur badiiy in'ikos etish ehtiyojidan kelib chiqadi. Sofokl fojea asarlari, Shekspirnikidan, Shekspir asarlari Rasinnikidan, Rasinniki Vishnevskiylikidan qanchalik farqlanmasin, ular o'rtasida umumiylik bari - bir mavjuddir.

Har qanday fojea zaminida alohida fojeali to'qnashuv yotadi va uning eng muhim tomoni bo'lib ko'lamlik, ijtimoiy ahamiyatlilik xizmat qiladi. Gegel fojealilikni bekorga mohiyatli kuchlar to'qnashuvlarining natijasi sifatida ta'riflagan emasdi, chunki bu to'qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi bilan insoniyat istiqboli, taqdiri bog'lanib ketgan bo'ladi. Bu hol fojeaning san'atning falsafiy jihatdan eng hajmli turiga aylantiradiki, unda ijodkorga hayotning insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan tub masalalarni o'z oldiga qo'yib, hal qilish imkoniyatini beradi.

Fojea qahramoni ko'pincha ijobiy tusda tasvirlanadi, u o'z davrining ijobiy orzu - umidlari, u yoki bu qirralarini o'zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug'vor shaxsni namoyon etadi. Lekin fojea to'qimasida boshqa turdagi qahramonlar kam aks ettirilgan bo'lib, Shekspirning Makbet va Riyaard Sh. Brehtning Kuraj - onaga o'hshash qahramonlari o'z taqdirlari bilan tomoshabinda o'ta ziddiyatli his - tuyg'ular qo'zg'aydi. Ular sodir qilayotgan mudhish

kirdikorlari qat'iy norizilik, ayrim vaqtda hatto jirkanish va dahshat vujudga keltiradi. Shuning bilan birga ularga achinasan kishi, chunki qabih, jirkanch sharoit ta'siriga tushib, ular o'zlaridagi go'zal insoniy hislat - fazilatlardan ham begonalashganligini anglaysan.

Odatda fojea mazmunida qahramonning mavjud shart - sharoitlarni tubdan o'zgartirishga faol intilishi namoyish etiladi. Fojea qahramoni bu erda fojeali dramatik harakatning asosiy sub'ekti sifatida amal qiladi. Shuning uchun fojea qahramonning faolligi, o'z orzu - irodasini, hatto o'zini qurbon qilib bo'lsa ham barqaror etishga intilishi uning mohiyatli belgisini tashkil etadi. O'z irodasini o'rnatishga intilishida u tarixiy imkoniyatsizlik bilan to'qnashib, huddi mana shu to'qnashuv, mazkur tarixiy sharoitlarda echimsiz qolib, fojeani yuzaga keltiradi. Yuksak fojea qahramonning mashaqqatli azob - uqubatlari bilan bog'langan bo'lsada, ko'pincha asar uning halokati bilan tugallansada, bari - bir qayg'u va mayuslik emas, balki yashash va kurash istagi, bu kurashda o'quvchi va tomoshabinda o'zining halok bo'lishini bilib turgan inson uchun g'urur tuyg'usi qo'zg'aladi. Inson ulug'vorligini tarannum etish hammadan ham ko'proq va yorqinroq san'atning fojea turida ifoda topgandir. Fojeaviylik san'atda rang - barang uslublarda talqin etilishi mumkin. Bu hol bu janrga xos umumiy xususiyatlarin inkor etmaydi. Fojea uslubining umumiy belgilari qatoriga keng umumlashtirishlarga intilish, aqliy mazmun boyligi, soddalik va yaxlitlik, hayajon va ehtirolarning yuksakligi kabilar kiradi.

Fojea tarixiy davrning burilish paytlarida, eski ijtimoiy aloqalar va munosabatlar barbod bo'lib, eski siyosiy qarashlar, estetik va axloqiy aqida - qoidalar mashaqqatli qayta baholanayotgan sharoitlarda ravnaq topadi. Fojeaning tarixiy shakli - qadimgi dunyo fojeasi (Esxil, Sofokl, Evripid) eski patriarhil tartibotlar emirilib, tarixda birinchi sinfiy jamiyat o'rnatilishi jarayonida vujudga keldi. Unga xos bo'lgan «qismat ohangi» tabiiy va ijtimoiy qonunlar haqidagi tasavurlarni aks ettirdi.

Qadimgi dunyo odamlari tasavvurlarida insonning qudratli «Qismat» oldindan belgilab qo'ygan balo - ofatlari bilan to'qnashuvi uni muqarrar tarzda halokatga olib keladi. Lekin qadimgi fojea asarlarida ifoda topgan fojeali in'ikos etish Qismatning taqdir ustidan hukmronligini anglatmaydi. Yunonlar insonning azob - uqubatlari uchun ma'suliyatni uning o'ziga yuklab, katta mardlikka jur'at etdilar. Zero azob - uqubatlarning tub sabablari inson irodasi va imkoniyati chegarasidan tashqarida ekanligini yaxshi sezgan bo'lsalar kerak. Qismat bilan taqdir insondan kuchli deb uqtirgan holda, yunon fojeaviy san'ati tomoshabinni unga tan berishga emas, balki u bilan kurashishga chaqiradi.

O'rta asrlarda g'arb xristian mafkurasi fojea ruhiga butunlay qarshi kurashgan bo'lib, bu davrda biror - bir arziydigan bu tur asari yaratilmaganligini bilamiz. Vaholanki, bu davrdagi odamlarning mashaqqatlari va azob - uqubatlari avvalgidan kam emas edi. Azob - ug'ubatlarni gunohlar uchun jazo va insoniyatning abadiy nasibasi deb e'lon qilgan xristianlik aslida fojeani ham «ta'qiqlab qo'ygan» edi.

Fojeaning ravnaqi Uyg'onish davrida boshlangan bo'lib, bu vaqtda abadiy va qulamaydigan ko'ringan feodal munosabatlar zamini emirila boshlagan edi.

Insonga, his - tuyg'uli voqealarga mensimay qarash o'rniga insonni ulug'lash, uning cheksiz imkoniyatlarini kuylash insonparvarlik falsafasi qaror topdi.

Uyg'onish davri fojeasi endi yangi tarixiy vaziyatni, qadimgiga nisbatan boshqa shaxs mavqeini ifodalaydi. Agar qadimgi fojeada shaxs hali o'zini jamiyatdan ajratmagan va shuning uchun u yoki bu axloqiy g'oya namoyondasi sifatida amal qilgan bo'lsa, endi Uyg'onish davri fojeasida shihsiy ehtiros va iroda bosh ohang sifatida jaranglaydi. Tarki dunyo azobidan, o'rta asr tabaqaviy cheklanganligidan ozod bo'lgan inson o'z irodasini, o'zligini o'rnatishga unga hali ham qarshi turgan voqelik bilan to'qnashadi, oshqa odamlarning orzuva intilishlari bilan muqarrar kurashga kirishadi. Bu erda qismat va taqdirga endi o'rin qolmaydi, fojea manbai - insonning o'zi, uning er kurrasidagi hayoti, o'z maqsadi sari intilayotgan odamlar to'qnashuvi, ular boshqalarga va o'zlariga nisbatan sodir qiladigan yovuzliklardir. Shunday ziddiyatli qarama - qarshiliklarga boy Uyg'onish davri fojeasi o'zining eng to'la va badiiy qudratli ifodasini Shekspir ijodida topdi.

Shekspirda fojealilik butun hayotni, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni qamrab oladi, lekin ularning barchasida inson shaxsi to'laqonli ravishda ifodalanadi. Shekspir feodal tartibotlarni inkor etish bilan birga tug'ilib kelayotgan tuzumning g'ayriinsoniy tabiatini ham fahmlab olgan ko'rinadi. Unda fojealilik bir tomondan Uyg'onish davrining yorqin insonparvar orzulari, feodal axloq qoidalari bilan, ikkinchi tomondan «yog'li asr» bilan to'qnashuv natijasida, boshqacha qilib aytganda, O'rta asr vahshiyligi va burjua yirtqichligi qotishmasi to'qnashuvlari natijasida vujudga keladi.

Shekspir o'zining fojeaviy asarlarida kuchli, jasaratli, g'ururli, erkin inson timsolini barqaror o'rnatadi. Inson o'z shaxsi erkinligini o'rnatish mumkinligiga ishonadi va uning yanglishishi mana shunda namoyon bo'ladi. Shekspir o'z qahramonlarining o'zligini saqlashga, o'z ozodligini inson ruhini sindirib halokatga sudrayotgan tuzum sharoitida o'rnatishga intilishini ulkan kuchi bilan namoyon qiladi.

Shekspirning boshqa barcha fojeali qahramonlari orasida Hamlet ajralib turadi. Boshqalari Brut bundan mustasno yaxlit tabiatli, o'z ishining haqligi va hatti - harakatlarining huquqli ekanligiga qattiq ishonib, o'z mag'lubiyatlarini fojeali ruh bilan qabul qiladilar. Hamlet bo'lsa o'zining halokatga mahkumligini bila turib, bari bir ohirigacha borish uchun hech narsadan qaytmaydi. «Hamlet» fojeasida esa qarama - qarshi kuchlar to'qnashuvi tashqi muhitdan qahramonning ichki dunyosiga o'tkazilgan. Bu erda Shekspir sahnada bir necha asr keyin keng o'rin egallagan aqliy - ruhiy dramaga yo'l ochib beganligini ko'ramiz. «Hamlet»ning abadiy, mangu sir - ahamiyati, uning so'nmas kuchi va ta'sirchanligi undagi ma'naviy - ruhiy hamda falsafiy boylikning voqelikning ijodiy - yaxlit idrok qilish bilan qaytarilmas darajada qo'shilib ketganligidadir.

Hamlet - insonparvar mutafakkir va ayni vaqtda dadil hamda qo'rqmas jangchihamdir. To'g'ri, u fikr - mulohazalarga ko'p vaqt sarflaydi va sustkashlik qiladi. Lekin bu hol unda tabiati yumshoqligidan emas, balki Klavdiyning o'ldirilishi bilan o'sha vaqtda echimi topilmaydigan «mayib asrni to'g'rilash» vazifasini bajarolmasligiga aqli etganligidan vujudga keladi. Uning axloqiy g'alabasi - bu qo'rqmas inson tafakkurining g'alabasidir, garchand u

qahramonning o'limi evaziga erishilgan bo'lsa ham, buyuk saboq va kelajak avlodlarga vasiyat sifatida idrok qilinadi.

Shekspir yaratgan badiiy qiyofalar faqat keng ko'lamli va aniq - butungina bo'lmay, balki harakatchan va ta'sirchan hamdir. Hamlet bu qatordan mustasno bo'la olmaydi, chunki zo'r berib abadiy savollarga javob izlayotgan tafakkur bevosita amal qilayotgan xulq - atvordan kam harakatchan va kam ta'sirchan bo'lishi mumkin emasdir.

Ch. Aytmatovning «Kunda» romanini ham fojea asari deyishimiz mumkin, chunki uning asosiy badiiy ohangi, undagi ehtirosli to'qnashuvlar ruhi, ulkan hissiy ta'sir kuchi, qahramonlarining taqdiri jihatlaridan o'ta fojeali matnga egadir. Bu roman - fojeada davrimizda keng tomir yoygan ijtimoiy, axloqiy, ekologik muammolar chuqur qo'yigan bo'lib, shu tufayli bu asar kutilayotgan fojeadan ogohlantiruvchi qudratli bong ovozigay jaranglaydi.

Gurjiston kinorejissyori T. Abuladzening butun badiiy ijodi yuksak fojeaviylik ruhi bilan sug'orilgandir. Ayniqsa, uning kino uchligi - «Itijo», «Istaklar shajarasi», «Tavba» filmlarida tarixiy aniqlik va siyosiy keskinlik muammolarini chetlab o'tilgan holda Abuladze o'ziga xos, ko'proq shartli - g'aroyib shakllar bilan hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, halollik va sharmandalik, sodiqlik va vafosizlik kabi insoniyatning butun taraqqiyoti barcha bosqichlarida boshni qotirib, tashvishlantirib kelayotgan abadiy tub hayot muammolarini fojeali tomonlari bilan yaxlit birlikda ifodalay olgan.

Fojea san'ati insoniyatning doimiy hamrohi, umr yo'ldoshi bo'lishi mumkin degan ilmiy tahminlar bir talay, anchagina, chunki u o'z orzularini ro'yobga chiqarish uchun intilishi, kurashi doimo ob'ektiv tarixiy zaruriyat bilan to'qnashadi, insoniyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichda uning muqarrar tarzda imkoniyatlari tarixiy cheklanganligi san'atda fojeali ohanglar to'g'ilishiga bitmas - tuganmas zamin vazifasini o'taydi. Lekin shuni ham ilova qilib qo'yish zarurki, chin fojea asari yaratish kamdan - kam ijodkorga nasib qiladigan nodir qobiliyat mahsulidir. U fojea ijodkoridan falsafiy chuqur, ko'lami keng tafakkurni, o'zidan «Asrning barcha holati»(Gegel) ni chig'rig'idan o'tkazishga qobil shaxs ehtiroslarining yuksakligi bilan chambarchas bog'lashni talab etadi, bu esa har qanday ijodkorning ham qo'lidan kelavermaydi.

4. Kulgililik. Insonning dunyo - voqea - hodisalariga o'ziga xos munosabatlaridan biri - dunyoga kulgili nigoh bilan qarashdir. Bunday qarashni mavjud voqelik va uning beo'hshov tomonlari to'ldiradi.

Barcha tadqiqotchilar bir ovozdan kulgililik kategoriyasining murakkabligi va uni tushunchalar sistemasini anglab, in'ikos etish juda qiyinligidan noliydilar va ogohlantiradilar. Masala shundaki, kulgi qo'zg'aydigan hodisalarning benihoyat ko'pligi, eng muhimi, kulgililik ko'lami hamda chegarasining o'ta harakatchan, qo'nimsiz, o'zgaruvchan bo'lishi natijasida nima, qachin, qaerda, qanday sharoitda kulgi qo'zg'aydiyu, nima, qachon, qaerda, qanday sharoitda kulgini to'xtatadi yoki umuman gulgiga olib kelmaydi degan savolga bir mazmunda javob topib bo'lmaydi. Kulgililik ta'rifi, ilmiy tushunchasiga nisbatan ishlab chiqilgan nuqtai najarlar, fikr - mulohazalarning o'ta hilma - hilligi, rango - rangligi shundan kelib chiqqandir. Kulgililikka nisbatan mavjud bo'lgan qarashlarning hilma - hilligi, tabiiyki, nafaqat narsa, hodisa bilan

bog'lanibgina qolmay, balki uning ijtimoiy aloqadorligi, go'zallik va kulgililik tushunchalarining u yoki bu talqini bilan bog'langanligidir.

Kulgililik tushunchasi talqinining har biri odatdagidek o'zining aniq, oqil mag'ziga ega bo'ladi, kulgililikka haqiqatda ham xos bo'lgan ba'zi tomonlarini ochib beradi, lekin shu bilan birga bir tomonlamalik kasaliga uchrab, kulgililikning qandaydir bir tomoninni bo'rttirib, haddan tashqari oshirib yuboradida keyin uni kulgililikning mutloqqoidasiga aylantirishadi.

Kulgililik boshqa nafosatli hodisalar sngari faqat ob'ektiv tomonga ega bo'lmay, sub'ektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgililikning sub'ektiv tomoni - keng ma'nodagi hazil (yumor) tuyg'usidir. (Moler hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi.) Kulgililikning sub'ektiv tomoni bo'lgan hazil tuyg'usi shaxsning tabiiy va erkin, bevosita idrok etish natijasida hilma - hil kulgili beo'hshovliklarni ko'rib, anglab, ularga kulgi bilan javob berish qobiliyati ifodasidir. Hazil tuyg'usi juda murakkab aqliy tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, uning his - tuyg'u va aql madaniyati, orzu - umidlari matni va tabiati namoyish etiladi. Xalq orasida keng tarqalgan: «Do'stlaring kimligini menga aytsang, sening kimligingni men aytib beraman» naqliga qiyos qilib, bu erda biz ham: «Nima haqda kulayotganingni menga aytsang, sening kimligingni men aytaman» deyishimiz mumkin bo'lar edi.

Kulgi u yoki bu darajada o'z manbai va o'z namoyondasi bilan birga yaxlit birlikni tashkil etadi. Insonning turli sabalarga ko'ra kulgisi qistaydi. Masalan, to'yimli va mazali ovqatlanishdan rohatlanib kuladigan odamlar ham uchraydi: chunki bunday odamlar uchun kulgi hayotni sof fiziologik - jismoniy idrok etish ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Bevosita kulgililik bilan bog'liq bo'lgan kulgi masalasiga shuni aytishimiz kerakki, u biror bir hodisaning, birinchi navbatda, insonning tashqi ko'rinishi bilan uning asl mohiyati o'rtasidagi nomuvofiqlik ziddiyati, boshqacha aytganda, amaldagi voqelik bilan yuksak estetik orzularga mos kelishi kerak bo'lgan voqelik o'rtasidagi muhim tafovutlar, beo'hshovliklar, kelishmovchiliklarni tabiiy anglash natijasida vujudga keladi.

Ba'zi - bir odamlar o'zining pastkash, johil, loqayd, hudbin mohiyatini tashqi viqor, oliftalik, takabburlik bilan «bezab» ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bunday odamlarni uchratganda ham kulish, ham quvonish mumkin. Kulishimiz manbai bo'lib bu odamlagi mohiyat bilan ko'rinish o'rtasidagi beo'hshovlik bo'lsa, quvonishimiz sababi mazkur haqiqatni anglashimizdan, haqiqatni yolg'ondan ajratish qobiliyatimiz mavjudligini kelib chiqadi. Bu nisbatning yana bir (o'ziga xos kulgili) tomoni shundaki, bizning quvonchimizga «sog'lom» hudbinlik hissi ham qo'shilib ketishi mumkin, chunki biz mazkur odamning asl mohiyatini anglash qobiliyatimiz bilan ma'naviy - insoniy jihatdan u odamdan yuqori turish o'yiga ham kelishimiz bizga yoqadi. Kulgi shu tariqa insonni ruhan ko'taradi, unga insoniy g'urur tuyg'usi bag'ishlaydi. Qo'rquv bilan kulgi bir - biriga o'ta qarama - qarshi tushunchalar bo'lib, agar inson yaramas va hunuk hodisalar ustidan kulishga o'rganib olsa, u bu illatlardan qo'rqishni tark etadi va ular bilan kurashga bel bog'laydi.

Kulgi o'z tabiati jihatidan demokratik mazmunga ega bo'lib, barcha odamlarni bir - biriga qovushtirib baravarlashtiradi, chunki kulishayotgan odamlar

o'zaro tenglashadilar. Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vositasigina bo'lib qolmay, balki insonning kuch - qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgi beqiyos rango - ranglik, hilma - hil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, hushfe'l hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzogacha bo'lgan keng doirada amal qiladi.

Kulgililik o'zining barcha hilma - hil ko'rinishlari boyligi bilan san'atning me'morchilikdan boshqa deyarli hamma turlarida namoyon bo'ladi, lekin o'zining eng to'la bo'lgan estetik ifodasini komediyada topadi.

Komediya mavzuini hayotdagi va insondagi beo'hshovliklar, nomutanosiblikdan oladi. Kulgililikning namoyon bo'lish shakllari hilma - hilligi ularning san'atda hilma - hil tarzda aks etishlarini keltirib chiqaradi. Komediya asarlari turlarining hilma - hilligi, rango - rangligi mana shundan kelib chiqadi.

Komediya bilan kulgi egizaklardek bir - biridan ajramaydigan tushunchalardir. Kulgi komediyada tasvirlanayotgan voqea - hodisalar mohiyatini ochib berishning hal qiluvchi vositasi, tasvirlanayotgan ob'ektga nisbatan estetik baholashning va muallif munosabati ifodasining asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Komediya san'atida kulgini asosiy estetik vosita qilib ishga solish uning ijtimoiy ahamiyatliligini pasaytirmaydi, chunki kulgi dunyoning barkamol emasligini ta'kidlab qolmasdan, balki uni qayta qurib yangilashni ham ko'zda tutadi.

Kulgingin' komediyada o'ynaydigan maxsus roli ko'p jihatlardan uning o'ziga xos ijtimoiy burch - vazifalarida ifoda topadi. Komediya, birinchi navbatda, badiiy tanqid va o'z - o'zini tanqid qilishning o'ziga xos shaklidir. Komediyalarning asosan tanqidiy yo'nalganligini ko'pincha o'ta soddalashtirib, komediya yomon xulq, yomon odam, yomon hodisalarni to'g'ridan - to'g'ri, bevosita tuzatishga, yaxshilashga olib keladi deb tushunadilar va tushuntiradilar.

Ob'ektiv kulgililik kulgi quroli bevosita o'zlariga qarshi qaratilgan odamlarga, ular fahm - farosatiga etib bormasligi haqida gapirganida Lessing haq fikrni aytgani shubhasizdir. Komediyaning bosh vazifasi utilitar - maishiy mohiyati emas, balki estetik yo'nalishdadir, ya'ni komediya axloq - odobdan saboq berib qolmay, hayotdagi kulgulilikni ilg'ab olishdagi qobiliyatini o'stiradi, odamlarda hazil tuyg'usi kabi qimmatbaho fazilatni ham rivojlantiradi.

Komediya asarlarining buyuk ijodkorlari nafosatli baholarining aniqligi va to'g'riligi bilan ajralib turadilar. Ular hech mahal achchiq, savag'ich, istehzoli kulgini faqat mayin hazil va muruvvatli tabassumga loyiq hodisalarga nisbatan ishlatmaganlar va aksincha, ayovsiz keskin qoralanishi lozim bo'lgan hodisalarni tasvirlayotganlarida mayin hazil va muruvvatli tabassumdan butunlay yuz o'giranlar.

Kulgilining badiiy shakllari orasida mashara (satira) alohida o'ringa ega. Umumestetik ma'noda mashara voqelikni badiiy tasvirlash turi bo'lib, unda hayotning salbiy hodisalari ustidan kulish - bunday hodisalar asosida yuksak insonning orzulariga zid ekanligini bo'rttirib ko'rsatish maqsadi yotadi. Mashara san'ati har hil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Unga lirika ham, epos ham, drama ham yot emas. Shuning bilan birga ifoda kuchining o'ziga xos maqsadlari va vositalari bilan farqlanadigan san'atning o'ziga xos alohida turini tashkil qiladi.

Mashara markazida doim hayotning salbiy voqea - hodisalari joylashgan bo'lib, butun fosh qilish kuchi ularga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun komediya san'atiga xos tanqidiylik yo'nalganlik masharada eng to'la va eng aniq ifoda topadi. Masharaga asosan kulgi fosh qiladi, lekin u bu erda qahr - g'azabdan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Mashara eng hajmli komediya turlaridandir. Atoqli san'atkorlar Petroniy, Yuvenal, Swift, Gogol, Soltikov - Shgedrin, Bulgakov va boshqalarning asarlarida mashara umumbashariy muammolarni ko'tarish darajasiga chiqadi va bu tomondan fojia bilan yaqinlashadi. O'z maqsadiga erishish yo'lida u voqelikni anglashning barcha estetik shakllaridan foydalandi va birinchi navbatda, kulgilining barcha turlari - zardali hazil tuyg'usi, achchiq kinoya, nozik hazil tuyusi kabilan ishga solinadi. Mashara engillik, o'tkir fikrlilik va hazildan istisno bo'lmay, ular bilan qo'shib ketgan holda fosh qilish burchini og'ishmay amalga oshiraveradi.

Mashara badiiy umumlashtirishning alohida turi sifatida mumkin qadar keng mushohadalarga etiladi. Shu boisdan mashara ob'ekti bo'lgan kimsalar gohida yirik ramziy umumlasmalar darajasiga ko'tariladi. Bekorga biz gap orasida Tartyuf, Qori Ishkamba, Hlestakov, Iudushkalar nomini qistirib o'tmaymiz, chunki bu hollarda ustida gap borayotgan odamning ularga o'hshagan hislatlari borligiga ishora qilib, uzoq vaqt ijtimoiy hayotda o'z mavqeini saqlashga qodir bo'lgan tabaqalar qiyofalarini masxaraomuz umumlashtirishga uringan bo'lamiz.

Masxara mazmunining xususiyati uning mubolag'a (giperbola) va g'aroyibot hajvi (grotesk) kabi keskin bo'rttirish vositalaridan kelib chiqadi.

Bugungi kunda masxara kerak bo'lmay qoldi yoki u o'zining ayovsiz, murosasiz, o'tkir ayblovchi, fosh qiluvchi yo'nalishidan «mayin masxara», «yumshoq masxara», «muruvvatli masxara» yo'nalishiga o'tib amal qilaversin degan fikr - mulohazalar keng tarqalgandir. Lekin masxara o'tkirligi va ayovsizligi uloqtirib tashlansa, unda uning joni ham birga chiqib ketadi hamda uning hech kimga keragi bo'lmay qoladi. Jamiyat rivojlanib borishi jarayonida masxara kulgisining ob'ekti bilan birga uning sub'ekti ham o'zgarib boradi. Hozirgi davrda umuminsoniy maqsad - manfaatlarning ustivorligi umuminsoniy qadriyatlar vositasida jahon xalqlari hayotidan tobora mustahkam o'rin egallab borayotgan ekan, insoniyatning mana shu bosh taraqqiyot yo'lini to'sadigan barcha chirik, eskirib qolgan, qotib qolgan narsalar, voqea - hodisalar, odamlarning o'tkir va hayotchan masxara ob'ekti bo'lib qolaveradi desak, bu sohada ijod qilayotgan yozuvchi, musavvir, dramaturg, shoirlarga - masxara yaratuvchilarga ham ehtiyoj katta bo'ladi.

Kulgili san'at turlari va hillari orasida hazil tuyg'usi (yumor) ham alohida o'ringa ega. Uning ishtirokisiz biror - bir kulgililik turi amal qila olmaydi, u eng buyuk qadriyat sifatini tashkil etib, unga moyillik ko'rsatgan odamlar, odatda, barcha ulug'vorlik, axloqlilik, olijanoblilik his - tuyg'ularining naqadar buyuk va qadrli fazilatlar ekanligini ham chuqur anlaydilar. Hayot ikir - chikirlari, kamchiliklarini tanqid qilayotgan ijodkor hazil tuyg'usining yuksak sifat darajasida namoyon bo'lishi hamda shaxs ma'naviy yuksakligining ko'rsatkichi deb insonning nuqsonlar, kulgili tomonlarini faqat boshqalardagina emas, balki

o'zida ham topa bilish va ko'ra bilish qobiliyatini ko'rsatadi. Hazil tuyg'usi o'zida tanqid bilan o'z - o'zini tanqidni uzviy bog'laydi. U voqelikka hissiy munosabatning alohida shakli sifatida masxarali komediya asarining tarkibiy qismi va ifoda vositasi burchini ham ado etishi mumkin.

Hazil tuyg'usi va voqelikka masxarali munosabat - bu kulgililikning har hil shakllaridir. Lekin hazil ham ijtimoiy - kulgili hayot tomonlarini masxara kulgisidan kam bo'lmagan darajada ochib berishga qodirdir. Faqat bunda hazil ob'ekti g'azablik qoralashdan ko'ra ko'proq achinish, yo'q qilib yuborishdan ko'ra ko'proq yordam ko'rsatish ob'ektiga aylanadi. Shekspir, Lope de Vega, Chehov kabi yozuvchilarning komediya asarlarida hazil tuyg'usi masxara kulgisidan ustun darajada ifodalangan, lekin shunga qaramay, ularning hazili o'tkir kuchga ega.


Komediyaqa inkor qilish, tanqid etish orqali ezgulik, yaxshilikni qaror toptirishda xizmat qiladi. Arastuning biz yuqorida keltirgan komediya eng tuban odamlarni o'z tasvir ob'ekti qilib belgilashi haqidagi fikri tarixiy cheklanganlik tabiatiga egadir. Qadimgi yunonlar Arastuning zaharli, achchiq masxaralari bilan bir qatorda o'z matni markazida kulgili niqoblar shovqin - suronlar bilan o'ra olingan, ajoyib - g'aroyib yosh yigitchalar joylashritilgan Menandr komediyalarini ham sevib tomosha qilar edilar.

Shekspir komediyalari ham ko'proq ijobiy qaror toptirish tabiatiga ega bo'lib, masxara ularda ko'makchi vazifalarini bajaradi. Shekspir asarlarida kulgililik odamlarning oddiy tabiiy zaifliklari - kamchiliklarini nihoyat darajada mubolag'a qilish orqali keltirib chiqarilgan his - tuyg'ulari namunasi edi.


Shekspir kulgisining hayotbahsh ruhini xalq bayramlari, tomoshalari, yig'inlarining o'yin - kulgi hukmron bo'lgan hislatlaridan ildiz otgan xosila sifatida qarsak yanglishmagan bo'lamiz, chunki uning komediyalaridagi hazil va masxara uyg'unligi aslida asaratdan bo'shatilgan ijodiy kuchlarning mavj urish o'yinining ifodasidir.

Shekspir komediyalarining markazida insonni ulug'laydigan, tabiiy va sog'lom tuyg'u bilan to'lgan sevgi turadi. Ularning ko'pchiligidagi kulgililik inson tabiatini buzadigan shartlilik, rasm - odatlar ustidan sevgi g'alabasi mavzui asosiga qurilgandir. Mana shu munosabat bilan istiqlool yo'lida amal qilayotgan o'zbek komediya san'ati uchun Shekspir badiiy an'alarining ahamiyati beqiyosdir. Haqli ravishda kulgining fosh etuvchi rolini ta'kidlar ekanmiz, uning kam ahamiyatli bo'lmagan boshqa qirralari tarbiyalovchi kulgi, ko'ngilni yumshatadigan va bo'shatadigan kulgi, achinish va mehr - shafqat ko'rsatish kulgisi, hayotbahsh va do'stona kulgi ko'rinishlari mavjud ekanligini unutmasligimiz kerak. Kulgililikning barcha shakllari ular qanchalik erkin namoyon bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lib borsalar, shunchalik ko'p ahamiyat kasb etadilar. Rivojlangan hazil tuyg'usi, hayotning kulgili tomonlarini nozik ilg'ab olish va fahmlash qobiliyati rivoji borgan sari shaxsning ma'naviy - ruhiy sog'lomligi hamda barkamolligi ko'rsatkichi bo'lib boraveradi.


Mavzuga oid o'quv – ko'rgazmali materiallar.



4.1 - ko'rgazma.



4.2– ko'rgazma.



4.3– ko'rgazma.

“Debat ”usulini qo'llash qoidalari.

1. Debatlarda mavzu bayoni rezolyusiya shaklini olmog'i lozim. Ma'lumki, rezolyusiya har doim mavjud holatni o'zgartirishni talab etadi.
2. Mashg'ulotga mahalliy muttahaslarlardan (olim, vrach. muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi.
3. Debatda talabalar ikki guruhga ajratiladi: rezolyusiyaning qo'llab quvvatlovchilar va ularga qarshi chiquvchilar. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi yordamchi tayinlaydi.
4. Dastlab rezolyusiyaning qo'llab – quvvatlovchilarga so'z beriladi, ulardan konstruktiv argumentlarni bayon qilish so'raladi. Ular o'z fikrlarini etarlicha dalillar bilan isbotlab beradilar. Iloji bo'lsa so'zga chiquvchilar tartibini har bir guruh a'zolari uchun oldindan belgilash kerak. O'qituvchining yordamchisi so'zga chiquvchi uchun vaqt tugaganligini eslatib turadi.
5. O'qituvchi birinchi guruhning ikkinchi talabasiga so'z beradi, so'ngra ikkinchi guruhning ikkinchi talabasi o'z fikrlarini rezolyusiya bo'yicha bayon qiladi.
Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma – navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.
6. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchiga qarshi tomonning dalillarini inkor etish va ular tanqidiga javob berish jarayoni davom etadi.
7. Munozara davomida yangi dalillarni keltirish mumkin emas. Bahsni har doim rezolyusiyaga qarshi tomon vakillari boshlaydi.
8. Talabalar bu bosqichda rezolyusiyaga nisbatan ma'lum mavqeni egallashni bayon qilishadi. O'qituvchi bu sabablarni auditoriya doskasiga yozishi mumkin. Talabalar bu savollarga tegishli javob berishlari ham mumkin.

9. Debat dars so'ngida talabalar qarshi tomon qabul qilgan rezolyusiyaning joriy etilishi natijasini baholashi kerak. Shuningdek, har ikki tomondan o'rta tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun foydali yoki zararli ekanligi ham muhokama qilinishi mumkin.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar.

1. “Estetika” fani nimani o'rganadi?
2. “Estetik ong” , “estetik baho” tushunchalarini izohlang?
3. Nima uchun go'zallik estetiakning asosiy tushunchasi hisoblanadi?
4. Ulug'vorlik estetik kategoriyasini insonlarga nisbatan qo'llash mumkinmi?
5. Estetikaning asosiy mezoniy tushunchalari qaysilar?
6. Estetik ong tuzilmasiga nimalar kiradi?

Beshinchi seminar mashg'uloti texnologik xaritasi.

(“Tanqidiy fikrlash” usulini qo'llagan holda)

Mavzu: San'at asarini nafosatli idrok etish va shaxs nafosatli tarbiyalari.

Seminar rejasi. 1. San'at va bilish nazariyasi. 2. San'at turlari. 3. She'riyat va badiiy adabiyotning inson ma'naviy rivojlanishidagi o'rni.		
<i>Maqsad:</i> Talabalarni mavzuga oid bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.		
<i>O'quv faoliyat natijasi.</i> <u><i>Talaba bilishi kerak:</i></u> • San'atning paydo bo'lishini; • San'at turlari va ularning inson hayotidagi o'rnini; • San'atdagi go'zallikni his qila bilish; • San'at asarini estetik baholash; • She'rni badiiy va ifodali o'qishni; • Badiiy adabiyotni sharhlash va mustaqil fikr bildira olishni.		
<i>Mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar.</i> 1. O'quv materiallari bilan tanishish. 2. Ma'ruza matnini o'qish. 3. Quyidagi o'quv adabiyotlari bilan tanishish: ▪ Vahob Rahmon “Badiyat javhari”. “Tafakkur” jurnali 2 - son.2006 yil 64 - 70 betlar. ▪ N.Ziyoyiv “Sanat tarixi” T.: “Fan” 2004 yil. ▪ A. Azizova “Ranglarda aks etgan nafosat”. “Tafakkur” jurnali. 2006 yil 1 - son. ▪ M. Yusuf. Sherlar to'plami. “Ma'naviyat” nashriyoti 2005 yil.		
Tekshirish usuli: Og'zaki savol – javob. Reyting baholash.	Maksimal ball: 2	O'qituvchi imzosi:

Mavzuning qisqacha mazmuni.

Berilayotgan materiallardan fundamental ma'lumot sifatida foydalanish va albatta texnologik xaritada ko'rsatilgan qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilish kerak.

1. San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql - idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. san'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. O'zbekiston hududida, Ispaniya, Sahroi Kabir va boshqa bir qator qadimiy o'lkalarda uchraydigan qoyalarga o'yib tushirilgan hayvonlarning tasvirlari hozirgi davr nuqtai nazaridan ham nafosatli qiymatga ega. Bu yodgorliklar badiiy faoliyat kurtaklari endigina ko'rinib kelayotgan inson nafosatli faoliyatining natijalari edi.

San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiylarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rang - rang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlari vazifalariga ko'ra u alohida jamiyat birligini ifodalaydi. San'at jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini rag'batlantiradi.

San'at bilan ijtimoiy hayotni bog'lab turadigan juda ko'p vositachi xalqlar mavjud. har qanday badiiy hodisa - muayyan asar, uslubiy yo'nalish bo'lsin, ular vujudga kelishi va rivojlanishida diniy, axloqiy amallarning ta'sir kuchi darajasi bilan belgilanadilar, baholanadilar, o'lchanadilar.

San'at taraqqiyotining nisbiy mustaqilligi shu bilan izohlanadiki, jamiyat badiiy ravnaqining darajasi hamma vaqt ham uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga mos kelavermaydi. San'atning taraqqiyoti yoki tanazzuli, uning u yoki bu turi, ko'rinishining yorqin ifoda topishi aniq ijtimoiy munosabatlar tabiatiga, muayyan guruhli kuchlar nisbatiga, mafkuraviy hayot xususiyatlariga, jamiyatda shaxs egallab turgan maqomiga, albatta, bog'liqdir. Masalan, qadimgi dunyo san'atining ravnaqi bir qator shart - sharoitlar va omillarning bir - biriga mos kelishi va o'ta qulay vaziyatning vujudga kelishi orqasida qaror topdi. San'atning jamiyat hayotida nisbiy mustaqil amal qilishi vorisiylik qonuniyatining namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq. Vorisiylik faqat san'atga xos bulgan hodisa emas. U ijtimoiy ongning hamma shakllariga taalluqlidir. Vorisiylik jamiyat moddiy asosi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy va huquqiy ong sohalarida ko'proq namoyon bo'ladi.

Vorisiylik ma'naviy hayotning hayotning barcha jabhalarida mavjud. Ammo, hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi iqtisodiy zamindan ancha yiroq bo'lgan san'atda vorisiylik yorqin, to'la, har tomonlama tarzda namoyon bo'ladi. San'atning hamma qirralari - mavzu yo'nalishi, g'oyaviy - ruhiy qoida va ohanglari, ijodiy aqidalari, uslubi, tur va shakllarining ifodali vositalari vorisiylikdan ayniqsa bo'rtib ko'rinadi.

Ijtimoiy ongning boshqa shakllarida bo'lganidek, san'atda ham bilish va mafkura bir - biri bilan chirmashib, o'zaro bog'lanib ketgan. Turli tarixiy bosqichlarda va san'atning turli ko'rinishlarida bilish va mafkura o'zaro mutanosiblikda amal qiladi. San'atning bilish jarayonidagi burch - vazifasi badiiy adabiyot vositasida yaqqol ko'zga tashlanadi. San'at bilishning alohida turi sifatida mushohada etilganda, odatda, badiiy adabiyot asarlariga suyaniladi. Musiqaning bilish - anglash imkoniyatlari badiiy adabiyotga nisbatan biroz cheklanganligi ma'lum, lekin voqelikni alohida noziklik, sezgirlik, samimiyluk ruhida in'ikos etishda musiqaning ahamiyati katta, u odamlarning ruhiy holatini, ichki dunyosini, kechinmalarini, his tuyg'ularini betakror nozik ohang - kuylarda ifodalaydi. Huddi shunga o'hshash burch - vazifani me'morchilik ham bajaradi. Odamlar ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq san'at turi bo'lgan me'morchilikda davr xususiyatlari va belgilari, odamlar maishiy hayoti, did - farosatlari, umid - orzulari aks etadi.

San'at o'z mavzui doirasida bo'lsa ham fan singari beqiyos bilish - anglash imkoniyatlariga ega. Lekin san'atning badiiy bilish - anglash jarayoni o'ziga xususiyatlar doirasida sodir bo'ladi. San'at voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to'la qonli, jozibali anglashga yordam beradi.

Ijtimoiy ongning har bir muayyan shakli voqelikning bir tomonini aks ettiradi. San'at ijtimoiy ong shakli sifatida voqelikni badiiy bilish - anglash jarayonida uning voqelikni badiiy tasvirli shaklda anglash manbalaridan biri bo'lib, inson maydonga chiqadi. Insonni in'ikos etish, bilish - anglash masalalari bilan fanning juda ko'p sohalari shug'ullanadi, lekin inson muammosiga san'at va fan sohalari turlicha yondoshadilar. Insonni atroflicha o'rganish jarayonida tabiiy va ijtimoiy fan tarmoqlari ham mushohada etadilar; Masalan, tabiiy fanlar insonni biologik mavjudot sifatida o'rganib in'ikos etsa, ijtimoiy fanlar insonni shaxs sifatida tahlil qiladi. Ammo, ijtimoiy fanlar ham inson shaxsiga o'z vazifalari nuqtai nazaridan yondoshadilar: ruhshunoslik insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini o'rganadi: iqtisod nazariyasi insonga muhim ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraydi: siyosatshunoslik insonning siyosiy munosabatlar jarayonidagi o'rni masalasi bilan shug'ullanadi: axloqshunoslik insonni xulq - atvori qoidalari bilan birga tadqiq etadi: estetika - insonning voqelikka estetik munosabatini ochib beradi va h.

San'at uchun esa inson o'zining biologik, ruhiy, ijtimoiy - guruh, milliy - ajdodiy va sof yakka holdagi barcha belgi va xususiyatlari jihatidan o'zaro bog'lanib, chirmashib ketgan yaxlit, yagona, nodir, qaytarilmas shaxs qiyofasida bosh mavzu bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikning barcha jozibali boyliklarini, ko'rkamligini qamrab olishga qodir. Mazkur voqelik esa ijtimoiy shaxs bo'lib etishgan insonning tub ehtiyoj va manfaatlari in'ikosi sifatida ifodalashi lozim.

Fan va texnika inson hayotida qanday ulkan ahamiyat kasb etishidan qat'iy nazar, san'atda ustivor ahamiyatli maqomga ega bo'lishi mumkin emas. San'atda fan odamlar uchun yaratiladigan insoniy faoliyat timsoli bo'lib xizmat qiladi. Mabodo ilmiy - texnik, ekologik, boshqaruv muammolari, his - tuyg'ulari, ma'nodan mahrum etilsa, u erda san'at bo'lmaydi. San'at hissiyotlar, tuyg'ular bilan tirik, u hissiy ta'sir etish, ibrat ko'rsatish, tarbiya berish qudratiga egadir.

San'atda inson hamma vaqt ham bevosita ifodalanmaydi. Masalan, san'atning manzara tasviri yoki natyurmort turida inson qiyofasi ifodalanmaydi. Bu hol inson mazkur san'at asarlarida aks etmaydi, degan emas. Manzara tasviri inson his - tuyg'ularining eng nozik va eng jozibali qirralarini namoyon etadi. Masalan, Hrol Tansiqboev, Ne'mat Qo'ziboev, Rahim Ahmedov, Ro'zi Choriev kabi musavvirlarning manzarali tasvir asarlari orqali insonda yorqin mayuslik, beozor shodlik, tashvishli ehtiros, ko'tarinki ruh, hayotbahsh orzu - umidlar, ijodkorlik va yaratish his - tuyg'ulari uyg'otadi. Bu asarlarda insonda his - tuyg'ular, hilma - hil kechinmalar qo'zg'ab, inson diliga, uning ruhiga ta'sir o'tkazish bilan san'at va inson yaxlitligini, hamohangligini paydo qiladi.

Tasviriy san'atning natyurmort turi ko'proq jonsiz narsalar - mevalar, gullar, taomlar, ichimliklar tasviridan iborat bo'lib, ularda odam aksini ko'rmasakda, bu hil asarlar mavzui baribir inson, uning hayoti haqida ekanligini anglaymiz. Golland musavviri Vilem Hedaning «Somsa bilan nonushta» natyurmortida o'ta mahorat bilan chizilgan qadah, g'ijimlangan dasturhon, unga to'kilgan may tasvirlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, nafaqat shisha sathini, dasturhon sifat ko'rinishini, ehtiyotsizlikdan to'kilgan mayni, balki inson iliq nafasini, uning qo'llari iazkur manzaraga taalluqli ekanini ochiq - oydin his etamiz. Nihoyat, bizni hozirgina sodir bo'lgan inson dramasini sezish orqali vujudga kelgan qandaydir tashvishli bir hol chulg'ab oladi.

Shunday qilib, san'at nafaqat insonning o'zini, balki uning idrok etishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni, voqea - hodisalarni aks ettirib, hissiy tuyg'u keltirib chiqaradi. san'at insonni bevosita aks ettirmasada, biro narsaga inson munosabatini faol ifodalaydi, biror narsani inson mezoni bilan baholaydi. Baholashda esa hamisha inson mohiyatini anglashga qaratilgan bilish holati mavjuddir. San'at narsalarda, tabiat hodisalarida inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'no izlaydi, qidirib topadi va ishga soladi. San'at voqelikning har qanday hodisasida ijtimoiy ma'no paydo qiladi.

San'atning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini belgilash ko'p jihatlardan uning mafkuraviy tabiatini anglash bilan bog'liq. Ammo san'atni mafkuradan butunlay ajratib mushohada etmaslik hamda san'at bilan mafkurani bir - biriga qorishtirib yubormaslik lozim.

San'at ham, mafkura ham tarixiy hodisa, lekin san'at mafkuradan oldin vujudga kelgan. Mafkura esa qarama - qarshi ijtimoiy guruhlar qarashlari natijasida qaror topadi. Shu bois ijtimoiy guruhlar mafkurani o'zlarining qarashlari ifodasi sifatida ta'riflaydilar. Zero, mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh faoliyatining maqsad - yo'nalishlarini nazariy asoslab, mazkur maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini belgilab beradi. U ijtimoiy guruhlarining aniq

yo'nalishiga mo'ljallangan hatti - harakatlari va xulq - atvorlari dasturini ishlab chiqishga g'oyaviy - nazariy asos bo'lib izmat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, san'at hech vaqt u yoki bu mafkura, u yoki bu qarashlar ifoda vositasi bo'lib qololmaydi. San'at umuminsoniy manfaatlar va intilishlarning to'g'ridan to'g'ri ifoda vositasidir. har qanday mafkura umuminsoniy bo'lsagina san'at mag'zidan o'rin oladi. Mafkuraning san'at mag'ziga kirib, singib borish jarayoni ko'p shakllar va yo'nalishlarga ega. Ijodkor dunyoqarashi umuminsoniy estetik omillar ta'siri ostida shakllanadi.

Mafkura kishilarning diniy - axloqiy estetik qarashlari tizimida estetik orzuga aylansagina san'atda ro'yobga chiqadi. Estetik orzuda estetika va mafkura qirralari yaqindan chirmashib ketgan bo'ladi. Voqelik mohiyatiga kirib borish estetik orzuning tabiatiga, uning haqqoniyligiga bog'liq. Mafkura san'atda badiiy aks ettirish mavzui sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Muayyan jamiyat hayoti san'atda har tomonlama ifodalanadi. San'atda mafkura ma'naviy hayotning tarkibiy qismlardan biri bo'lib xizmat qiladi. San'at mafkuraviy omillar bilan qo'shilib ketadi va o'ziga xos mafkuraviy qiymatga aylanadi. San'at mafkuraviy jarayonlar sohasida jamlanib, o'z o'rniga ega bo'ladi. San'at inson ruhining eng chuqur qatlamlariga kirib borib, ijtimoiy g'oyalar «vositachi»si vazifasini o'taydi. Mazkur g'oyalarni tomoshabin, o'quvchi, eshituvchi, faqat ko'rish bilan emas, balki qahramon kechinmalariga sheriklik hissi orqali ham idrok etadilar.

San'at va siyosat o'zaro oshkora yoki niqobli tarzda namoyon bo'ladi. Bu erda san'at amal qilayotgan davr, uning turlari va ko'rinishlari, ijodkor dunyoqarashi katta ahamiyat kasb etadi.

San'at bevosita siyosiylashgan hollarda u yoki bu siyosiy orzu - umidlarni ochiqdan - ochiq himoya qilishi, u yoki bu turmush tartibotini qaror toptirishi yoki rad etishi mumkin. Masalan, Aristofan komediyalari, Shiller dramalari, Beranje ashula matnlari, David va Delakrua suratlari, Gulhaniy «Zarbulmasal» asarida, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Avaz Htar o'g'li hajviy she'rlari shular jumlasidandir.

O'tmish ijodkorlari muayyan ijtimoiy guruh manfaatlari yo'lida siyosat bilan bog'lanib qolganlarini o'zlari fahmlagan holda asarlar yaratganlar. Chunki, ijodkor asar yaratish o'z davrining siyosiy hayotidan butunlay holis bo'lishi, o'zining siyosiy qarashlari va g'oyalaridan mustasno tarzda ijod qilishi qiyin. Lekin, o'z tabiati va mohiyati jihatidan hilma - hil bo'lgan siyosiy mafkura san'atga turli darajada ta'sir o'tkazadi. Ilg'or, taraqqiyparvar ruhdagi siyosiy g'oyalar barcha davrlarda ham ijodkor iste'dodiga samarali ta'sir ko'rsatgan va san'atning ravnaqi uchun zamin bo'lib xizmat qilgan va aksincha, qoloq hamda mustabid ruhdagi siyosiy qarashlar hatto eng ulug' ijodkorlar faoliyatlariga ham halokatli ta'sir o'tkazib, ular iste'dodlarini kishanlab qo'ygan. Buni biz Sho'rolar davrida o'zbek adabiyotida hamid Olimjon, g'ofur g'ulom, Oybek, Abdulla qahhor, Uyg'un ijodida ko'rishimiz mumkin. San'at va axloq o'zaro munosabatlari estetikada o'zak masalalardan biri bo'lib, bu masalaga uch uslubda yondoshiladi. Birinchisi - «axloqiylik» uslubi deyiladi. Bu uslub Ovrupo nafosatshunosligidagi yunonlar, jumladan Aflotun, yangi lavrda esa Russo va L.N. Tolstoy ijodida kengroq va chuqurroq ishlab chiqilgan.

«Axloqiylik»ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq - odobga bo'ysundirish, ezgulikni san'atning birdan - bir va eng oliy maqsadi sifatida targ'ib etishdir.

Ikkinchi yondoshuv san'atni axloqdan «ozod qilish» uslubidir. Dastavval qadimgi dunyo tanazzuli paytida vujudga kelgan bu yondoshuv Ovrupoda rivojlangan kapitalistik jamiyat bag'rida mustaqil nafosatli oqimga ajralib chiqdi. Dastlabki paytlarda «axloqsiz» yondoshuv san'atga Ovrupo burjua iste'molchiligi ruhiga qarshi norozilik tarzida, ya'ni san'atni hukmron doiralar axloqi va odobi qoidalariga bo'ysundirishga qarshi kurashish ruhida vujudga keladi. Bu hol Oskar Uayld, Edgar Po, Bodler kabi ijodkorlar asarlarida aks ettirilgan. XIX asr ohirlaridan boshlab oshkora estetik axloqsizlik keng targ'ib qilina boshlandi. Masalan, olmon faylasufi F. Nitshe axloqiylik ruhi san'at erkinligini bo'g'adi, san'at ezgulikdan ham, yozuvlikdan ham mustasno bo'lishi kerak, deb uqtirgan edi. Uchinchi yondoshuv - san'atda axloqiylik bilan «axloqsizlikni birlashtirish uslubidir. Bu uslubni ilk bor Arastu nazariy jihatdan asoslagan. Keyinchalik u inqilobiy demokratik oqim tarzida qaror topdi. Mazkur badiiy ijod uslubi mohiyatida san'atning axloqiy - tarbiyaviy ahamiyatini yuksak baholash mavjud bo'lib, unda axloqiy ibtido estetik orzuga nisbatan tashqi qobiq vazifasini emas, balki uning ichki tarkibiy mag'zini ifoda etadi. Bu uslubdagi yondoshuvga ko'ra, san'at axloqiylikning estetik maktabi bo'lib xizmat qiladi, san'at asarlarida badiiylik bo'lmasa, u axloqiylikdan mahrum bo'ladi. Boshqacha aytganda, badiiylik hamma vaqt axloqiylikni, axloqiylik esa yuksak darajadagi nafosatli didni taqozo etadi.

San'at va axloqning bosh mavzui insondir. San'at insonning maqsad - manfaatlari, fikr - mulohazalari, his - tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi. Hayotda, mayyan jamiyatda axloq - odobga aloqador bo'lmagan biror voqea - hodisa sodir bo'lmaydi. Odamlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. San'at qadim davrlardan beri din bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan. Qadimdan san'at va din aqidaviy bir butunlikni tashkil etgan edi. San'at va din ijtimoiy ongning ma'naviy amaliy shakllari qatoriga mansub bo'lib, ularning ikkalasidam iqtisodiy zamin ustidagi g'oyaviy ustqurmaning «yuqori qavati»dan o'rin egallaydi.

San'at va din zaminida yotgan his - tuyg'u bir hil ma'noga ega emas. Masalan, san'atda ham, dinda ham xayol surish mavjud bo'lib, badiiy xayol surish diniy xayoldan tubdan farq qiladi. Din voqelikka mavhum, qiyosiy tarzda xayol qilsa, san'atda xayol voqelikka nisbatan ramz - timsollar vositasida qaratilgan bo'ladi.

Agar din voqelikni mavhum shaklda aks ettirsa, san'at dalil - isbotli tarixiylikka asoslanadi. Din ko'proq ilohiylikka suyanadi, san'at esa dunyoviylik ruhi bilan sug'orilgan. Lekin san'at asarlarida ilohiylik ramzlari bevosita dunyoviylikni aks ettiradi. San'at asari qaysi dinga mansub ijodkor tomonidan yaratilgani ham muhim ahamiyatga molikdir. San'at va falsafa aloqadorligi ular mavzularining o'zaro yaqinligida namoyon bo'ladi, zero inson mazmunini, qismati va baxt - saodatini anglash, in'ikos etish bilan

bog'liq muammolar san'at uchun ham, falsafa uchun ham asosiy mavzudur. San'at va falsafaning ijtimoiy hayot jabhalarida bajaradigan vazifalarida ham umumiylik mavjud. Falsafa hamma vaqt shaxs dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi va ayni paytda har qanday dunyoqarashning nazariy asosidir. San'at dunyoqarashni shakllantirishda bevosita o'rin tutmaydi. San'at o'z mazmunini badiiy qiyofalarda namoyon qilsa, falsafa o'z mazmunini nihoyatda keng tushunchalar (kategoriyalar) orqali ifoda etadi. San'at badiiy obrazli tafakkur vositasida, falsafa esa mantiqiy tushunchalar orqali ifodalanadi. San'atning asosiy ta'sir kuchi inson ma'naviy dunyosiga, uning fikr - mulohazalari va his - tuyg'ulariga qaratilgan bo'lsa, falsafaning ta'sir kuchi aql - idrokka, ma'naviy talab - ehtiyojlarni qondirishga, ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. San'at manzaralar, hodisalarni bir - biriga biriktirishga intilsa, falsafa o'sha hodisalar mohiyatini anglashga, ular qonuniyatlarni ochishga intiladi. San'at badiiy haqiqatga, falsafa esa hayotiy haqiqatga tayanadi. San'at va falsafa voqelikni o'zlashtirishda mustaqil amal qilib, ular tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zaro aloqadorlikda bo'lib, bir - birini to'ldirib va boyitib kelgan. San'at bilan falsafa o'rtasidagi o'zaro bog'likni san'atkorlar bir vaqtning o'zida mutafakkirlar, buyuk faylasuflar ham bo'lganliklarida, ya'ni shubhasiz tarzda yuksak badiiy iste'dod sohiblari bo'lganlarida ham ko'ramiz. Bunga Ibn sino, Forobiy, Yusuf xos hojib, Navoiy, Ulug'bek, Bobur, Mashrab, Ahmad Donish, Munavvar qori, Mahmudho'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Oybek va boshqa ijodkorlar hayoti va ijodi misoldir.

San'atning ijtimoiy mazmuni xalqchillik tushunchasi orqali namoyon bo'ladi. Bu tushuncha hozirgi sharoitda muhim ahamiyatga molik bo'lib bormoqda. Umuminsoniy va milliy manfaatlar hamda qadriyatlarga amal qilish san'at xalqchilligini ta'minlaydi.

Nafosat nazariyasida xalqchillik muammosi muhim o'rin tutadi. San'atda xalqchillik uning vorisiylik, tarixiylik, milliylik va umuminsoniy tushunchalari bilan nazariy va amaliy jihatdan chirmashib ketgan.

Xalqchillik tushunchasi san'at ravnaqining bir qator yo'nalish va tomonlarini tavsiflashga yordam beradi. Mazkur yo'nalishlardan ilk bor xalq ijodi ajralib chiqqan. Xalq yaratgan va iste'mol qilinadigan badiiy faoliyat turlari va ko'rinishlariga xalq ijodi deyiladi. Xalq og'zaki ijodi, xalq musiqasi, xalq raqslari, xalq amaliy san'ati, xalq badiiy hunarmandchiligi, xalq me'morchiligi va boshqalar xalq amaliy san'atining hillari va ko'rinishlaridir. Odatda bu hil san'at asarlari muallifsiz jamoaviy holda yaratilgan bo'lib, ularda an'analar, rasm - rusmlar, urf - odatlar katta ahamiyat kasb etadi. Xalq ijodi ijtimoiy taraqqiyotning boshlang'ich bosqichlarida san'atning yagona shakli sifatida amal qilgan. Unda san'atning xalqchil tabiati nisbatan sodda tarzda namoyon bo'lib, xalq turmush tarzining hilma - hil qirralarini qamrab olgan.

San'atda xalqchillik ruhi haqqoniylik ruhi bilan hamohangdir. haqqoniylik hamma vaqt xalqchillik mazmuniga ega bo'ladi, chunki haqqoniylik xalqning maqsad - intilishlariga mos keladi, uning ma'naviy ravnaqi va axloqiy barqarorligiga xizmat qiladi. Va aksincha, har qanday yolg'on axloqsizlikning o'zginasidir. Demak, xalqchillik bilan haqqoniylik o'zaro chambarchas bog'liq

bo'lib, badiiy asar to'qimasiga sngdirilgan badiiy haqiqat jamiyat va xalq hayotida ulkan ahamiyat kasb etadi.

San'at xalq muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichida taraqqiyparvar ijtimoiy kuch sifatida ifodalansa, bunday san'at jamiyat rivojiga xizmat qiladi va unda xalqchillik ruhi yorqin namoyon bo'ladi. San'atkor ijodining xalqchilligi esa u mansub bo'lgan o'z xalqining amaldagi ozodligi, erkiga qanchalik xizmat qilishi bilan o'lchanadi.

Shuningdek, san'atning xalqchilligi unda umuminsoniy qadriyatlar qay tarzda aks etishiga ham bog'liq. San'atkor ijodida umuminsoniy qadriyatlarning, insonparvarlik ruhining barqaror bo'lishi ijodkor xalqchilligini belgilaydigan asosiy mezondir.

2. Badiiy madaniyat murakkab tizimdan iborat bo'lib, unda san'at turlari muhim o'rin tutadi. San'atning ayrim turlarga bo'linib ketganligi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot xosilasi bo'lib, qadimda badiiy faoliyat sohalariga - turlarga bo'linmagan edi. Keyinchalik san'atning bir necha turlari qaror topdi.

San'at turlari san'atga xos bo'lgan umumiy belgilarga ega bo'lib, ularning har biri: adabiyot, me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at va shu singari muhim ko'rinishda namoyon bo'ladi. San'at turlarida xususiyning umumiyga nisbatini ko'ramiz. Nafosatli tafakkurning tur xosil qilish manbalari ikki yo'nalishida vujudga kelgan. Manbaning birinchi yo'nalishi - voqelikning murakkabligi, ko'p qiyofaligi, har tomonlamaligidir. Masalan, san'at u yoki bu turining vujudga kelishi uning voqelikni qaysi tomonini aks ettirishga qaratilganligidir. Nazm va tasviriy san'at turlari bir - biriga qiyoslanganda, ularning mavzulari boshqa - boshqa bo'lib, mavzu xususiyatlari esa tasvir vositalaridan kelib chiqqanligini ko'ramiz. Ikkinchi yo'nalish - inson his - tuyg'usi boyligi, idrok etish xususiyatlari, inson ma'naviy qobiliyati bilan bog'liq.

San'at turlari vujudga kelish manbaiga ega bo'lgan bu ikki nuqtai nazarda o'zaro ziddiyat yo'q, lekin ma'lum farqlar mavjud. San'at turlarining xosil bo'lishida voqelikning hal qiluvchi ahamiyatini tan olgan holda, avvalo, inson idroki xususiyatlarini e'tiborga olib, san'atkor foydalanadigan moddiy ashyo xususiyatlarini ham nazardan qochirmaslik kerak. Moddiy ashyo ko'p jihatlardan u yoki bu san'at turiga xos bo'lgan tasvirli - ifodali vositalar xususiyatlarini yuzaga keltiradi.

San'at turlari bir - birining o'rnini bosolmaydi: ularning har biri mustaqil, o'zicha nodir va betakror bo'lib, voqelikning bir tomonini bevosita aks ettiradi. Hsha tur u yoki bu insoniy his - tuyg'ularni ifodalashda boshqa turlarga nisbatan ustivor o'rin egallaydi va muayyan cheklanganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, badiiy adabiyot hayotni keng va teran aks ettirishda, inson ruhiy - aqliy tomonlarini ochib berishda tengi yo'q san'at turi bo'lsa - da, u ma'lum cheklanganlik xossasiga ega. Badiiy adabiyot inson his - tuyg'ulari, sezgilari qirralrini ifodalashda musiqaga, tasviriy san'atga teng kelmaydi. hatto adabiyot, musiqa, tasviriy san'at «qorishmasi»dan vujudga keladigan kino san'ati ba'zi jihatlari bilan adabiyot, musiqaning o'rnini bosolmaydi. Shu bois san'atning bir turini boshqasiga qarshi qo'yish yoki ular o'rtasiga baland - past zinapoyalar tashlash maqbul emas: san'at turlari teng asosda harakat qilib, voqelikni aks ettirishda bir tur boshqa turlarga nisbatan ustivor darajada

namoyon bo'ladi. Masalan, san'atning bilish vazifasi badiiy adabiyotda va u bilan bog'liq boshqa turlarda alohida bo'rtib ko'rinadi: musiqa inson his - tuyg'u madaniyati, tasviriy san'at sinchkov kuzatish madaniyati: ochiq sahna (estrada) va cirk san'ati esa ko'ngil ochish, tamosha madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. San'at amaliyoti davomida uning ikki xususiyati - ajralish va jamlanishga moyillik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ajralish san'ati yangi turlarining vujudga kelishi, ularning mustaqillikka intilishi bilan bog'liq bo'lsa, jamlanish san'at turlarining biror qorishmaga (sintezga) intilishida ko'rinadi. Bu ikki moyillik insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotining barcha davrlariga xosdir. Ammo u yoki bu davrda ulardan biri ustivor bo'lgan va har hil mazmun kasb etgan. San'atni hozir fazoli, vaqtli, fazoli - vaqtli ko'rinishlarga bo'lib o'rganish taomilga kirgan. Fazoli ko'rinishga tasviriy san'at, haykaltaroshlik, chiziqli rasm (grafika), amaliy san'at va me'morchilik; vaqtli ko'rinishiga badiiy adabiyot va musiqa, fazoli - vaqtli ko'rinishga esa teatr, kino «oynai jahon» kiradi.

hodisalarning aniq - tuyg'uli qiyofasini aks ettirishi yoki aks ettirmasligiga qarab tasvirli va tasvirli bo'lmagan ko'rinishlarga ham egadir. Tasviriy san'at va haykaltaroshlikda hayot manzaralari voqelikning his - tuyg'uli qiyofasini yaratish orqali namoyon bo'lsa, adabiyot va musiqada hayot manzaralari fikrlar va tuyg'ular oqimini umumlashtirish asosida aks ettiriladi. Masalan, adabiyot va musiqa moddiy jism (narsa) ning his - tuyg'uli qiyofasi idrokini xosil qilmaydi, balki voqelikni kechinmalar, his - tuyg'ular orqali aks ettirib, yuksak tasvir darajasiga erishadi. Adabiyot va musiqa «tili»ga boshqa san'at turlari qiyofalarini «ko'chirib» ifodalash mumkin. Tasviriy san'at esa rango - rang tuyg'uli - idrokli jisimiy olamni bevosita aks ettirishda faqat ifoda ramzidan foydalanadi. Rang, yorug'lik, nur - soya kabi tasviriy - ifodaviy vositalar orqali voqelikdagi sezgi va tuyg'ularni umumlashtirgan holda namoyon qiladi.

San'at turlari idrok etish jihatdan ham har xil ko'rinishlarga bo'linadi; ular ko'z bilan ko'riladigan asarlar bo'lib, tamoshali san'at turlari deb ataladi. Bularga tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, badiiy foto asarlari kiradi. Musiqani eshitiladigan san'at turi deymiz. Teatr san'ati esa ham tamoshali, ham eshitiladigan san'at turidir.

San'at ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi bo'lishi bilan birga inson faoliyatining badiiy bo'lmagan sohalari bilan ham chambarchas bog'liq. San'at turlari xususiy - badiiy burch - vazifalari bilan birga foydali - amaliy burch - vazifalarni ham bajaradi. Bu jihatdan san'at turlarining foydali - amaliy burch - vazifalarini ikki burchli, bir burchli, tadbqiqiy va «toza» burch - vazifa ko'rinishlariga bo'lish mumkin. Me'morchilik, amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi, tadbqiqiy burch ko'rinishiga ega. Bu san'at turlarida badiiylik foydali - amaliy idrok bilan uzviy birlikda namoyon bo'ladi. Masalan, harbiy musiqa davlat madhiyasi yoki adabiyot, tasviriy san'at sohalarining (bayroq, tamg'a) axborot - hujjat tomonlari shunday xususiyatga egadir.

hozirgi davr badiiy madaniyatida san'at va boshqa sohalar o'rtasidagi chegaralar tobora emirilib bormoqda va ular o'rtasida samarali hamkorlik jarayonlari shakllanmoqda. Ayniqsa, bu hamkorlik san'at va fan - texnika aloqalarida yaqqol ko'rinadi. Og'zaki adabiyotda so'z bilan ijrochi

mushtarakdir. Bir vaqtning o'zida muallif bilan ijrochi (dostonchilar, bahshilar, askiyachilar) birlashib ketadi. Binobarin so'zda ifodalangan asar (askiya, doston, terma) ijro va idrok uchun yaratilgan bo'ladi. Yozma adbiyot esa ijro talab qilmaydi. U eshituvchiga emas, o'quvchiga mo'ljallangan bo'ladi. Og'zaki va yozma adbiyot o'rtasidagi farq ularning inson tuyg'ulariga turlicha ta'sir o'tkazishida namoyon bo'ladi. Aytilgan so'zni eshitish, yozilganini ko'rish va o'qish uchun mo'ljallanganligidan tashqari, yozma adbiyotni idrok etish o'quvchidan ko'proq ijodiy faollikni va mustaqillikni, adabiy matndan olingan axborotni o'zining ma'naviy dunyosi va hayotiy tajribasi bilan qiyoslashni talab qiladi.

Og'zaki va yozma adbiyotning farqi ularni idrok etishda ham ko'rinadi. Og'zaki adbiyotni idrok etish odatda jamoaviy tarzda sodir bo'lsa, yozma adbiyot idroki yakka, shaxsiydir. Badiiy adbiyot san'at turi sifatida o'zining ichki tizimiga, o'ziga xos tur, hil, ko'rinishiga, uslubiga ega. Masalan, qadimgi Yunoniston badiiy madaniyati tarixida badiiy adbiyot doirasi uning uch katta adabiy turi - hili - epik, lirik, dramatik ko'rinishlarini qamrab olgan edi. Epik tur, avvalo, voqealarni badiiy o'zlashtirish bilan, lirik tur - kayfiyat yoki ruhiy holat bilan, dramatik tur - harakat bilan bog'liq amal qilgan edi. Bu uch tur - hilning barcha belgilari badiiy aks ettirish uchun zarur bo'lgan voqelik bilan chambarchas bog'liq.

Badiiy adbiyotning epik turida voqelik keng va ko'p tomonli holda qamrab olinadi, inson xulq - atvorini shakllantiradigan va uni harakat qilishga undaydigan shart - sharoitlar bilan uzviy bog'liq tarzda bayon qilinadi. Unda tashqi olam qonuni hukmronlik qiladi, tasvirlanayotgan voqelikka, narsalarga muallif munosabati, odatda, bayon qilish uslubi asar tartibi ichiga yashiringan bo'ladi. Epik asar hamma vaqt erkin yozma bayon (insho) usulida ifodalanadi, unda ko'proq tasvirlash ustunlik qiladi. Epik asar mazmuni tasviriy qismlar, qahramonlarning fikr - mulohazalari va kechinmalari tasviri orqali namoyon bo'ladi.

Epik adbiyotda voqelik tasvirining kengligi, mufassalligi, hayot manzaralarini yaxlit yaratishga intilish, voqealar tasvirini bayon qilish tarzi bu turning ba'zi shakliy belgilarini ham izohlaydi. Tasvirning bayon tarzi, uning batafsilligi qismlarining nisbiy mustaqilligi, harakat sodir bo'lishining sekin - astaligi, asar badiiy tizimining erkin tarkib topishi, harakatning tugal emasligi kabi belgilar shular jumlasidandir. Epik asarlar o'z mazmuni va shakliy belgilari jihatidan nasriy ifodaga moyil bo'lib, unda to'la va jozibali bo'y ko'rsatadi. Epik adbiyot ko'proq nasriy bayonga mo'ljallangan holda, lirik adbiyot asosan nazm orqali bayon etiladi. Agar epik asarlarda voqelikning keng manzarasi - tashqi olam ruhi hukmron bo'lsa, lirik adbiyotda ko'proq inson ichki holati ifodalanadi. Arastu ta'kidlaganidek, lirik adbiyot muallifi o'zi yaratgan asari bilan yaxlit birlikni tashkil qiladi va bunda o'zligini ham saqlab qoladi. Ba'zan lirikada tasvir tomonlar zaif holda aks etib, ko'proq muallif fikr va tuyg'ulari ifodalanadi. Bu uning voqelikni aks ettirishning muhim shakli bo'lib qolishiga halal bermaydi. Lirik adbiyotda tashqi dunyo bevosita emas, bilvosita, ya'ni fikr va tuyg'ular orqali aks ettiriladi. Shoirning shaxsiy fikr va tuyg'ulari o'zi yashab turgan davrning ilg'or fikr va

tuyg'ulariga hamohang tarzda umumxalq, umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Bunga Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Mahtumquli, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov lirikasi yorqin misol bo'ladi. Lirikada fikr bilan tuyg'u chirmashib, tutashib ketadi. Unda sezgi bilan bezangan, his - tuyg'ular bilan to'lib toshgan fikr bevosita kechinmalar shaklida namoyon bo'ladi. Lirika olam va inson haqida eng murakkab, eng teran fikrlarni ifodalash qudratiga ega. Lirika bevosita tasvir uslubidan foydalanmasligi jihatidan musiqa va raqsga yaqin bo'lsada, o'zining so'z bilan qat'iy birligi tufayli u inson ma'naviy hayotining hamma qirralarini ifodalash imkoniyatiga egadir. Badiiy adabiyotning ko'pgina asarlari bir vaqtning o'zida hamepik, ham lirik tur belgilariga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiyotida Cho'lpon va Usmon Nosir, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov lirikasida badiiy uslub hilma - hilligidan qat'iy nazar, ular ijodida lirik va epik tomonlar qorishmasimavjudligini ko'ramiz. ularning ham lirik, ham epik asarlar yaratishga moyilliklari mantiqiy tarzda bu shoirlar ijodida dramaturgik turni paydo qildi.

Badiiy adabiyotning dramaturgiya turi, avvalo, sahnalashtirishga mo'ljallangan asarlar bo'lib, uni ham adabiyot turi, ham teatr qismi deb ataydilar. Bu tur hayotning dramatik lahzalari va tomonlarini yanada to'laroq aks ettirish talab - ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo'lib, har qanday dramatik asar asosini ziddiyat (konflikt) tashkil qiladi. Drama asarlarida kundalik hayotning tub o'zgarishlarga moyilligidan dalolat beruvchi tomonlarini to'laqonli ochib berishda mavzu asosiy o'rin egallaydi.

Dramatik asarlarda o'z oldilariga aniq - ravshan maqsad va vazifalar qo'ygan irodali kishilar yuzma - yuz kelib to'qnashadilar. To'qnashuv qudrati esa ko'p jihatdan iroda namoyon bo'lishi va uning ifoda kuchiga bog'liq bo'ladi. Dramatik to'qnashuv xususiyati o'z navbatida dramatik harakat xususiyatini belgilab beradi. Dramatik harakatda esa inson ruhiy tahlili, uning fikr - tuyg'usi, insoniy sifatlari namoyon bo'ladi. Dramatik asarlarda hayot uyg'unligi to'la namoyon bo'lar ekan, dramatik harakat mumkin qadar faollikka, bir maqsadga yo'nalganlikka, tamoshabinga bevosita ta'sir o'tkazishga intiladi. Bu esa suhbat (dialog) orqali amalga oshadi. Suhbat jarayonida har bir so'z, voqea - hodisa, har bir hatti - harakat, ibora boshqa odam (suhbatdosh) ga faol tasir o'tkazish sifatida o'rin egallaydi. Badiiy adabiyotning turlari o'z navbatida bir necha hil va ko'rinishlarga bo'linadi. Ular epik turda xalq eposi; epik doston, roman - epopeya, roman, qissa; lirik turda - qasida, tuyuq, ruboiy, g'azal, mustahzod, she'r; dramatik turda - fojea (tragediya), komediya, drama kabilardir. Ularning har birini janr deb atash ham qabul qilingan bo'lib, mazmun umumiyliги, hayotiy hodisalar tanlovi, g'oyaviy - estetik baholanganligi, his - tuyg'uli ta'sir kuchi bilan izohlanadi. har bir janr o'ziga xos belgilari, badiiy vositalar majmuining nisbiy qaror topganligi bilan bir - biridan farq qiladi. Badiiy adabiyot san'atning barcha turlariga ta'sir o'tkazib keldi va hozir ham o'tkazmoqda. Badiiy adabiyot ta'siridan holi bo'lgan badiiy ijod sohasi yo'q bo'lib, unda ilk bor qalamga olingan mavzu, g'oya, ohang, qiyofa, xulq - atvor keyinroq san'atning boshqa turlariga ham ko'chishi mumkin. San'atning teatr va kino kabi qorishma

turlariga ham badiiy adabiyot ilk asos vazifasini bajaradi. Nihoyat, san'at taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan badiiy qorishma vujudga kelishida ham adabiyot asosiy uyg'unlashtiruvchi va jamlovchi omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Tasviriy san'at tizimiga musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm (grafika) mansub bo'lib, ularning vujudga kelishi insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. qadimgi dunyo musavvirlari o'zlarining manfaat va ehtiyojlariga mos bo'lgan timsollar yaratganlar. qoyalarda tasvirlangan jonivorlar voqelik hodisalari, hayot manzaralari o'rnini bosardi. Dastlabki tasvirdayoq estetik zarralar mavjud bo'lsa ham, ular foydali - amaliy maqsadlarga bo'ysundirilgan tarzda ifodalagan edi. San'atning endigina yuzaga kelayotgan shakllarida sog'lom his - tuyg'ular, idrok yorqinligi va tiniqligi, kuzatish ziyrakligi namoyon bo'lardi. Bunda insonning o'z atrofidagi olamni qiyofali yaratishga bo'lgan kuchli intilishi boshlang'ich shakllarda namoyon bo'layotgan edi. Tasviriy san'at foydali - amaliy maqsadlar hukmronligidan tobora «forig'lanib» badiiy faoliyatning ihtisoslashtirilgan shakliga aylanib bordi, bu jarayon esa ko'p asrlarga cho'zilib ketdi.

San'at inson faoliyatining estetik bo'lmagan sohalari bilan chambarchas bog'liqligi qadimgi dunyo, o'rta asrlar, Uyg'onish davri davomida sezilib turadi. Tasviriy san'at o'zining nafosatli hislatlariga va estetik nafosatli maqomiga ega bo'lib borgan sari uning ayrim turlari va janrlari ajralib chiqib boshladi. Uning musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm kabi turlari va janrlari sekin - asta mustaqil tasvir ko'lamiga va tasviriy - ifodaviy vositalariga ega bo'la boshladi. Tasviriy san'atning musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm turlari bir - biri bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik ba'zan oshkora, ochiq tarzda amal qiladi. Tasviriy san'at turlarining bir - biridan farq qilishi - ularning har biri voqelik manzarasini aks ettirishi bilan belgilanadi, lekin pirovardida ular bir tizimga birlashadilar. Musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasmning ifoda vositalari hilma - hil bo'lib tasvirlanayotgan va ifodalanayotgan narsalar o'rtasidagi chegaralar shartlilik hamda nisbiylikka egadir. har bir san'at turida tasvir bilan ifoda chirmashib ketgan bo'ladi. Ifodalilik, ya'ni san'atkorning voqelikka munosabati tasviriy san'atning ham muhim xususiyatidir. Musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasmning umumiy xususiyati ular barchasining tasvir orqali ifoda etishidir. Musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm san'atning fazoli hillari bo'lib, ular voqelikni fazoli in'ikos ettiradi. Ularda tasvirlanayotgan hodisalar mo''tadillik ususiyaiga ega bo'lib, bitta voqea yoki uning bir lahzasini tanlab tasvirlash orqali harakatdagi va rivojlanishdagi hayotning butun murakkabligi va boyligini ko'rsatish qudratiga ega. Ular fazoviy hodisalarni bevosita, vaqt o'lchovidagilarni esa bilvosita tomoshabinda o'y - xayollar va tasavvurlar xosil qilish orqali namoyon qiladi. Tasviriy san'at turlari hayotda bevosita jisimiy ifodasi bo'lmagan tuyg'uli va aqliy jarayonlarni aks ettirishda adabiyot va musiqa turlariga yon bergan holda, hayot muqimligi va mo''tadilligini, undagi o'lmas va barqaror qadriyatlarni ochib berishda boshqa san'at turlaridan ustunlik qiladi. Musavvir ko'z ko'rib turgan moddiy ijodiy tasavvurida qayta ishlab, tekislikda tasvirlaydi. Bo'yoqlar, chiziqlar va ular aralashmasidan foydalanib, dunyoning barcha

manzaralarini aks ettiradi, uning markazida esa inson turadi. Musavvirlikda inson qiyofasi to'g'ridan - to'g'ri hamda uning atrofidagi moddiy dunyoga munosabati ifodalanadi.

Musavvirlikda dunyoning ko'rinib turgan rango - rang boyligini alohida sezgirlik va erkinlik bilan aks ettiriladi. Agar haykaltaroshlikda hodisalarning nisbiy mo'tadilligi va muayyanligi aks etsa, musavvirlik olamning o'zgarishlarini, hayot oqimini tasvirlaydi. Musavvirlikda ko'z ilg'aydigan qiyofalar o'ziga xos san'at «tili» - rang yordamida yaratiladi. Musavvir rang orqali bo'yoqlari mutanosibligini, uning moddiy mohiyatini, odamlar his - tuyg'usini, iroda kuchini, hatti - harakatlarini hilma - hil ko'rinishlarda ifodalaydi. Tasviriy san'atda nur - soya vositasini voqelikdagi nur va soya uyg'unligi vujudga keltiradi. Tus, rang voqelikdagi barcha narsalar va hodisalarga xos. Musavvir dunyoning nur - soya boyligini aynan ko'chirmaydi, balki uni sinchkovlik bilan tanlab ajratadi, nur - soya vositasida odamlar va narsalar hajmliqligini, tabiat go'zalligini, havo tiniqligini tasvirlab, voqelikda nur va soya tovlanishining eng nozik qirralarini namoyish qiladi. Nur - soya dunyoning ko'z ilg'ayotgan narsalar ranglarini badiiy yaratibgina qolmay, u musavvir badiiy rejasi mazmunini, uning voqelikka bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Musavvirlikning ilk asosi - rasmdir. Rasm suratning o'ziga xos umurtqasini, sinch - ustunini anglatib, jism shaklini, atrof chiziqlarini, badiiy tizimini belgilaydi, jihozlar va odamlar har birining o'z o'rinlarini, asosiy belgilarini ko'rsatib beradi. Bir qator buyuk musavvirlar o'z asarlarini dastlabki ko'mir va qalam bilan tushirilgan rasmlarsiz yaratganliklari rasmning musavvirlik san'atidagi ahamiyatini kamsitmaydi. Ular mazkur asarlarni yaratish jarayonida mo'yqalamlarini shu qadar yuksak mahorat bilan ishga solganlarki, bir vaqtning o'zida ham rasm solganlar, ham surat yaratganlar.

Musavvirlik vositalari tizimida badiiy tuzilma (kompoziciya) katta ahamiyat kasb etadi, musavvir yozuvchiga o'hshab voqealarni ketma - ket aks ettirmaydi, balki tasvirlanayotgan voqeaning muayyan bir lahzasini ajratib olib, har birining o'z o'rnini, asosiy belgilarini ko'rsatib beradi. Musavvirlikda badiiy tuzilma (kompoziciya) fazoli tabiatga molik bo'lsa ham, tomoshabin hissini uyg'otadi. Musavvir badiiy tuzilma va vazn orqali o'z asarining vaqtli doirasini kengaytiradi. Musavvirlikning naqqoshlik, yodgorlik va dastgohlik ko'rinishlari mavjud. Naqqoshlik aslida me'morchilik bilan bog'langan bo'lib, devoriy suratlarda, birinchi navbatda, suvoq ustiga tushirilgan rasmda ifoda topadi. Bu dastgohlik ko'rinishidan avval vujudga kelgan bo'lib, rassomchilikda uzoq vaqt etakchilik qilgan. Umumlashtirish darajasi o'ta lo'ndalik, shakliylik uslubi naqqoshlik san'ati ramziy «tili»ning belgilaridir.

Dastgohlik musavvirlik asoslari muzeylarda, ko'rgazmalarda namoyish etiladi. U o'zining ko'p qirrali ko'rinishlari (mavzuli surat, rasm, manzara, natyurmort) orqali voqelik tomonlarini yoritib beradi. Chiziqli rasmni tadqiqotchilar musavvirlikning bir ko'rinishi sifatida tahlil qiladilar. Uzoq yillar davomida chiziqli rasm rassomchilik va haykaltaroshlik bilan tarkibiy birlikda rivojlanib keldi. Chiziqli rasm o'zining tejamli va lo'nda vositalari orqali voqelik haqida ko'p narsa bildirayotgandek bo'ladi. Chiziqli rasm umumiy mavzu atrofida birlashgan bir qator rasmlar yaratish imkoniyatlari

hamda veqelik hodisalarini keng qamrab olish jihatidan badiiy adabiyotga yaqin turadi.

Chiziqli rasm hayot hodisalarini tezroq aks ettirishi bilan ommaviylik xususiyatiga ega. Uni ko'rgazmalarda namoyish qilish bilan birga ko'p nusxalarda ko'paytirib tarqatish mumkin. Chiziqli rasm ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalq va yurt taqdirida burilish nuqtalari, og'ir kunlar (urush, ofat v.h) bo'lganda odamlarni jipslashtirish va safarbar qilish qudratiga ega bo'ladi.

Chiziqli rasm o'z mazmuni va maqsadiga muvofiq dastgohli va amaliy ko'rinishlarga ega. Dastgohli ko'rinishi nisbiy mustaqil bo'lib, unda suv buyoqli (akvarel), yumshoq rangli qalam (pastel), musavvir yaratgan bosma shakldan nusxa ko'chirish (estamp), o'yib solingan (ofort), maxsus tahtachaga o'yib tushirilgan (gravyura) holatlarida yog'och, metall, ko'mir, karton va boshqa ashyolarda ifodalanadi.

Amaliy chiziqli rasm badiiy ijod turlari bilan bog'liq holda sanoat chizma rasmlari (maxsulot belgisi - etiketka, pochta markalari, alomat - belgi ramzi - emblemalar; ko'krakka taqiladigan belgi - znachoklar, davlat nishonlari va b.) kitoblarga tushirilgan rasmlar ko'rinishida ham amal qiladi.

Kitob chiziqli rasmlari bezak bo'lish bilan birga asar mazmunining adabiy qiyofalar teranligini ochib berishga ham xizmat qiladi. Muallif badiiy rejasi va uslubiga mos keladigan haqqoniy va mahorat bilan ishlangan kitob bezaklari badiiy asar mohiyatini anglash va uni chuqur his - tuyg'u bilan idrok etishga yordam beradi.

Chiziqli rasmning eng tezkor ko'rinishi plakat bo'lib, u targ'ibot - tashviqot xususiyatiga ega. Plakat «tili» odatda lo'nda, aniq ko'zga tashlanarli, keskin va o'tkir belgilarga ega bo'lib, ular qisqa matn bilan birgalikda ifodalanadi.

Tasviriy san'atning eng muhim turlaridan biri - haykaltaroshlikdir. U jonli mavjudotlar, voqea - hodisalarni hajmli shakllarda aks ettiradi. Marmartosh, oddiy tosh, harsang tosh, yog'och, metall, gips va boshqalar haykaltaroshlikdagi moddiy ashyolar bo'lib xizmat qiladi. qadimgi haykaltaroshlik asarlari narsalar rangi bilan mos bo'yoqlarda bo'yalardi. Keyinchalik haykaltaroshlik mustaqil san'at turi sifatida rangdan halos bo'ldi. Rang ishlatilgan taqdirda ham u tasvirlanayotgan narsa rangidan tubdan farq qiladi. haykaltaroshlikda hajm asosiy tasviriy - ifodali vosita, rang esa yordamchi vosita vazifasini bajaradi.

Haykaltaroshlikda asosan inson qisman jonivorlar aks ettiriladi. Unda inson hajmli, mayin - egiluvchan, qiyofa va fazoli shakllar vositasida tasvirlanadi. haykal shunday tomoshali idrok etishga mo'ljallanganki, mushohada etayotgan tomoshabin uning hamma tomonini ko'ra oladi. Shu bois haykaltaroshlikda asosiy badiiy vositalar hajm, aks - soya (siluet), vazn - ohang, mayin - egiluvchanlik belgilari shunday joylashtiriladiki, uning barcha tomonlari ko'rinish turadi, aks - soya esa fazoda yaqqol gavdalanadi.

haykaltaroshlik asarlari turg'un, o'zgarmas xususiyatga ega. Boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq, unda nafaqat tasvir, balki osoyishtalikdagi hajmli narsa ham ifodalanadi. haykaltarosh harakatsiz holatda harakat taassurotini ajrata oladi yoki uning bir lahzasi orqali haykalga harakat ifodasini bahsh etadi.

haykaltaroshlikda hayot faqat harakat orqali ifodalanadi. Unda harakatni ko'rsatish ancha qiyin. Inson hayoti barcha boyligini harakatda berish, harakatni esa inson qiyofasini bevosita yaratish tomon davom ettirish lozim. haykaltaroshlikda harakatni ko'rsatish inson tavsifining g'oyat muhim tomonidir. Shu bois barcha arzigulik haykaltaroshlik asarlari - Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Navoiy va boshqa ulug' siymolar haykallari avvalo harakat bilan to'lib - toshgan tarzda ifodalangan. haykaltarosh uchun harakatni tasvirlash asl maqsad emas, balki u fikr va tuyg'ularni qiyofali aks ettirishi, uning voqelikka nisbatan faol - ijodiy munosabatini namoyon qilishi uchun vosita holos.

Haykaltaroshlikda dastgohli va kichik shakllar ham o'rin tutadi. Dastgohli haykaltaroshlik insonning ichki dunyosi mazmuniga qiziqish ortib borayotganligi bilan bog'liq. Kichik shakllar haykaltaroshligi esa asosan sanoat va xalq hunarmandlari tomonidan tayyorlanib, maishiy turmush jarayonlarini badiiylashtirishga xizmat qiladi.

Badiiy suratga olish (fotografiya) tasviriy san'atning eng yosh turidir. Suratga olish texnikasi bilan bog'liq holda, narsalarni ikki o'lchamli tekislikda suratga olishning texnik vositasi sifatida boshlanib, keyin san'at turiga o'sib chiqdi. Foto san'ati avval surat ko'rinishida rassomchilik va chiziqli rasm ta'siri ostida qaror topib, keyin fotografiyaning kino san'ati bilan birga rivojlandi. Suratga olish ko'p jihatdan kino san'atining ravnaq topishiga asos bo'ldi va shundan foto maxsus san'at turiga aylandi.

Suratga olishning asosiy xususiyati hujjatlilik bo'lib, u tasvir bilan tasvirlanayotgan narsaning aniq, haqiqiy va bevosita aynan aks etishidir. Agar musavvirlik va chiziqli rasmda hujjatlilik ulardagi san'atni nobud qilsa, u foto suratda asosiy zamin, bosh kuch, hayot tasvirining yagona shakli bo'lib xizmat qiladi. Suratga olish nafosat olamini ochadi, tuyg'ularimizga ta'sir o'tkazadi.

Mavzu tanlash, ikkilamchi tomonlardan voz kechish oddiy suratga tushirishdan badiiy suratga olishning farqini belgilaydi. Badiiy suratga olish uchun tasvir ob'ektini to'g'ri tanlash alohida ahamiyatga ega. Ob'ektning o'zi juda muhim bo'lishi va tomoshabinda chuqur o'y - xayollar uyg'otishi kerak.

Badiiy suratga olish qisqa davrda o'zining qiyofa «tili» va mazmunini ochish usulini ishlab chiqdi. Tasvir ob'ektini tanlash, fototexnikani tayyorlash, tasvirlashda hujjatlilikka e'tibor berish, yirik va kichik ko'zlangan (rakurs) suratlarini tushirish badiiy surat «tili»ning eng muhim qirralari hisoblanadi.

Badiiy suratga olish tasviriy san'atning tur va ko'rinishlariga, ayniqsa, musavvirlikka katta ta'sir qiladi. Bir tomondan uning o'zi rivojlanadi, ikkinchi tomondan, ya'ni, usullarni «ko'chirib» o'tkazadi.

hozirgi kunda foto san'ati badiiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanib qoldi. Jamoa badiiy qiyofasini yaratishda ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Ifodali san'at turlari tizimiga bezakli amaliy, me'morchilik va musiqa san'ati turlari kiradi. Yuzaki qaraganda bir - biridan uzoq bu turlarni ularga xos bo'lgan qiyofalarni vaqtli mezonda namoyon bo'lishi hamda voqelikni anglash jarayonida hodisalarning his - tuyg'ularsiz ifodalanishi birlashtiradi. Bu ijod turlari o'zining g'oyaviy - nafosatli burch - vazifalarini asosan ifodali vositalar orqali amalga oshiradi.

Bezakli - amaliy san'at turi tasviri san'at turlariga yaqinroq turadi. Unda ham ravshan ifodalanuvchi tomonlar mavjud. Lekin uning tasviriyl san'at asarlaridan farqlanuvchi bir talay jihatlari ham bor. Bezakli - amaliy san'at amaliy maqsadlarga mo'ljallangan bo'ladi. Ularning badiiy qiymati foydali - amaliy qiymatidan kelib chiqadi. Bu san'at turi inson faoliyatining badiiy va badiiy bo'lmagan sohalari oralig'idan joy oladi.

Bezakli amaliy san'at inson badiiy faoliyatining ilk ko'rinishlari bo'lib, uning ibtidosi mehnat jarayonlari bilan chirmashib ketgan edi. U san'atning boshqa turlaridan farqli ravishda tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlarida ham badiiy va foydali - amaliy faoliyatning qorishmasi sifatida qadimgi madaniyat muhim belgilarini o'zida saqlab qoldi.

Bezakli - amaliy san'at asosan maishiy turmush ehtiyojlariga xizmat qiladigan narsa - buyumlar yaratadi. Nafosat qonunlariga ko'ra, yaratilgan narsa - buyum, ya'ni shakl va mazmunga mos narsa, ya'ni buyum yaratishning o'zi san'at asari bo'lolmaydi. Narsa - buyumning amaliy va estetik hislatlariga g'oyaviy - badiiy ifodalilik qo'shilgandagina u san'at asari tarzida qaror topadi. Bezakli - amaliy san'at asari darajasida ishlangan narsa - buyum, ya'ni san'at asari hamma vaqt muayyan g'oyaviy - badiiy mazmunga ega bo'ladi.

G'oyaviy - badiiy mazmunni aks ettirish uchun ko'p asrlar davomida bezakli - amaliy san'atning o'z «tili» shakllangan. Mutanosiblik, vazn - ohang, tomonlar tengligi va bezak bu san'at turining muhim xususiyatlaridir.

Bezak naqsh bilan chambarchas bog'liq. Naqsh narsa - buyumning badiiy shaklga aylanishidir. Naqsh moddiy ashyolar bilan, ya'ni narsa - buyum bilan mustahkam va bevosita bog'liq emas. Bitta naqsh xilma - xil narsa - buyumlarni bezab turganligini har qadamda uchratish mumkin. Ko'pincha naqsh geometrik va tasviriyl tomonlar vaznli almashinib turishiga chekilgan bezak ko'rinishida namoyon bo'ladi. Naqshda vazn, teng tomonlilik, mutanosiblik hissi kuchli namoyon bo'ladi va qaror topadi. Unda hodisalarning bevosita tuyg'uli qiyofasidan mavhumotga yo'g'rilgan his - tuyg'ular qaror topadi. Naqshda tasviriyl tomon bo'lishi mumkin («o'simlik» yoki «jonivor» naqshlar), ammo u yordamchi vazifani ado etadi. Naqsh quvonch va qayg'u, osoyishtalik va bezovtalik kabi eng umumiy tuyg'u va kayfiyat holatlarni ifodalaydi.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida u yoki bu g'oyaviy - tuyg'uli ohanglar naqshda ustivor darajada namoyon bo'ladi. Xalq hayoti va uning ruhiyl holati xususiyatlari geometrik, o'simlik yoki jonivorlar mutanosibliklarida bajarilgan etakchi naqsh ohanglarida ifoda topadi. Texnika estetikasining amaliy ko'rinishi bo'lgan «dizayn»ning vujudga kelishi, texnika loyihalarining maishiy narsa - buyumlar sohasiga ham tadbiq etilishi natijasida texnika va bezakli amaliy san'at birligi shakllandi va o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonlari yo'lga qo'yildi.

Odamlarni nafosatli tarbiyalashda ham bezakli - amaliy san'atning ahamiyati beqiyosdir. U o'zining amaliy - foydali tomonlari bilan millionlarga doimiy ravishda nafosatli ta'sir o'tkazib turadi.

San'at turlari orasida me'morchilik alohida o'rin egallaydi. Me'morchilik inson yashash muhitini uyushtirishda, uning hayot faoliyatida ulkan ahamiyat

kasb etadi. Unda san'at va boshqa faoliyat sohalari o'rtasidagi cheklanganlik yo'q. U ikki tomolama bo'lib, ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatga taalluqlidir.

Me'morchilikning badiiy tomoni amaliy tomoniga bo'ysundirilgan bo'ladi. Me'morchilikda badiiy (qiyofali ifoda) avvalo, binolar yoki ular majmuining ijtimoiy ahamiyatligida ko'rinadi. Bu hol uning badiiy imkoniyatlarini yanada oshiradi va me'morchilik xususiyatlarini belgilab beradi.

Boshqa san'at turlarida bo'lganidek, me'morchilikda ham bilish o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Alohida inshoot yoki majmua tarzidagi me'morchilik asarlari tarixiy davr yaxlit qiyofasini vujudga keltiradi. U o'z davrining eng umumiy va o'ziga xos fikr va tuyg'ularini umumlashgan va mujassamlashgan tarzda ifodalaydi. Me'morchilik asarlari voqelikni bevosita tasvir etmaydi, balki inson kechinmalarini aks ettiradi. Donishmandlar me'morchilikni «qotishma» musiqa yoki «toshdagi doston» deb ta'riflaganlar. Bular me'morchilik to'la tavsifini anglatmasada, uning tabiatini belgilaydi. Me'morchilik musiqaga o'hshab davr qiyofasini ijtimoiy - ifodali ko'rinishda yaratadi. Agar musiqada qiyofa eshitish orqali idrok etishga mo'ljallangan bo'lsa, me'morchilik ko'rishga mo'ljallangandir.

Memorchilik asarlarini idrok etish orqali odamlar turmush tarzini, maishiy hayoti va hayot faoliyati xususiyatlarini, ijtimoiy tuzum tabiatini, estetik orzuni, u yoki bu davr ijtimoiy ruhi va mafkurasini in'ikos etamiz. Me'morchilik xosil qiladigan bilimlar majmuining ahamiyati shundaki, odamlarda u yaratilgan madaniy muhiti, hayot tarzi, fikr va tuyg'ulari to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi.

Me'morchilik binolari va inshootlarini ko'rar ekanmiz, go'yo tarixning «tosh varaqlarini» ko'zdan kechirganday bo'lamiz, boshqa olamga kirib, uni o'z yaxlitligicha anglaymiz. Eng muhimi, ular inson bilan mutanosiblikda ifodalanganini ko'ramiz. Memorchilik o'zining hajmlari va chiziqlari «tili» bilan davr va inson haqida boshqa san'at turlaridan ko'ra ko'proq hikoya qilganday bo'ladi.

Shunday qilib, me'morchilik ham boshqa san'at turlari kabi voqelikni yuksak badiiy darajada aks ettiradi, o'z majmui bilan o'z davrining umumlashgan, keng qamrovli va yalit qiyofasini namoyon qiladi.

Hozirgi me'morchilik ayrim binolar va hatto ular majmuini yaratishga emas, balki me'morchilik ijodining oliy ko'rinishi bo'lgan shahar bunyod etishga mo'ljallangan. Toshkent, Nukus, Samarqand, qo'qon, Andijon, Navoiy, Guliston, Namangan, Qarshi, Jizzah shaharlaridagi me'morchilikning eng yaxshi namunalari erkin rejalashtirishga, yaratilgan tabiiy muhitni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, engil, erkin tarzidagi hayot sharoitlarining xilma - xil va doimiy o'zgaruvchanligiga uzviy moslasha borishi bilan izohlanadi.

Musiqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea - hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmagani uchun eng

avvalo inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi. Musiqada tasviriy tomon bo'lishi shart emas. Musiqa musavvirlik va haykaltaroshlikdan farqli tarzda dunyo haqida tasavvurlar emas, balki tuyg'ular va kayfiyatlar xosil qiladi. Musiqa voqelikning his - tuyg'uli qiyofasini yaratadi. Musiqada tuyg'ular hayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtai nazaridan anglangan bo'ladi. Musiqa inson hissiyotlari holatining barcha rango - rang tovlanishlarini aks ettirishga qodir. U eng murakkab tuyg'ular, eng nozik kechinmalar va kayfiyat holatlarini ham ifoda eta oladi. Musiqa vaqt mezoniga amal qilib, kechinmalarining o'zgarib turishlari, avjlanishi va pasayishi jarayonlarini qamrab oladi.

Musiqa murakkab ijtimoiy tuyg'ularni, eng avvalo, hayotdagi nutq ohanglari yoki harakat vaznlari aks etadigan axloqiy (sevgi, nafrat, g'urur, qo'rquv) estetik (san'at yoki tabiat nafosati, uluqvorlik, fojeali, kulgili) tuyg'ularni ifodalaydi.

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch - qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, xayol surish, bardamlik, tushkunlik va shunga o'hshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir - biriga singib ketishida namoyish qila oladi. Hzbek milliy musiqaning durdonasi bo'lgan «Shoshmaqom» dastasida xalqning murakkab tarixi, kechinmalari, zavq - shavqi, qayg'u - hasratlari, orzu - umidlari shu qadar teran, chuqur, nafis jozibali, ehtirosli ifoda topganki, go'yo shirin xayollar dunyosi bag'riga kirib ketasan kishi.

Musiqa ham boshqa san'at turlari kabi ijtimoiy hodisadir. Ammo uning ijtimoiy mazmuni niqoblangan tarzda bo'lib, u xalq va maishiy hayot musiqa namunalarida yoki musiqa ijodining so'z bilan bog'liq shakllarida ochiqroq ko'rinadi.

Musiqa hayotning barcha tomonlarini aks ettira oladi. U bir vaqtning o'zida ham epik, ham lirik, ham dramatik ohanglarda jaranglayveradi, uning ifodali tabiatiga ko'ra, ko'proq lirikaga moyil, lirika esa musiqaning estetik asosini tashkil etadi.

Musiqa nafosat olamining insonparvar orzu - umidlarini to'g'ridan to'g'ri va bevosita aks ettiradi. U insondagi eng yaxshi hislat va fazilatlarni namoyish etishga qodirdir. Musiqa ijro etiladigan san'atdir. Musiqa san'ati ijro etilishi jarayonidagina jonlanadi, «tilga kiradi». Xalq musiqa ijodida bastakor va ijrochi, ba'zan eshituvchi ham birlashib ketadi. hozirgi davr musiqa madaniyatida ijrochilik san'ati musiqaviy ijodkorlikning nisbatan mustaqil ko'rinishini olgan. Musiqa san'atning raqs, qo'shiq turlari bilan qo'shilganda etakchilik qilsa, sahna, kino, «oynai jahon» asarlarida yordamchi vazifani bajaradi. Musiqa inson faoliyatining eng muhim sohalari bilan aloqaga kirishadi, mehnat jarayonlari va marosimlarida qatnashadi. Maishiy hayotning muhim qismi sifatida odamlarni biror maqsad - niyatga safarbar etadi, ularni

yagona tuyg'u va g'ayrat atrofida birlashtiradi. Musiqa insonni tarbiyalash vositasi bo'lib, unda yuksak fikr va tuyg'ular, nafosat, didi va orzular xosil qiladi, insonning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi.

Ifodali san'at tizimida raqs san'ati ham muhim o'rin tutadi. Raqs qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, dastavval u maishiy turmush bilan bog'langan ov, jang, e'tiqod timsollari edi. Raqs qadimgi odamlarni birlashtirishga, uyushtirishga hissa qo'shgan bo'lib, uning bu xususiyatlari hozirgi kunda ham xalq raqslarida saqlanib qolgan.

Raqs ihtisoslashgan badiiy faoliyatning nozik va murakkab ko'rinishiga, kasb - koriga aylangan bugungi kunda u san'at turlari bilan hakorlikda amal qiladi. Raqs musiqasiz namoyon bo'la olmaydi. Musiqa raqs to'qimasidan joy olib, uning his - tuyg'uga ta'sir etish tizimini belgilab beradi.

Raqs san'ati teatr bilan ham chambarchas bog'liq, u tomoshali teatr san'atining muhim belgilarini o'zida mujassamlashtirgan holda badiiy qiyofalar yaratadi.

Raqs uchun inson tanasining mayin - egiluvchanligi asosiy omildir. Raqsni inson tanasining musiqaviy ifodali harakatlari san'ati, deyish mumkin. Zero, inson tanasining raqs vositasida nafis - mayin harakatini ifodalash imkoniyati uning badiiy qiyofasi, «tili» asosidir. Musiqa - tovushlar ohangdorligi bo'lsa, raqs - ohangdor va qoidalashgan harakatdir. U ohangli va qoidali harakatlar vositasi orqali inson ichki dunyosini, uning eng nozik va chuqur kechinmalarini aks ettiradi. Raqsda ifoda ustun darajada namoyon bo'ladi. Tasviriy tomon unga bo'ysunadi. Tasvir raqsda imo - ishora (pantomima) ko'rinishida aks etadi. Imo - ishora san'ati mustaqil maqomga ham ega bo'lib, raqs to'qimasiga uzviy bog'lanadi. Raqsda imo - ishoraning ortiqcha o'rin olishi raqsning estetik imkoniyatlarini, ba'zan raqs qiyofaliligini pasaytiradi.

hozirgi zamon raqsi bir necha ko'rinishlarga ega; xalq va bazm raqslari, sahna raqslari, akrobatik, vaznli, imo - ishorali raqsar va boshqalar. Xalq raqslari bir vaqtning o'zida ham san'at turi, ham faoliyat turi tarzida namoyon bo'ladilar. Sahna raqslarida ba'zan tasviriy tomon ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ovrupo raqs san'atining oliy ko'rinishi balet raqsi hisoblanadi. Baletda raqs teatr va dramaturgiya (libretto) bilan tarkibiy birlikni tashkil qiladi. Balet ir vaqtda ham raqs turi, ham sahna asaridir. Balet badiiy qorishmaning eng murakkab hili hisoblanadi va unda musiqa hamda raqs kuchi mujassamlashgan bo'ladi.

Tomosha - qorishma san'at turlari tizimiga teatr, ochiq sahna, (estada), sirk, kino, «oynai jahon» (televidenie) kiradi. Badiiy madaniyatning bu sohalari o'rtasida muayyan farqlar bo'lishiga qaramay, ularga xos bo'lgan umumiy belgilari jihatining memorchilik va rassomchilikdagi qorishma xususiyatlaridan farq qiladi. Me'morchilik, musavvirlik, haykaltaroshlikda qorishma o'rni qanchalik katta ahamiyat kasb etmasin, ularning har biri alohida mustaqil san'at turi sifatida namoyon bo'la oladi. Tomosha - qorishma san'at turalrida esa tarkibiy qorishmaning barcha ko'rinishlari birlashmasa (masalan, kinoda teatr, musiqa, tasviriy san'at qatnashmasa) ularning birortasi mavjud bo'lolmaydi. Teatr, ochiq saqna, sirk, kino «oynai jahon» ko'rinishlarini qorishmalilik bilan birga «o'yin» ham birlashtirib turadi. Bu san'at turlarining

odamlarni birlashtirish, ularni faol hamkorlik va ijodkorlikka tortish qobiliyati ularni axloqiy - estetik ta'sir o'tkazishning eng qudratli vositasiga aylantiradi. Texnika, aloqa vositalari, texnik jihozlar taraqqiyotining hozirgi bosqichi tufayli tomoshali - qorishma san'at turlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Teatr san'ati fazo va vaqt belgilariga ega. Spektaklda juda ko'p fazoli tomonlar mavjud. Undagi buyum - jihozlar muhiti, sahna bezaklari, kiyim - kechak va nihoyat, aktyorning o'zi muayyan fazoli xususiyatga ega. Spektaklda vaqt mezonni ham muhim o'rin tutadi. Sahna asari doimo biror vaqt oralig'ida sodir bo'ladigan alohida harakatni namoyish etadi. Hozir fazoli va vaqt mezonlarini mujassamlashtirilgan teatr fazo va vaqt uzviy birligi amal qiladigan san'at ko'rinishidir. Teatrning fazo va vaqt tomonlarini aktyor birlashtirib turadi. aktyordan alohida iste'dod, xotira, ehtiros, ma'noli tasavvur xayoli, ifoda kuchi talabi kabi mahorat talab etiladi. Aktyor mahorati teatr san'atining barcha shakllari uchun muhim xususiyatdir. Aktyor mahorati teatr san'atining tub va nodir xususiyatidir. Teatr san'atining boshqa qismlari aktyor ijodiga xizmat qiladi. Aktyor sahnada bir vaqtning o'zida ham ijodkor, ham qiyofa (obraz) yaratuvchi, ham ijrochi bo'la oladi.

Aktyor sahna qiyofasini yaratayotganida dramatik syujetga asoslanadi. Bu o'rinda aktyor san'ati dramaturg yaratgan rolni ijodiy talqin qilish san'atiga aylanadi. Ammo, asl san'atkor aktyor uchun dramatik qiyofa yangi sahna qiyofasini yaratish uchun asos bo'la oladi, holos. Aktyor mazkur rolni har safar ijro etganida, uni yangi hayotiy kuzatishlar, o'y - xayollar, ifoda vositalari bilan to'ldirib, sayqal berib, boyitib boradi.

Aktyor ijodining mohiyati muallif badiiy rejasiga bo'lgan e'tiqodi, u bilan qoshilib - qorishib ketishi, dramaturg taklif qilgan fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar og'ushiga g'arq bo'lib, ularni sahna vositalari orqali namoyon qilishi bilan izohlanadi. Aktyor dramaturg asarini o'zicha «qayta yaratadi», muallifga «sherik» darajasiga ko'tarilishi mumkin. Aktyor so'zlar zamiriga yashiringan mazmunni ochib beradi, matnga o'z talqini bilan aralashadi, odamlar va ular hayot tarziga o'z munosabatini bildiradi, ularning barchasini o'zining ijodiy tasavvurlari bilan boyitadi.

Aktyor haqiqiy badiiy qiyofaga aylanib ketishga, uning mag'ziga kirib ketishga intiladi. Matnni to'la egallab olish, qiyofa mag'ziga etib borish boshqa san'at turlari va ko'rinishlarida ham sodir bo'ladi. Ammo, teatrdan yorqin, betakror qiyofa (obraz) lar yaratish aktyor mahoratining asl maqsadi va oliy cho'qqisi hisoblanadi. Teatr aktyori ichki va tashqi jihatdan sayqal topgan mahorat, yuksak ovoz - nutq ohangi va mayin - egiluvchan madaniyat sohibi bo'lishi kerak.

Teatr spektakli ijodiy qayta qayta ishlab chiqilgan san'at asaridir. Aktyor yaratayotgan qiyofalar tufayli har bir spektakl sahnaga necha marta takror qo'yilishidanat'iy nazar, har safar yangi ijod mahsuli kabi namoyon bo'ladi. Tomoshabin teatrdan tayyor san'at asarini idrok etibgina qolmay, balki hozir shu erda, bugun sodir bo'layotgan badiiy ijod jarayoni «ichida» ishtirok etadi.

Sahna san'ati o'zining butun tarixi davomida adabiyot, musiqa, tasviriy san'at bilan aloqadorlikda rivojlandi, shu tarixi davomida sahna

qorishmasining ayrimlari ko'proq yoki kamroq qatnashgan, ammo qorishmaning o'zi o'zgarmas bo'lib qolavergan. Aktyor sahna qorishmasining asosi bo'lib kelgan, hozir ham shunday.

Sahna qorishmasida dramatik adabiyot (pesa) alohida o'rin tutadi. Teatr san'ati dramatik adabiyotning talqinchisi tarzida namoyon bo'ladi. Teatr va dramaturgiya o'zaro munosabatlari masalasi sahna san'atining voqelik bilan aloqadorligi masalasining tarkibiy qismidir. Yozuvchi, musavvir, me'mor, haykaltarosh voqelikka to'g'ridan - to'g'ri murojaat qilsalar, rejissyor, aktyor, balet ustasi dramaturg, bastakor tomonidan yaratilgan «estetik voqelik»ka murojaat etadi. Teatr dramaturgiyasi sahna vositalari orqali vujudga kelgan sahna qiyofalari tizimini anglatadi.

Dramaturgiya hamisha teatrnı «etaklab» yuradi. Aktyor va rejissyor mahorati, hatto sahna texnikasining takomillashib borishi dramatik adabiyot taraqqiyotiga bog'liq. Teatr san'ati dramatik asarni mustaqil talqin qiladi, sahna vositalari orqali o'ziga xos teranlikda ochib beradi, spektakl uslubi va ko'rinishi echimida teatr asari mustaqilligini namoyon qiladi. Shu tarzda rejissyor, aktyor, rassom hamkorligida yagona echim xosil bo'ladi.

Teatrning o'ziga xos «tili» - harakatdir. Teatr san'ati eng avvalo sahna harakati san'atidir. Shu bois spektakl ijrochilarini «harakatdagi shaxslar» deb ataydilar. Sahna harakati asosini dramatik harakat tashkil etadi. Dramatik harakat «ichki harakat»dan tashkil topadi. «ichki» harakat inson ruhiy jarayonlarini qamrab oladi va uning voqelik bilan hilma - hil munosabatlari tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Teatr dramatik harakatni sahna harakatiga aylantiradi. hozirgi davr teatr san'ati adabiyot bilan ko'proq aloqaga kirishmoqda. Sahnaga nasriy asarlar, jumladan, roman ko'proq kirib borayotir. Teatr jamoalari nasriy asarlarni sahnalashtirishda ham muvaffaqiyatlar qozonmoqdalar. Nasriy asarlarni sahnalashtirish badiiy madaniyatning hali o'zlashtirilmagan qatlamlarini kashf etish, rejissyor izlanishlarini yanada faollashtirish, aktyor mahoratini yangi sifat darajasiga ko'tarishga yo'l ochmoqda.

Sahna qorishmasida musiqa muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqali drama teatrida musiqa voqea - harakat rivojini ifodalaydi, asar mazmunini tomoshabinga etkazishga xizmat qiladi. Drama teatrida ham musiqa ahamiyati beqiyosdir. Zero aktyor nutqi, uning sahnadagi hatti - harakatlari musiqa ohanglari va vazni qonunlariga muvofiq tarzda ifodalanadi.

Spektaklning myayan fazoli echimlarida me'morchilik va musavvirlik namoyon bo'ladi. hozirgi teatrdan sahna rassomi ishtiroki sahnani jihozlash, yoki aktyor o'yinini sodir bo'ladigan qulay maydonchani yaratish, spektakl g'oyasini mumkin qadar mayin - jozibali etkazish va boshqa mezonlar bilan belgilanadi. Bordiyu, spektaklda musiqaviy, mayin - ifodali, tasviriylar narsalar mustaqil yoki ustivor ahamiyat kasb etib qolsa, unda sahna harakati tizimi izdan chiqadi. va yaxlit sahna qiyofasi buziladi.

Teatr jamoaviy san'at turi bo'lib, uning yutug'i badiiy yaxlitlikka erishishda namoyon bo'ladi. Teatr asari asosida yagona badiiy reja yotgan bo'lib, u barcha ijodkorlar mehnatini birlashtiradi. hozirgi sahna rejissyori spektakl tashkilotchisi va ilhomchisi sifatida teatr qorishmasini vujudga keltiradi, badiiy

yaxlitlik xosil qiladi, qiyofalarni shakllantiradi va uning markazida aktyor ijodini qaror toptiradi.

Ochiq sahna va cirk san'atiga yaqin turadi. Ochiq sahna san'atining asosiy xususiyati shuki, u tomoshabin bilan to'g'ridan - to'g'ri va bevosita, engil va samimiy muloqot sodir etiladi. Odatda, ochiq sahna tomoshalari qat'iy syujet birligiga ega bo'lmasada, u bir - birlari bilan bog'lanmagan ijro navbatlari yig'indisi emas. Ochiq sahna dasturini ichki g'oyaviy - tuyg'uli mazmuni o'yin - kulgi yoki ko'ngil ochish vazifasidan kelib chiqadi. O'zbekiston «oynai jahoni»ning va radiosining «Miniatyuralar teatri», «Tabassum», «Nashtar»dasturlari, «Yalla»dastasi ijodkorlari tayin va o'tkir, hajv va zavq - shavqli o'yin - kulgi asosidagi badiiy qorishma yaratib, odamlarga shodlik, yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi, faol ijtimoiy - tarbiyaviy vazifani ado etadi.

Dorbozlik, qiziqchilik va cirk tomoshasi ham eng qadimiy san'at turlaridan bo'lib, ular keng xalq ommasi e'zoziga sazovor bo'lgan.

Cirk artisti qiyofa mag'ziga kirib borishga intilmaydi, ba'zi «xavf - xatar»larni engib o'tish orqali mahoratini namoyish etadi. Cirk san'atida g'aroyib moslamalarda hunar ko'rsatish (ekscentrik) va qiziqchilik - masxarabozlik, murakkab badantarbiya san'ati (akrobatika) va jonivorlarni o'rgatish (dresirovka) bir - biri bilan chatishib ketadi. Bular cirk artistidan epchillik talab etadi. Bu san'at turi ajoyib - g'aroyib hunar ko'rsatish va voqelikni mubolag'alar tarzida o'zlashtirishga moyildir.

Cirk san'ati asosini navbat mavzusi (nomer) tashkil qiladi. U mustaqil estetik qiymatga ega bo'lib, cirk dasturining tarkibiy qismidir. Cirk tomoshalari hilma - hil san'at ko'rinishlarini jamlab namoyon etadi. Shu bois cirk turli yoshdagi did - farosatli odamlarning sevimli tomoshasi bo'lib qolgandir.

hozirgi badiiy madaniyat tizimida kino muhim o'rin tutadi. Bir vaqtlar ko'cha maydonlarida mohirlik bilan namoyish qilingan o'yin - kulgi va ko'z boylag'ich ko'rinishlaridan boshlab, hozirda murakkab hayotiy ziddiyatlar va munosabatlarni aks ettirayotgan kino san'ati HH asr fan - texnika taraqqiyoti mo'jizasiga aylandi. Kino faqat ilmiy - texnik taraqqiyot mevasi bo'libgina qolmay, balki fan - texnika namoyon bo'lishining shakllaridan biridir. Kino san'ati kinematografik texnika namoyon bo'lish shakllaridan biridir.

Kino san'atining texnik asosini suratga tushirish (fotografiya) va kinokamera tashkil etadi. Ular hayotning hilma - hil ko'rinishlarini badiiy o'zlashtirish orqali kino asarining vazifasini ado etadi.

Kinoning texnik vositalari (oddiy kinokamera, harakatlanuvchi kinokamera, ovoz, rang, fazoli ovoz, keng ekran, o'ta sezgir kinoplyonka, hajimli tasvir) maishiy hayot sohalarining chuqur qatlamlarini aks ettirish imkoniyatiga egadir.

Kino boshqa san'at turlari, hillari, ko'rinishlari ifoda vositalaridan qorishma xosil qiladi. Kinoda adabiyot asari - kinoscenariyga, teatr - kinoaktyor san'atiga, musiqa - filmning vazn - ohangiga aylanadi, musavvirlik - film tasviriy echimiga asos bo'ladi va h. Shu tariqa kino qiyofasi o'zida boshqa san'at xossalarni jamlab, ularning muhim xususiyatlarini yangi sifat darajasiga ko'taradi.

Kino san'atiga adabiyot ta'siri juda kuchli. Etuk adabiy manba etuk kinofilm yaratish garovidir. Kinofilm dramatik asarga nisbatan qilinganda romanga yaqin turadi. Kinoscenariy asosini dramtik to'qnashuvlar va ziddiyatlar tashkil etsada, kino romanga qiyos qilinganda voqelikni keng qamrovli aks ettirishi jihatidan epik adabiyotga yaqinlashadi. Kino san'atida fazo va harakat erkin ifodalanadi, qiyofalar uzoq muddatda rivojlanadi, voqea va inson ichki dunyosi tabiiy qo'shilib ketadi. Ana shu xususiyatlari bilan adabiyotning roman janrini eslatadi. Scenariy yangi adabiy ijod mahsuli hisoblanadi.

Kino san'ati tasviriy san'atning musavvirlik, haykaltaroshlik, me'morchilik turlaridan ham keng foydalanadi. Film harakatni tekislikda ifodalaydi, u harakatdagi tasvir san'ati sifatida hamfazo, ham izezoniga egadir.

hozirgi kino san'ati bir qator ifoda vositalari orqali vujudga keladi. Masalan, kinoda yorug'lik muallifning voqelikka munosabatini namoyon qiladi, kayfiyat vujudga keltiradi, hodisa ichki holati haqida tasavvur xosil qiladi, qahramon ruhiy holati va tuyg'ularini ifodalaydi.

Kino san'atida rang tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Rangli film mavzui, mazmuni, badiiy rejasi ta'sirchan quvvatga ega bo'lib, bir necha rang va oq - qora tasvirning o'ziga xos tomonlari bor. hozir rangli kino asosiy o'rin egallab olganligini eslatib o'tish zarur.

Kino ovoz bilan tirik. Ovozli kino inson bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kino va teatr san'atda ovoz - so'z bir hil maqomga ega emas. Teatrda so'z eng muhim ifoda vositasi bo'lsa, kinoda so'z yordamchi xususiyatga ega. Kino uchun tomoshali harakat eng muhim xususiyatidir.

Kinoda qahramonning nigohi, yirik tasvirda ko'rsatilgan ayolning sezilar - sezilmas elka qisishi, yoki barmoqlaring titrab turishi, ichki kechinmalarini har qanday so'z - iboralar orqali ifodalashdan ko'ra, tasvir orqali ko'rsatish afzaldir. Kinoda so'z harakatni takrorlab tursa, ko'rsatish mumkin bo'lgan holatlarni hikoya qilsa, filmning zerikarli va o'ta cho'zilgan bo'lishi tabiiydir.

Kino va teatr bir - biriga juda yaqin bo'lib, ikkalasi ham adabiyot zaminida vujudga keladi. Shu ma'noda ularni «ikkilamchi» (adabiyot birlamchi) san'at turi, deyish mumkin. qorishmalik kinoga ham, teatrga ham xos. Ikkalasi ham fazo va vaqt mezoniga bo'ysunadi va aktyor o'yini bilan bog'liq.

Kino o'z mavzuiga, ifoda vositalariga ega bo'lib, uning asosiy o'zagini kinematografik harakat tashkil qiladi. Bu harakat kinoqadr ichidagi va qadrlar birikmasi (montaj) orqali xosil qilingan harakat majmui hisoblanadi.

Kinoqadr birikmasi kinematografik ifoda vositalari orasida muhim o'rin tutadi. Film yaratuvchisi uning yordamida tomoshabin fikr, tuyg'u va o'y - xayollarini bir nuqtada uyushtiradi hamda kinematografik vaqtni zichlashtirish yoki cho'zish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kinoqadr birikmasi (montaj) kino san'ati rivojining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etgan. Bir vaqtlar ovozsiz kinoda uning roli mutloqlashtirilgan edi. Bu holat ovozli kinoda ham davom etib, u ba'zan aktyor o'rin va ayrim qadrlar mazmuni ahamiyatli tushirib yuborishga olib kelgan edi.

Kino san'atining ifoda vositalaridan yana biri - harakatdagi kinokameradir. U film yaratuvchisi qo'lida harakatni mehanik tarzda plyonkaga tushiradigan texnik uskunagina bo'lib qolmay, balki eng muhim ijod quroli hamdir.

harakatdagi kinokamera kino san'ati imkoniyatlarini oshiradi, inson hayoti siru - asrorlarini, xulq - atvorining yashirin tomonlarini ochib berishga omilkor vosita sifatida xizmat qiladi.

harakatdagi kinokamera tomoshabin va san'atkor o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirdi; eng avvalo ular o'rtasidagi masofa qisqardi, tomoshabin his - tuyg'usi o'sdi, u voqea - hodisalarning ishtirokchisiga aylandi, bir joyda turgani holda kinokamera bilan birga harakatga kiradigan bo'ldi. Ayni mahalda operator qo'lidagi kinokamera film ijodkorlari fikr - tuyg'ularini aks ettiruvchi, ularni tomoshabinga etkazuvchi nozik ijod jihoziga ham aylandi.

Kino san'ati kinoaktyor oldiga ham o'ziga xos talablar qo'yadi. Teatr aktyori tomoshabin va sahna oralig'idagi masofani hisobga olib ovozga «zo'r» beradi, imo - ishoralar, hatti - harakatni ishga soladi. Kinofilmida esa bularning hammasi ahamiyatsiz bo'lib, kinokamera oldida kinoaktyor ko'proq o'zini tabiiy, samimiy, erkin, oddiy, vazmin, bemalol tutadi. Bu bilan kinoaktyor o'zining jozibador va ehtirosiligini yo'qotmaydi.

Kino jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, unda scenariy muallifi, rejissyor, operator, musavvir, bastakor, «qadr birikmasini» yaratuvchi (montajchi) va boshqalar mehnati ishlab chiqarish jamoasi mehnati bilan qo'shilgandan so'ng kinematografiya maxsuloti yaratiladi. hozirgi zamon kinematografiyasi nafaqat san'at, balki ko'p sohali, zamonaviy texnika bilan jihozlangan ishlab chiqarish sohasi hamdir. Kinoda rejissyor kinematografik jarayon barcha qatnashchilarini birlashtirib turadi. Kino san'ati rivoji tarixini ko'p jihatdan rejissyor faoliyati tarixi deyish mumkin.

Kino san'at tizimida ustun va zaif tomonlarga ega. Masalan, harakatchanlik uning ham ustun, ham zaif tomonidir, chunki kinoni bir daqiqa ham to'xtatib qo'yib bo'lmaydi. Kino voqelikni keng qamrab olishda teatrdan ustun. Ayni paytda kino tomoshabin ko'z o'ngida sodir bo'ladigan aktyor ijodi kabi teatr sahnasi nodirligidan mahrum. Kinoda tomoshabin sodir bo'lib o'tgan badiiy jarayon texnika vositasida takrorlanayotganining guvohi bo'ladi, holos.

XX asrning ikkinchi yarmida oynai jahon (televidenie) turi ravnaq topdi. Televidenie ham ilmiy - texnik inqilob mahsulidir. «Oynai jahon» o'zining ijtimoiy ahamiyati jihatidan kengroq miqyosdagi san'at bo'lib, u siyosiy, ilmiy - texnik, estetik va boshqa axborotning tezkor etkazib berishning eng muhim vositasi hisoblanadi. «Oynai jahon» millionlab odamlar bo'sh vaqtini uyushtirishga, turmush tarziga ta'sir o'tkazishga qodir bo'lib, u insonning hayotidan mustahkam o'rin oldi.

«Oynai jahon»ning ilk badiiy vazifasi san'at turlari, hillari, ko'rinishlari samaralarini namoyish qilishdan iborat bo'lgan. «Oynai jahon» estetik faoliyatining alohida sohasi sifatida qaror topdi. «Oynai jahon» san'at turidir, deb qat'iy hukm chiqarish qiyin, chunki u shu qadar murakkab qorishma ijod sohasiki, uni voqelikni badiiy idrok etishning maxsus sohasi yoki estetik faoliyatining maxsus turi deb atagan ma'qul keladi.

«Oynai jahon» ifodaliligi deganda shu zahoti yaratiladigan (ayniqsa, sharhlovchilarda) «faoliyat»ni yanada rivojlantirish, «Zangori ekran»dagi ijrochi va tomoshabin - eshituvchi hujjatlik va badiiy harakatning hamohangligiga erishish va boshqalar tushuniladi.

Oynai jahon (televidenie) moddiy va ma'naviy madaniyat tarkibida o'ziga munosib o'rin egallashga qodir bo'lgan estetik faoliyat turi sifatida namoyon bo'layotir. San'at turlari va ko'rinishlarining, deyarli hammasi «Oynai jahon» bag'riga singib, estetik ta'sir etishning samarali vositasiga aylanmoqda.

3. Badiiy qiyofaning asosiy tavsifi uni harakatga keltiradigan san'atkor g'oya - rejasining tug'ilishi, uning asar tizimidan o'rin olish va nihoyat tomoshabin, o'quvchi, eshituvchi, tinglovchi idroki bilan bog'liq jarayonlar tavsifi bilan to'ldirilishi lozim. Mazkur bosqichlarning har biri muayyan vaqtda amalga oshadi. Bu bosqichlar orasida san'atkor g'oya - reja va uning sifati ko'p jihatdan asarning istiqbol taqdirini belgilab beradi. Badiiy reja o'zida voqelikning ichki va tashqi, yakka va umumiy tomonlarini singdirgan bo'ladi. Badiiy reja - g'oya san'atkor miyasida avval boshdanoq mavhum tushuncha tarzida emas, balki jonli taassurotlar, voqea - hodisalar bilan bog'liq holda vujudga keladi. Fikr - muddaoni amalga oshirish g'oya - rejaning o'zidanoq boshlanadi.

Tadqiqotchilar fikricha katta iste'dod sohiblari, jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulla qahhor, Oybek odatda o'z asarlari ilk rejalarini tuzib chiqar ekanlar, ularda bo'lajak asar to'qimasini asosi, voqealar rivoji, ayrim qismlarning ifoda rejasini oldindan belgilab qo'yganlar. San'atkorning ilk reja uni hayratlantirgan voqea - hodisalar bilan tasodifan to'qnashishi natijasida vujudga keltirishi mumkin. Ammo bu hodisalar bir san'atkorni chuqur ta'sirlantirib, boshqasini beparvo qoldirishi zaruriyat (qonuniyat) tarzida namoyon bo'ladi.

Badiiy g'oya - reja san'atkorni ijodga chorlaydigan ichki izchil turtkidir. U o'zining homaki chiziqlarda va iboralarda vujudga kelayotganligiga qaramay san'atkor ijodi davomida yo'naltirib turadi. San'atkorning voqelik to'g'risidagi bilimlari, tasavvuri ta'siri ostida badiiy reja mazmuni ham o'zgarib boradi. San'atkorlar ijodiy jarayonida vujudga kelgan son - sanoqsiz adabiy asar homaki yozmalari, homaki rasmlar, bastakor musiqa asarlarining homaki qismlari shunday dalolat beradi.

Badiiy reja san'atkor shaxsiy his - tuyg'ulari bilan sug'orilgan taqdiridagina uni ijodni davom ettirishga undaydi. San'atkor kechinmalari va tuyg'ulari aksi sifatida ruhiy holat badiiy ijodning asosiy belgisidir. Ulug' iste'dod sohiblari o'zlarini nihoyatda to'lqinlantirgan narsa va hodisalarni tanlab, badiiy ijodlariga mavzu qila oladilar.

San'atkor his - tuyg'ulari o'zi yaratayotgan qahramonlari qiyofasiga kirib, ular hayoti bilan yashaydi, o'zi yig'lab ularni yig'latadi, o'zi kulib ularni kuldiradi. Ularni ezgulik va mardlikka undab, o'zi ularga intiladi...

Badiiy rejaning vujudga kelishi jarayonida tasavvurlar ulkan ahamiyat kasb etadi. Ular faqat badiiy tafakkur xosilasi bo'lmay, balki bilish faoliyatining zaruriy bo'lagi hamdir. Tasavvurlarda jonli mushohada bilan birga mavhum, mantiqiy tafakkur ham chirmashib ketadi. Tasavvurlar jonli mushohada tarzida narsalar va hodisalar aksi, mavhum tafakkur tarzida esa umumlashtirish usuli orqali namoyon bo'ladi. Tasavvurlar hissiyotli va mavhum hodisalar oralig'idan o'rin oladi, ularda nafaqat voqelik, balki unga bo'lgan munosabat ham aks etadi. Inson nimani uloqtirib tashlaydiyu, nimani ilgariga suradi -

bularning barchasi tasavvurlarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, tasavvurlar badiiy qiyofa yaratishga yordam beradi. Shuni aytish joizki, san'atkorning badiiy qiyofalar yaratish qobiliyati uning tasavvurlar xosil qilish qobiliyatidan kelib chiqadi.

Badiiy tasavvurda rejalangan qiyofalar doimo san'atkor estetik orzusiga, uning go'zallik va mukammallik haqidagi o'y - fikrlariga mutanosib bo'ladi. Badiiy ijod jarayonida tasavvur kelajakni orzu - umidlar orqali oldindan payqash vazifasini ado etadi. Badiiy tasavvur tarkibida insonning orzu - umidlari, intilishlari va ehtiyojlari mavjud bo'ladi. Shu bois tasavvur ijod uchun rag'batlantiruvchi, birlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

San'atda voqelik badiiy to'qimasiz, to'qima esa voqeiy hodisalarsiz aks etmaydi. Voqelik xayol - tasavvur xosil qiladi. Bu xayol - tasavvurlarga o'y - xayol nafasi «jon» kiritadi. Puhta o'ylangan, oylab, yillab miyada qiyomiga etgan tasavvurlar mahsulining ma'nodorligini kuchaytiradi. San'atkor tasavvur yordamida ongidagi hayot tafsilotlarini, qahramon xulq - atvori ikir - chikirlarini, uning tashqi ko'rinishini va boshqa xususiyatlarini qayta tiklab olishi mumkin.

San'atkor qahramon hayoti bilan bog'liq muhim bir jihatni qayta yaratish uchun ham hayotining barcha mayda - chuyda tafsilotlarini to'la tasavvur qilishi darkor. Masalan, yozuvchi o'z qahramonini mehnat jarayonida ifodalash uchun uning kundalik turmushdagi, oilaviy va shaxsiy hayotdagi xulq - atvorini barcha ikir - chikirlari bilan tasavvur qila olishi yoki aksincha, qahramonning shaxsiy hayotini ishonarli tasvirlash uchun san'atkor uning mehnat jarayonidagi xulq - atvorini to'la tasavvur etishi lozim bo'ladi.

San'atkor tasavvuri ishonchli bo'lishi uchun uning tajribasi, hayotni yaxshi bilishi lozim bo'ladi. Yozuvchi kundalik hayot muammolarini o'rganishdan chekinsa, hohlamasa, tasavvuri so'nib boraveradi yoki bema'ni, quruq homxayolga aylanib qoladi.

Ijodkor ruhiy hayotining muhim bo'lagi bo'lgan tasavvur va fahm farosat o'zaro bog'langan bo'lib, ular ishtirokisiz ijodiy faoliyatning biror sohasida samaraga erishish qiyin. Keng ma'nodagi fahm - farosat hayot haqiqatini bevosita idrok etish qobiliyatidir. Odatda fahm - farosatni his - tuyg'u va aqliy bo'laklarga bo'lib mushohada qiladilar. his - tuyg'uli fahm - farosat haqiqatni tashqi, masalan, ko'rish yordamida anglashni, aqliy fahm - farosat esa haqiqatni aql yordamida anglashni bildiradi.


San'atkorning o'tkir fahm - farosati uning badiiy iste'dodliligi belgisidir. San'atkor o'tkir fahm - farosat va quvvat - hofizasi yordamida badiiy qiyofa, ba'zan butun bir tarixiy davrni qayta yaratadi, ba'zan esa o'z tajribasida ko'rilmagan, ammo hayotda mavjud bo'lgan narsalarni topishga muvaffaq bo'ladi.

San'atkorning hayotiy, his - tuyg'uli va aqliy tajribasi qanchalik boy va hilma - hil bo'lsa, uning fahm - farosati ham shunchalik samarali va mazmundor bo'ladi. San'atkor voqea - hodisalarni yaxshi bilishi boy taassurotlarga ega bo'lishi fahmu - farosat amaliyotiga katta yo'l ochadi. hayotdagi «to'satdan», «kutilmagan» haqiqatni fahm - farosat bilan ochish aslida san'atkor ruhiy qatlamlarida yashirinib yotgan axborot va

ma'lumotlarini birlashtirib, shu zahotiy oq ishga solish qobiliyatining mahsuli tarzida namoyon bo'ladi.

San'atkor o'zining fikr - mulohazalari, his - tuyg'ulari, kechinmalari boshqalarning ham fikri, tuyg'usi, kechinmasiga aylanib ketishiga, o'zi ko'rganini boshqalar ham ko'rishiga, o'z ma'naviy mulki boshqalarning ham ma'naviy mulki bo'lib qolishiga intiladi. Piravord natijasida san'atkor o'zining badiiy rejasini asar badiiy to'qimasiga ko'chirilishiga erishadi. Badiiy asarning vujudga kelishi bilan badiiy ijod jarayoni tugallanadi va badiiy qiyofa hayotining yangi bosqichi - badiiy idrok jarayoni boshlanadi. Shundan e'tiboran badiiy qiyofaga «jon» kiradi va u harakatga keladi. Agar u idrok etilmasa, u moddiy narsa holatida qolib ketaveradi.

Mavzuga oid o'quv – ko'rgazmali materiallar.



5.1 - ko'rgazma.

Donolar go'zallik va san`at haqida.

San`at mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san`at vositasidagina kirib borish mumkin.

Ibn Sino.

Yaxshi adabiyotsiz hech qachon yuksak ma`naviyatga erishib bo'lmaydi.

O. Shorafiddinov

Taraqqiyotda har bir davlatning o'rni o'sha xalq o'qiydigan asarlar bilan belgilanadi.

Montesk'e

Odam bolalikdan yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'ymasligi kerak, avlodlarni ham yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga yo'llab bo'lmaydi.

F. Dostoevskiy.

Zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlamoqchi ekanmiz birinchi navbatda o'quv yurtlarimizning shakli qiyofasi va tarkibi ham zamonaviy bo'lishi kerak.

I. A. Karimov.

5.2 - ko'rgazma.

№	Asar nomi	Muallifi
1.	«Qizil va qora»	
2.	«Tushda kechgan umrlar»	
3.	«Yolg'izlikning yuz yili»	
4.	«O'n besh yoshli kapitan»	
5.	«Maymun etaklagan odam»	
6.	«Alkimyogar»	
7.	«Choliqushi»	
8.	«Telba»	
9.	«Anna Karenina»	
10.	«Alvido qurol»	
11.	«Usta va Margarita»	
12.	«Kunda»	
13.	«Jannatga yo'l»	
14.	«Shaytanat»	
15.	«Sherlok Holms»	

“Tanqidiy fikrlash” usuli qoidalari.

1. Talabaning o'z fikrini erkin ifodalashi.

Talabaga aytilgan muammo bo'yicha o'z o'rnini aniqlab olishiga imkon beriladi. Masalan, nima uchun Xristianlik dini aynan yahudiylik dini bag'rida vujudga keldi? Bu borada sening fikring qanday?

2. O'z fikrini oydinlashtirish.

Talabaning fikrini yanada oydinlashtirish uchun qo'shimcha savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? O'z fikringni tushuntira olasanmi?

3. O'zgalar fikrini tahlil etish.

Qatnashuvchilar o'z fikrlari bilan boshqalar fikrlarini o'zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama – qarshiligini tahlil etishi kerak.

4. Muammo natijasini qabul qilish.

Bu tanqidiy fikrlash usulining so'ngi bosqichi hisoblanib barcha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar.

1. San'atning paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
2. San'atning qanday turlarini bilasiz?
3. San'atda mazmun va shakl birligi haqida nimalarni bilasiz?
4. Xalq amaliy san'ati turlariga misollar keltiring
5. San'atning tarixiy taraqqiyoti qanday kechgan?
6. San'at asarini baholay olasizmi?
7. San'atning qanday turidan boxabarsiz?
8. She'riyat va badiiy adabiyotning inson ma'naviy rivojlanishidagi o'rni qanday?

M U N D A R I J A.

Kirish	5
1-mab3y. Turkiston ma'rifatchi jadidlarining axloqiy qarashlari.....	7
2-mab3y. Axloqiy tamoyillar va meyo'rlar.Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari.....	22
3-mab3y. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob.....	35
4-mab3y. Nafosatshunoslikning mushtarak mezoniyl tushunchalari.....	50
5-mab3y. San'at asarini nafosatli idrok etish va shaxs nafosatli tarbiyalari.....	67